

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

XUDOYQULOVA MARHABO AHADOVNA

ONA TILI

O‘quv qo‘llanma

**(5111700-Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi Sirtqi va 2-mutaxassislik talabalari
uchun)**

Buxoro -2022

UO'K 811.512.133(075.8)

X 87

Xudoyqulova, Marhabo.

Ona tili [Matn] : o'quv qo'llanma / M. Xudoyqulova.- Buxoro: Fan va ta'lim, 2022.-124b.

KBK 81.2O'zb

Ushbu o'quv qo'llanmada boshlang'ich ta'lim sirtqi yo'nalishi talabalari uchun ona tili darslarida «Sintaksis» bilimlarni o'quv-metodik vositalar yordamida o'rgatishning mavjud holati, uni o'qitish usulidan foydalanish xususida mulohaza yuritilgan. Ona tili mashg'ulotlarida o'qituvchi nafaqat asoslangan o'quv topshiriqlardan, balki qisman ijodiy mashqlardan ham unumli foydalanish haqida tavsiyalar berilgan.

Qo'llanma 5111700-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi Sirtqi va 2-mutaxassislik talabalariga mo'ljallangan "Ona tili va bolalar adabiyoti" fanini o'qitishda ta'limga innovatsion yondashuv, mavzularni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida samarali o'rgatish muammolarini yechishga qaratiladi.

Taqrizchilar

f.f.f.d. (PhD), dotsent M.Y.Ro'ziyeva

f.f.f.d. (PhD) R.A. Saidova

Ushbu o'quv qo'llanma 2022- yil 4-iyulda Buxoro davlat universiteti kengashining 11-sonli majlisida nashrga tavsiya qilindi

ISBN 978-9943-9065-4-9

@Filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) M.A. Xudoyqulova

1-MAVZU: SINTAKSIS KURSIGA KIRISH

R E J A :

1. Til sistemasida sintaksisning tutgan o'ri.
2. Sintaksis tushunchasi va ma'nolari.
3. Sintaksis kursining tekshiruv ob'yekti.
4. Sintaksisning boshqa sohalar bilan aloqasi.

I. So'zlarning grammatik aloqasi:

1. Teng aloqa.

2. Tobe aloqa: a) moslashuv;

b) boshqaruv;

v) bitishuv.

II. So'zlar o'rtasidagi semantik-grammatik munosabatlarni ifodalovchi vositalar.

III. Semantik aloqaga kirgan so'zlar orasidagi mantiqiy munosabatlar turi:

Sintaksis – lotincha so'z bo'lib, tuzilish, qurilish ma'nolarini anglatadi. U fan sifatida so'zlarning bir qatorga tizilishi natijasida hosil bo'lgan qurilmalarni o'rganuvchi ta'limotga nisbatan ishlatiladi. Sintaksis grammatikaning teng huquqli bir qismidir. U tilning ierarxik sintaksisda eng yuqori bosqich hisoblanadi. Til bilimlari fonetika bilan bo'shlanib, sintaksis ta'lumoti bilan yakunlanadi. Sintaksis bilan bog'liq bo'lgan bir qator atamalarga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Sintaktik aloqa – sintaktik konstruktsiyani ta'skil etgan elementlarning birikish

yo'li.

Sintaktik konstruktsiya – so'zlarning ma'no va grammatik jihatdan birikiShidan

hosil bo'lgan qurilma: saxiy kuz, go'zal bahor...

Sintaktik konstruktsiyaning tashkil qiliniShida elementlarni bog'lovchi vositalar: intonatsiya, ko'makchilar, keliShiklar va egalik qo'shimchalaridir.

Sintaktik hodisa – sintaktik birliklarni o'zaro birikish jarayoni.

Sintaktik munosabat - sintaktik aloqa bilan sinonim tarzda qo'llanuvchi atama.

Sintaksisning tekshiruv ob'yekti keng.

Shunga ko'ra hozirgi o'zbek adabiy tilida:

1. So'z birikmasi sintaksisi.
2. Gap sintaksisi.
3. Matn sintaksisi.

Ana Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, sintaksisni tekshiruv ob'yekti so'z birikmasi, gap, gap bo'laklari, gap turlari yaxlit tugallangan matn ko'riniShlari hisoblanadi. Umuman, sintaksisni tekshiruv ob'ekti sintaktik qurilmalardir. Sintaktik konstruktsiyalar tuziliShiga ko'ra bir so'zli, ikki so'zli, ko'p so'zli sintaksik konstruktsiyalarga bo'linadi. Bir so'zli sintaktik konstruktsiya deyilganda,

faqat birgina soʻzdan iborat boʻlgan atov gap tipidagi qurilmalar taʼshuniladi. Masalan: **Bahor**. Atrof koʻm-koʻk mayasalar bilan qoplangan.

Ikki soʻzli sintaktik konstruktsiya faqat ikki mustaqil maʼnoli soʻzning birikiShidan taʼshkil topadi: Lolaning kitobi, goʻzal diyor, Oygul bilan Baxtiyor.

Koʻp soʻzli sintaktik konstruktsiyalar uch yoki undan ortiq mustaqil maʼnoli soʻzlardan taʼshkil topadi:

Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi ilgʻorlarining yigʻilishi.

Kecha men Toshkentdan poyezdda keldim.

Sintaksis tilshunoslikning barcha sohaları bilan oʻzaro aloqador boʻladi. Fonetikada nutq tovuShlari; leksikologiyada soʻz maʼnolari; morfologiyada soʻz Shakllari va turkumlari oʻrganilar ekan, ularning asosiy vazifasi va maʼnosi sintaksik konstruktsiyada toʻla yuzaga chiqadi. Sintaksik konstruktsiyalar esa sintaksisning asosiy tekshiruv obʻyektı boʻlib boʻshqa sohalar bilan aloqasini vujudga keltiradi.

Sintaksis grammatikaning bir qismi boʻlib, gap qurilishi haqidagi taʼlimotdir. Gap va uning logik-grammatik tiplari sintaksisning oʻrganish obʻektidir. Soʻz birikmalari va gap boʻlaklari gap qurilishining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Gapda soʻzlarning oʻzaro sintaktik aloqaga kirish usullari sintaksisning «soʻz birikmasi» bahsining obʻektı hisoblanadi.

Sintaksis grammatikaning ikkinchi qismi – morfologiya bilan uzviy bogʻliqdir. Morfologiya va sintaksis bir-birini toʻldiradi. Sintaktik kategoriyalar koʻpincha morfologiya bilan bogʻliq holda oʻrganiladi. Masalan, sodda gaplarda paradigmasi morfologik kategoriyalar asosida bayon qilinadi. Baʼzi til hodisalari (kelishiklar, yordamchi soʻzlar) ham morfologiyada, ham sintaksisda oʻrganiladi.

GAPDA SOʻZLARNING OʻZARO ALOQAGA KIRISH USULLARI.

Soʻzlar oʻzaro tenglashish, munosabatdorlashish, ergashish, moslashish orqali sintaktik aloqaga kirishadi.

Tenglashishda sintaktik jihatdan teng, biri ikkinchisiga boʻysunmaydigan soʻzlar sanaSh ohangi yoki teng bogʻlovchilar yordamida sintaktik aloqaga kirishadi. Bunda ochiq yoki yopiq qator hosil boʻladi:

Zulfiya va Feruza birga dars tayyorlaShdi.

(Yopiq qator)

Zulfiya, Feruza, Nazira, Dinoralar birga dars tayyorlaShdi.

(Ochiq qator)

Ergashishda biri hokim, biri tobe boʻlaklar sintaktik aloqaga kirishadi: beshta daftar, vazifani bajarmoq.

Munosabatdorlashish (koordinatsiya)da biri ikkinchisini taqozo qiladigan soʻzlar sintaktik aloqaga kirishadi. Bunda biri ikkinchisiga hokim, biri ikkinchisiga tobe: Salimaning daftari. Bu tip konstruktsiyalarda birinchi komponentning belgisisiz keliShi ham mumkin: institut kutubxonasi.

Moslashishda ega va kesim formasiga koʻra, yaʼni Shaxs-sonda molashadi: Men oʻqidim. Siz keldingiz. Uchinchi shaxsda son jihatidan doimo moslashish shart emas. Qiyoslang: Ular keldilar, ular keldi.

So'zlarning o'zaro sintaktik aloqasi predikativ hamda nopredikativ bog'lanish hosil qiladi. Moslashish predikativ bog'lanish, tenglashish, ergashish, munosabatdorlashish, nopredikativ bog'lanish hosil qiladi.

Gapda so'zlar, umuman olganda, o'zaro ikki xil sintaktik aloqa yordamida bog'lanadi:

1. Teng aloqa.
2. Tobe aloqa.

Teng aloqa yordamida o'zaro birikkan so'zlar semantik-grammatik jihatidan mustaqil bo'ladi, biri ikkinchisiga tobe bo'lmaydi, formal jihatdan bir xilda shakllanadi. Bunday aloqani yuzaga chiqaruvchi so'zlar gapda bir xil sintaktik funktsiyani bajaradi, bir xil so'z turkumidan ifodalanadi. Teng aloqa yordamida uyushiq bo'laklar hosil bo'ladi.

Gapda teng aloqaga kirgan so'zlar o'rni almashtirilganda ham grammatik holatga putur etmaydi.

Bu tipdagi so'zlar bir grammatik aloqani yuzaga chiqaruvchi so'zlar-komponentlar o'zaro teng bog'lovchilar (Tohir va Zuhra, olma va anor kabi), tenglik intonatsiyasi (Muhayyo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas) shuningdek, har ikkala usulning birga qo'llanishi bilan (iShchi, dehqon va intelligent) bog'lanadilar.

So'zlarning teng aloqasi teng bog'lovchi funktsiyasida keluvchi ayrim yuklamalar yordamida ham hosil qilinishi mumkin. Masalan:

Onayu bola-gulu lola.

Demak, ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarning grammatik-semantik jihatdan teng munosabatga kiruvchi teng aloqa deb aytiladi. Bunday aloqani yuzaga chiqaruvchi so'zlar alohida olinganda ham, gap doirasida ham mustaqil tushunchani anglatadi.

So'zlarning tobe aloqaga kiruvchi bir so'zning ikkinchi bir so'zga semantik va grammatik jihatdan ergashib, hokim-tobelik munosabatni hosil qilinishi natijasida yuzaga keladi.

Tobe aloqa yordamida so'z birikmasi hamda gap hosil qilinadi. Tobe aloqa orqali birikkan so'zlardan-komponentlardan biri hokim (bo'sh so'z), ikkinchi tobe (ergash so'z) bo'ladi.

Hokim tobelik qo'shilmasining xarakteridan, bo'sharuvchi so'zning semantik hamda so'z formasi va so'z tartibidagi almashinib turadi. Tobe aloqada so'zning ma'nosini aniqlaydi, konkretlashtiradi, to'ldiradi, izohlaydi, unga qo'shimcha ma'no beradi. Masalan: Quvaning anori (hokim komponent – anor), kitob o'qimoq (hokim so'z – o'qimoq), qizil olma (hokim so'z - olma), yaxshi gapirmoq (hokim so'z - gapirmoq) so'z birikmalarida hokim komponentlarining ma'nolari o'rniga xoslik, ob'yektli, attributiv va relyativ belgilash jihatdan aniqlangan, konkretlashtirilgan, to'ldirilgan.

Hokim tobelikni belgilashda komponentlarning faqat ichki ma'no tomoni asos qilib olinmaydi. Aks holda Navoiy g'azali (g'azal Navoiyniki), kolxozchining qizi (qiz kolxozchiga qarashli), daraxtning bargi (barg daraxtniki) kabi birikmalarda aniqlovchi komponent hokim, aniqlanuvchi komponent tobe hisoblangan bo'lar edi. Holbuki, grammatika til faktlarini o'rganayotganda, uning formasini, grammatik ma'nosini hisobga oladi. SHuning uchun ham yuqoridagi birikmalarda mantiqan

hokim bo'lak aniqlovchi komponentlar hisoblansa-da, grammatik jihatdan hokim bo'lak aniqlanuvchi komponentlardir.

So'roq hokim bo'lakdan tobe bo'lakka beriladi:

Katta maydon – qanday maydon? Qorni kuramoq – nimani kuramoq? Odobli bola – qanday bola?

Tobe komponentlarning ergashtiruvchi vositalar (kelishik qo'shimchalari, ko'makchilar) bilan keliShi ham hokim so'zning talabi bilan bo'ladi: Baxtga erishmoq, ozodlik uchun kurashmoq, sizni ko'rmoq, telefon orqali gaplashmoq kabi. Komponentlar ichki ma'no yaqinligi tufayli munosabatga kirishganda, hokim-tobelikni ko'rsatuvchi formal belgilar bo'lmaydi. Bu vaqtda so'z birikmasining hokim va tobe komponentini Shu birikmaning umumiy semantikasidan bilib oliSh mumkin. Masalan: qiziqarli kitob narsaga oid (tobe hokim), tez yurmoq-belgi harakatga oid (tobe-hokim). Hokim tobelikni aniqlashda so'z tartibi ham katta rol o'ynaydi. O'zbek tilida hokim komponent ko'pincha tobe komponentdan so'ng joylaShadi: Alisherning asari, chiroyli shahar, Vatanni sevmok, yaxShi o'qimoq.

Ba'zan poetik nutqda ma'lum bir stilistik maqsad bilan komponentlar o'rnini almaShtirib qo'llash hollari uchrab turadi: Vatanim mening, kutarman oshiqu zorimni (hokim-tobe) kabi. Shunday hollar ham bo'ladiki, so'z tartibining o'zgarishi bilan so'z birikmasi gapga aylanadi: beg'ubor osmon – (so'z birikmasi), osmon beg'ubor – (gap), toza havo – (so'z birikmasi), havo toza – (gap). Shuni ham aytish kerakki, gapdagi ayni bir so'z boshqa bir so'z uchun hokim, yana boShqasi uchun tobe bo'lib ham kelishi mumkin: «Shoir xalq baxtini kuylaydi» gapida «baxtini» so'zi «xalq baxtini» birikmasida hokim, «baxtini kuylaydi» birikmasida esa tobe komponent funksiyasini bajaradi.

Tobe aloqa uch xil sintaktik aloqa usulini o'zida mujassamlaShtiradi:

1. MoslaShuv. Bunday bog'lanishda, asosan, ot bilan ot yoki olmoSh bilan ot munosabatga kiriShadi. Qaratqich bilan qaralmiSh moslaShuv yo'li bilan birikkan birikmani hosil qiladi. Ular shaxs va sonda bir-biri bilan muvofiqlashadi: Mening daftarim, Karimning kitobi, bizning maqsadimiz kabi. Bu tipdagi bog'lanish usuli naShr qilingan qo'llanmalarda munosabatdorlashish (koordinatsiya) nomi bilan ham atalmoqda. Moslashuv aloqasi ega va kesim o'rtasida ham yuzaga chiqib, uning yordamida gap hosil qiliShi mumkin: Biz tinchlik istaymiz. Bu gapda ega vazifasidagi «Biz» so'zi kesim funksiyasida keluvchi «istaymiz» so'zi bilan Shaxs va sonda moslashgan.

2. Boshqaruv. Bu aloqada hokim bo'lak tobe bo'lakning ma'lum formada kelishini talab qiladi. Bunday bog'lanish ham semantik, ham grammatik jihatdan yuzaga chiqadi. Boshqaruv aloqasida tobe komponent biror kelishik affiksini olgan holda yoki ko'makchi bilan birga keladi. Shunga ko'ra boshqaruv aloqasini quyidagicha klassifikatsiya qiliSh mumkin:

a) kelishikli boshqaruv;

ISH ustasidan qo'rqadi. (maqol).

b) ko'makchili boshqaruv:

Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi. (maqol).

3. Bitishuv. Bunday bog'lanishda ikki mustaqil so'z o'zaro hech qanday formal belgilariz munosabatga kirishadi. Bunda hokim o'z formasini o'zgartirsa ham, tobe so'z o'zgartirmaydi. Bitishuv aloqasida komponentlarning hokim yoki tobeligi ma'nosi, tartibi hamda intonatsiya yordamida aniqlanadi: uchqur ot, tez yugurmoq, o'qigan bola.

II. GAPDA SO'ZLARNING GRAMMATIK-SEMANTIK ALOQAGA KIRISHUVCHI VOSITALAR.

So'zlarning o'zaro sintaktik munosabatlari har bir tilda turli vositalar yordamida ifoda etiladi. O'zbek tilida so'zlarni o'zaro sintaktik aloqaga kirishuvchi vositalar quyidagilar:

1. Formal-grammatik qo'shimchalar. Bularga so'z o'zgartiruvchi affikslar-egalik, kelishik, shaxs-son qo'shimchalar kiradi.

Har bir grammatik forma ma'lum bir ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi. Egalik affikslari qarashlilik ma'nosini bildiradi: sening kitobing, institut binosi.

Kelishik qo'shimchalari ot turkumidagi hamda otlaShgan so'zlarning boshqa so'zlar bilan (ko'pincha fe'llar bilan)munosabatini ifodalaydi va harakat bilan ob'yekt yoki harakat bilan hol o'rtasidagi aloqani aks ettiradi. Moskvadan kelmoq, paxtani termoq, shaharga kelmoq.

2. Yordamchi so'zlar. Ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklamalar so'zlarning sintaktik munosabatga kirishuvida alohida rol o'ynaydi. Ko'makchilar gapda otning yoki otlaShgan so'zlarning boshqa bir so'zga, ko'pincha, fe'lga bo'lgan tobeligini ifoda etadi: Chidam bilan o'qimoq, baxt to'g'risida suhbatlashmoq, Vatan uchun xizmat qilmoq.

Ko'makchilar o'zi bilan bog'langan so'z bilan birgalikda so'z birikmasining bir komponenti hisoblanadi hamda gapda bir gap bo'lagi funktsiyasini bajaradi.

Bog'lovchilar so'z, so'z birikmasi, gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiladi:

Zaynab va Omon. Gulning chiroyi va bulbulning navosi sho'irni maftun etdi.

Novdalarni bezab g'unchalar,
Tongda aytdi xayot otini
Va shabboda qurg'ur ilk sahar
Olib ketdi gulning totini. (H. Olimjon)

Yuklamalar grammatik vosita sifatida mustaqil so'z va gaplarni o'zaro sintaktik munosabatni ifodalash uchun xizmat qiladi:

Erur ilmu adab, fazlu hunar maktabdan

Ko'zlar borki boqqan dam

Ko'ngul huzur topadi

Ko'zlar borki, boqqan dam

Dilga bulut yopadi. (G. Nurillayev)

3. Bog'lamalar. «Men injener bo'laman.»

4. So'z tartibi so'zlarning sintaktik munosabatini ifodalashda alohida o'rin tutadi. So'zlar morfologik qo'shimchalar oganda so'z tartibining o'zgarishi ularning sintaktik funksiyasiga ta'sir etmaydi. Gap bo'laklarining o'rni o'zgarsa ham, so'zlarning gapdagi vazifasi o'zgarmaydi:

Xayolimni gulga o'rayman

Gulga xayolimni o'rayman.

O'rayman xayolimni gulga.

Gulga o'rayman xayolimni. (H.Olimjon)

Gapda so'zlar mahsus morfologik qo'shimchalar olmaganda so'z tartibining o'zgarishi sintaktik holatga ta'sir qiladi. Bu vaqtda so'zlarning gapdagi funksiyasi ularning tartibiga bog'liq bo'lib qoladi. So'z tartibining o'zgarishi bilan ularning funksiyasi ham o'zgaradi.

Masalan: Katta bino – aniqlovchi va aniqlanmish:

Bino kata. – ega va kesim.

5. Pauza sintaktik vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Gapda so'zlar orasidagi pauzalarining intonatsiyasini o'zgarishi bilan mazmun ham sintaktik holat ham o'zgarishi mumkin.

Masalan: Semiz portfelli kishi keldi-gapida «semiz» so'zidan keyin pauza qilinsa, ikki sodda so'z birikmasi hosil bo'ladi: semiz kishi, portfelli kishi kabi. Agar bu so'zdan keyin pauza qilinmasa, murakkab so'z birikmasi-semiz portfelli kishi yuzaga keladi. Bu murakkab so'z birikmasining tobe komponentining o'zi bitta so'z birikmasidan iboratdir-«semiz portfelli»

Uchta bolali ayol (uchta bolasi bor bir ayol yoki bolasi bor uchta ayol). Gapda so'zlarning sintaktik munosabatlari yuzaga chiqaruvchi yuqoridagi vositalarning hammasi o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lib, ular doimo bir-birini to'ldirib turadi. Lekin nutqning ma'lum bir formalarida ularning ayrimlari aktiv, ba'zilari passiv rol o'ynashi mumkin.

Sintaktik aloqaga kirgan so'zlar o'rtasida quyidagi mantiqiy-mazmuniy munosabatlar ro'yobga chiqadi:

1. Attributiv munosabat.

Lotincha so'z bo'lib belgi, aniqlovchi ma'nolarini anglatadi. Shuning uchun ham bunday munosabatni yuzaga chiqaruvchi so'zlar birikmasini atributiv birikma yoki aniqlovchi birikma deb atash ham mumkin. Bunda tobe komponent aniqlovchi funksiyasini o'taydi:

xalqimiz boyligi, yangi zamon, aytilgan so'z, o'nta daftar, o'sha yigit kabi.

2. Ob'yektiv munosabatlar.

Lotincha so'zdan olingan bo'lib, predmet ma'nosini bildiradi. Bunday munosabat predmet bilan harakat yoki belgi orasida yuzaga chiqadi. SHuning uchun

ham bunday munosabatni ifodalovchi soʻz birikmalari obʻektli birikmalar deb ataladi. Bunday birikmada tobe soʻz toʻldiruvchi funktsiyani bajaradi:

somonga yiqilmoq, qildan indichka, qordan oppoq, samolyotdan tez.

Uyat oʻlimdan qattiq.

Tinchlik uchun kurashmoq. (maqol)

3. Relyativ munosabat.

Relyativ soʻzi lotincha soʻzdan olingan boʻlib, holat, munosabat maʼnosini ifodalaydi. Bunday munosabatni bildiruvchi soʻz birikmalari relyativ birikma deb yurilitiladi. Bunday birikmalarda tobe komponent gapda hol funktsiyasida keladi:

sekin gapirmoq, ravon oʻylamoq, Moskvadan kelmoq, koʻp bilmoq.

4. Oppozitiv munosabatlar.

Bunday munosabat izohlovchi va izohlanmish oʻrtasida yuzaga keladi. Izohlovchi aniqlovchining bir turi boʻlganligi uchun ham bu tipdagi birikmalar baʼzi adabiyotlarda attributiv munosabatlar doirasida oʻrganiladi:

Kosmanavt YU.A. Gagarin, serjant Umurov, direktor Gʻaniyev, brigadir Karim kabi.

«Predikativ»-soʻzi lotincha predikativus soʻzidan olingan boʻlib, habar, kesim demakdir. Predikativ qoʻshilma ega va kesim munosabatlarni kuzatadi, soʻz birikmasi emas, gap hosil qiladi. SHuning uchun predikativ birikma terminini gapga nisbatan qoʻllash mumkin. Demak, predikativ qoʻshilma gapga teng boʻladi.

Masalan: Karim kitobni kutubxonaga qaytardi - gapda bitta peridikativ qoʻshilma (Karim qaytardi), ikkita soʻz birikmasi (kitobni qaytardi, kutubxonaga qaytardi) bor.

1-MAVZU BOʻYICHA NAZORAT SAVOLLARI:

1. «Sintaksis» atamasining maʼnosini izohlab bering.
2. Sintaksis kursining vazifalari nimalardan iborat?
3. Sintaksisning boshqa til boʻlimlari bilan aloqasi.
4. Sintaktik birliklar qaysilar?
5. Sintaktik munosabat deganda nimani tushunasiz?
6. «Sintaktik konstruktsiya» atamasini izohlang.
7. Sintaktik qurilish va ularning koʻrinishlari.
8. Sintaktik aloqa haqida gapiring.
9. Sintaktik vositalarga nimalar kiradi?
10. Sintaktik stilistika nimani oʻrganadi?
11. Gapda soʻzlar qanday usullar bilan bogʻlanadi?
12. Teng aloqa deb nimaga aytiladi?
13. Tobe aloqa qanday yuzaga chiqadi?
14. Soʻzlar oʻzaro qanday vositalar yordamida bogʻlanadi?
15. Soʻzlar oʻrtasidagi mantiqiy munosabat turlarini sanab bering?
16. Boshqaruv aloqasi qanday reallashadi?

17. Moslashuv aloqasining xususiyalari nimada?
18. Boshqaruv va moslashuv belgisiz holda qo'llanishi mumkinmi?
19. Bitishuv aloqasi haqida tushuncha bering.

TAYANCH ATAMALAR:

1. Sintaktik sath.
2. Sintaktik birlik.
3. So'z birikmasi sintaksisi.
4. Gap sintaksisi.
5. Matn sintaksisi.
6. Sintaktik munosabat.
7. Sintaktik aloqa
8. Grammatik aloqa.
9. Teng bog'lanish.
10. Tobe bog'lanish.
11. Boshqaruv aloqasi.
12. Moslashuv aloqasi.
13. Bitishuv aloqasi.
14. Atributiv, ob'yektiv, relyativ, oppozitiv, predikativ munosabatlar.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. G'ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1966. 1987.
2. O'zbek tilining grammatikasi. Toshkent. 1976.
3. Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1979.
4. O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Samarqand. 2001.
5. Qurbonova M. va boshqalar. O'zbek tilining struktural sintaksisi. Toshkent. 2004.
6. Nurmonov A. va boshqalar. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T. 1992.

2-MAVZU

SO'Z BIRIKMASI VA ULARNING TASNIFI

REJA

1. So'z birikmalarining nutq birligi ekanligi haqida.
2. So'z birikmasining so'z, qo'shma so'z, turg'un ibora (birikmalar) hamda gapdan farqi

So'z birikmasining tiplari:

1. O'tli so'z birikmalari
2. Fe'lli so'z birikmalari.
3. RaviShli so'z birikmalari.
4. Sifatli so'z birikmalari.
5. Modal so'z birikmalari.

I. Tobe komponentlarning sintaktik funktsiyaga ko'ra so'z birikmasining turlari

II. So'z birikmasining strukturasi ko'ra turlari.

So'z birimlari haqidagi bilim sintaktik ta'limning tarkibiy qismlaridan biridir. So'z birikmasi so'zlarining ma'lum bir mantiqiy va grammatik qoidalar asosida birikishidan hosil bo'ladigan erkin sintaktik butunlik hisoblanadi. Biror so'z turkumiga oid birdan ortiq so'zlarning sistemantik va grammatik jihatdan o'zaro birikuvchi so'z birikmalarini yuzaga keltiradi: tong shabodasi, chiroyli shahar, astoydil o'qish kabi.

So'z birikmasida ayrim tushunchalarni ifoda qiluvchi so'zlar o'zaro sintaktik munosabatga kirishi, murakkab tushunchani anglatadi.

Demak, so'zlarning sintaktik munosabatiga kirishuvi uchun ichki ma'no mosligi hamda tashqi grammatik moslik va ularning uyg'unligi talab qilinadi: qorning sovuqligi, vatanni sevmok, piyoda yurmoq kabi.

So'z birikmasining ma'nosi uning tashkil etgan komponentlar ma'nosidan kelib chiqadi: katta bino, bizning vazifamiz, yaxshi odam.

So'z birikmasi tuzish uchun so'zlar zarur bo'lsa, gap hosil qilish uchun so'z birikmalari shunchalik zarurdir. So'z birikmalari strukturasi faqat so'zlar miqdori bilangina belgilab bo'lmaydi, albatta. So'z birikmasida so'zlar miqdoridan tashqari komponentlar o'rtasida sintaktik aloqa bo'lishi shart, shuning uchun ham yoza boshlamoq, o'ttiz besh kabilar so'z birikmasi hisoblanmay, qo'shma so'zlar bobida o'rganiladi. Chunki ular o'rtasida sintaktik aloqalar yo'q bo'lib, bitta leksik ma'no tushunchani anglatadilar. So'z birikmasi ikki komponent (qism)dan tashkil topadi: hokim komponent va tobe komponent. So'z birikmasi tarkibida ma'nosi ravshanlashgan qism (so'z) hokim komponent, uning ma'nosini aniqlab, to'ldirib kelgan qism (so'z) tobe komponent hisoblanadi. So'roq hamma vaqt hokim komponentidan tobe komponentga berilishi shart.

Tobe komponenti hokim so'zidan berilgan so'roqqa javob bo'ladi: rangli televizor (qanday televizor? - rangli)

Maktab darsliklarida so'z birikmasining hokim komponenti bosh so'z, tobe komponenti esa ergash so'z terminlari bilan ham izohlanadi.

(O'zbek tili darsligi, 7-8 «Toshkent» 1981 yil, 13 beti)

Sintaktik funktsiyasi va sintaktik aloqalarining darajasiga ko'ra so'z birikmalari, erkin va sintaktik funktsiyasi jihatidan ajralmas bo'ladi. Erkin so'z birikmasi tarkibiga kirishish hamda ma'lum bir gap bo'lgan vazifasini bajarish mumkin: o'tmas pichoq qo'l kesar, chin do'st yurakdan gapiradi. Bu sintaktik konstruksiyalarida «o'tmas pichoq qo'l kesar», «Chin do'st yurakdan gapiradi» birikmalar tarkibidagi har bir so'z gapning alohida mustaqil bo'laklari vazifasida kela oladi. Biroq ayrim gaplarda so'zlar birikmasi ajralmas bo'lak funktsiyasida ham kelish mumkin. Sintaktik funktsiya jihatida ajralmas so'z birikmasi bir tomonlama qaraganda frazeologik birikmalarga o'xshab ketadi. Frazeologik birikmalar ham gapda bir bo'lak funktsiyasini bajaradi. Ammo bu hollarda frazeologik birikma bilan ajralmas gap bo'lagi funktsiyasida keluvchi so'z

birikmalarini bir hodisa deb qarash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki frazeologik birikmalar leksik holda, ya'ni u til birligidir – u tilda tayyor holda mavjud, so'z birikmasi esa sintaktik hodisa bo'lib, u nutq birligidir: Otabek uyaluv aralash Qutidorga qaradi (Qodiriy). U besh yil o'qidi. Konstruksiyalarda «uyaluv aralash, «besh yil» so'z birikmalari ajralmas holda bir bo'lak funksiyasini (ravish holi va payt holi) bajaradi va shu o'rinda boshqa bir so'z birikmasining bir komponenti bo'lib qolishi mumkin. «Uyaluv aralash qaradi» yoki «besh yil o'qidi» kabi. Bunday paytlarda bir butun so'z birikmasi tobe komponent hisoblanadi. Demak, so'z birikmasi sintaktik so'z birikmasi jihatidan gap bo'lagiga teng bo'lishi yoki teng kelmasligi mumkin.

So'z birikmasi, qo'shma so'z, turg'un birikmalar hamda gapdan bir qator belgilari bilan farq qiladi. .

So'z leksik hodisa bo'lib, u til birligi hisoblanadi, so'z birikmasi esa sintaktik hodisa bo'lib, nutq birliklaridan biriga kiradi.

So'z predmet, belgi ish-harakatining o'zigina ifodalash uchun xizmat qilsa, so'z birikmasi ana shu predmet, belgi-harakatining boshqalardan ajratib ko'rsatadi. Unga qo'shimcha ma'no beradi.

Qiyoslaymiz: dala, keng – keng dala. kulmoq, gapirmoq – kulib gapirmoq.

So'z abstrakt ma'noli bo'lib, u birgina yoki gap tarkibiga kirgandagina konkretlashadi.

So'z birikmasi qo'shma so'zlardan ham keskin farq qiladi.

Qo'shma so'zlarning komponentlari o'rtasida ham grammatik munosabati yo'q (tarixan bo'lgan bo'lishi mumkin.) Lekin hozir bu aloqa yo'qolgan. Qo'shma so'z komponentlari o'z leksik semantik mustaqilliklarini yo'qotib, bir bosh urg'u bilan aytiladi. Leksik jihatidan bir so'z hisoblanadi va gapda bir sintaktik funksiyani bajaradi.

So'z birikmasining komponentlari mustaqil leksemaga ega, ular o'rtasida sintaktik munosabat mavjud bo'lib, har bir komponent boshqa-boshqa gap bo'lagi funksiyasini bajaradi.

Qiyoslaymiz 1. Men kecha Kattaqo'rg'ondan keldim.

2. Katta qo'rg'ondan bolalarning ovozi eshitilib turardi.

Birinchi gapda «Kattaqo'rg'on» – qo'shimcha so'z (ot) bo'lib, bir bo'sh urg'u bilan aytiladi va gapda bir funktsiya o'rin holi vazifasini bajaradi. Ikkinchi gapda esa «Katta qo'rg'on» - ikki urg'u bilan aytiladi. Ular o'rtasidagi grammatik aloqa mavjud, gapda ikki bo'lak vazifasida aniqlovchi va hol funktsiyasida kelgan.

Frazeologik birikmalar butunligicha yaxlit holda qo'llanib, til birligi sanalsa, so'z birikmasi nutq protsessidagina shakllandi. So'z birikmasi tarkibidagi so'zlar o'z leksik ma'nosini saqlaydi. Turg'un birikma tarkibiga kiruvchi so'zlar esa butunicha o'z ma'nosidan ko'chgan yoki komponentlarning biri o'z ma'nosini o'zgartirgan bo'ladi: Hujjatga qo'l qo'ydi. – turg'un birikma.

Hujjatga qo'lini qo'ydi. – so'z birikmasi.

1. Tarvuzi qo'ltig'idan tushdi – ko'chma ma'noda turg'un birikma.

2. Kitobi qo'ltig'idan tushdi. – gapida esa qo'ltig'idan tushdi so'z birikmasi

So'z birikmasi hosil qilish uchun hamisha ikkita mustaqil ma'noli so'z (yordamchi so'zlar o'zi qo'llangan mustaqil so'z bilan birga so'z birikmasining bitta komponenti hisoblanadi) bo'lishi, shu so'zlar semantik-grammatik jihatdan erkin munosabatga kirishi olishi; hosil bo'lgan qo'shilma ochiq konstruktsiyani tashkil etishi, nominativ funktsiya ifodalashi lozim. So'z birikmasining nominativ xarakterdagi ochiq konstruktsiyasidan iborat bo'lishi uni gapdan farqlashda ahamiyatlidir.

Gap ham mustaqil so'zlarning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topadi. Lekin gap predikativ xarakterdagi qo'shilmadan iborat bo'lib, kommunikativ funktsiyasini bajaradi, boshqacha qilib aytganda, uning mazmunidan biron bir predmet, voqea-hodisa haqidagi xabar anglashiladi.

Demak, so'z birikmasining gapida so'z birikmasi sintaktikasidan, ulardagi ichki munosabatlarni bir-biridan farqlashga to'g'ri keladi. So'z birikmasi gap ichida o'rganilayotgan paytda ham gap sintaktikasi nazarda tutiladi. Chunki so'z birikmasi gap sintaktikasi talablari bilan emas, so'z birikmasi sintaktikasi talablari bilan tuziladi.

So'zlar so'z birikmasidan tashqarida o'rganilgani kabi so'z birikmasi ham gapdan tashqarida alohida o'rganilishi lozim. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, so'z –gap, nominativ, vokativ, infinitiv kabi gap turlari so'z birikmalariga ajratilmaydi.

Gapning bir so'zdan iborat bo'lishi mumkinligi ham uning so'z birikmasidan farq qilishini ta'minlovchi bir belgidir.

II. SO'Z BIRIKMASINING TIPLARI:

So'z birikmalari klasifikatsiya qilinganda, hokim komponentining morfologik tabiati, tobe komponentining esa sintaktik funktsiyasi e'tiborga olinadi.

So'z birikmalari hokim komponentining morfologik tabiatiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1. O'tli so'z birikmalari. Bunday so'z biror birikmalarning hokim komponenti vazifasida quyidagi so'z turkumiga oid so'zlar kelish mumkin:

- a) ot: institut binosi, a'lochi student
- b) olmosh: bolalarning har biri
- v) sifat: mehnatda ilg'or
- g) sifatdosh: musobaqada g'olib chiqqanlar
- d) son: qizlarning ikkitasi

O'tli so'z birikmalari tarkibidagi hokim va tobe so'zlarining material o'rniga ko'ra quyidagicha gruppalanadi:

- a) ot bilan ot: daraxtning bargi: oltin soat:

- b) sifat bilan ot: Sho'x bola, Shirin olma.
- v) sifatdoSh bilan ot: haydalgan er, terilgan paxta., oqarsuv
- g) son bilan ot: besh baho, olti million tonna paxta.
- d) olmoSh bilan ot: Shu kitob, o'sha shahar.
- e) raviSh bilan ot: ko'p odam, oz gap.
- i) mimema bilan ot: g'uv-g'uv pashsha, shildir-shildir suv, piq-piq yig'i.
- j) sifatdosh bilan olmosh: beradigan hech narsasi.
- z) ot bilan sifat: o'qiShda ilg'or, ishda ham dongdor.
- k) ot bilan sifatdoSh: mehnatda o'rnak ko'rsatganlar.
- l) ot bilan sifat : mehnatda fidokor...

2. Fe'li so'z birikmalar.

Bunday so'z birikmalar material jihatidan quyidagicha tuziladi:

- a) ot bilan fe'l: xat yozmoq, Karim bilan kelmoq.
- b) ravish bilan fe'l: tez yurmoq, ko'p o'qimoq.
- v) son bilan fe'l: beshta olmoq, ikkiga ko'paytirmoq.
- g) olmosh bilan fe'l: seni kutmoq, undan so'ramoq.
- d) harakat nomi bilan fe'l: o'qishga bormoq.
- e) ravishdosh bilan fe'l : kulib gapirmoq, ko'rgani kelmoq.
- j) ot bilan ravishdosh: daryo kechgali
- z) mimema-fe'l: taqa-taq to'xtamoq, shov-shuvni bosmoq.

3. Ravishli so'z birikmalari.

Bunday so'z birikmalarida hokim bo'lak vazifasida raviSh turkumidagi so'zlar keladi:

O'tloqda bedana ko'p, dangasada bahona ko'p. (Maqol)

4. Modal so'zli so'z birikmasi.

Bu tipdagi birikmalarni hokim komponenti o'rnida modal so'zlar keladi:

O'zingda yo'q olamda yo'q.

Til faktlari shuni ko'rsatadiki, ravish va sifat turkumiga kiruvchi so'zlarning boshqaruvchilik xususiyati ot va fe'l boshqaruvchiligiga nisbatan passiv bo'lib, nutqda kamroq qo'llanadi.

III. BIRIKMALAR TOBE KOMPONENTINING SINTAKTIK TABIATIGA KO'RA QUYIDAGICHA GRUPPALANADI:

1. To'ldiruvchili so'z birikmalari:

Oyni etak bilan yopib bo'lmas.

Aql-aqldan quvvat oladi. (maqol)

2. Aniqlovchili soʻz birikmalari:

Toza qalbdagi dogʻ boʻlmas. Ahmoqning katta kichigi boʻlmaydi. (maqol)

3. Izohlovchili soʻz birikmasi:

Direktor Saidvaliyev praktikant – talabalar bilan suhbat oʻtkazadi.

Yaqinda shoir Hamza xotirasiga bagʻishlangan adabiy kecha oʻtkazildi.

4. Holli soʻz birikmalari:

Oz soʻzla, koʻp tingla (maqol).

IV. SOʻZ BIRIKMALARINING STRUKTURASIGA KOʻRA TURLARI.

Soʻz birikmasi tarkibi jihatidan oddiy (sodda) va murakkab boʻladi: oddiy soʻz birikmasi faqat ikki mustaqil soʻzdan tashkil topadi:

oltin soat, tez gapirmoq, institut binosi, shoir Muqimiy, oʻSha qiz

Murakkab soʻz birikmasida soʻzlarning birortasi yoki har ikkilasi ham kengayadi: Shirin soʻzli yigit, oq koʻylakli qiz, bir yoz ellik soʻmlik mato, ikki kilogrammli toʻsh, Oʻzbekiston qishloq xoʻjaligi ilgʻorlarining yigʻilishi kabilar.

Predikativ xarakterdagi konstruksiyalar ham murakkab soʻz birikmalarining bir komponenti funksiyasini bajaradi. Raʼno oʻqigan kitob hammamizni qiziqtiradi. Sochi uzun, koʻzlari qop-qora Hafizani koʻrganda Umid oʻzini yoʻqotib qoʻyar edi.

Soʻz birikmasini tahlil qilish tartibi:

1. Sintaktik aloqa turiga koʻra teng yoki tobe aloqa.
2. Tobe aloqa turiga koʻra moslashuvli, bitishuvli, boʻshqaruvli.
3. Sintaktik aloqaning yuzaga chiqaruvchi vositalarga koʻra: soʻz formasi (qoʻshimchalar, koʻmakchilar), soʻz tartibi, intonatsiya .
4. Hokim soʻzning morfologik tabiatiga koʻra.
5. Tobe soʻzning sintaktik tuzilishiga koʻra.
6. Semantik munosabat turi.
7. Tuzilishiga koʻra turi.

«SOʻZ BIRIKMASI» MAVZUSI BOʻYICHA NAZORAT SAVOLLARI.

1. Soʻz birikmasi deb nimaga aytiladi?
2. Soʻz birikmasi, qoʻshma soʻz va gapdan qanday farq qiladi?
3. Soʻz birikmasi va ibora oʻrtasida qanday farq bor?
4. Soʻz birikmasining turlarini sanab bering.
5. Boʻsh va ergash soʻzlarga taʼrif bering.
6. Bitishuvli bogʻlanishdagi bosh va ergash soʻzlarning oʻrni almashganda qanday hodisa roʻy beradi?
7. Oʻtli birikmadan feʼlli birikmaning farqi nima?
8. Aniqlovchili birikmaning xususiyatlari.
9. Toʻldiruvchili birikmani tushuntiring.
10. Holli birikmaga misollar keltiring.

TANYACH ATAMALAR

1. So'z birikmasi.
2. BoSh so'z.
3. Ergash so'z.
4. O'tli birikma.
5. Fe'lli birikma.
6. Aniqlovchili birikma.
7. To'ldiruvchili birikma.
8. Holli birikma.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Abdullaev A. So'z birikmalari sintaksisining ayrim masalalari. «O'zbek tili va adabiyoti» jurn. 1969. 1-son.
2. Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.1979.
3. Komilova X. O'zbek tilida so'z birikmasi masalasiga oid.»O'zbek tili va adabiyoti» jurn. 1959 4-son.
4. O'rinboev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Samarqand. 2001.
5. Qurbonova M. va boShqalar. O'zbek tilining struktural sintaksisi. ToShkent.2004.

3-MAVZU:

GAPNING LOGIK-GRAMMATIK BELGILARI VA TASNIFI

REJA:

1. Gap haqida umumiy tushuncha.
2. Gapning asosiy logik-grammatik belgilari:
 - a) fikrning nisbiy tugalligi;
 - b) intonatsion tugallik;
 - v) predikativlik .
3. Gapning tasnifi:
 - a) gapning ifoda maqsadiga ko'ra turi;
 - b) emotsionallikka ko'ra gap turi;
 - v) voqelik munosabatiga ko'ra turi;
 - g) tuzilishiga ko'ra turlari;
 - d) struktura asosiga ko'ra;
 - e) zarur bo'laklarning qo'llanishiga ko'ra;
 - j) bo'laklarga ajralish-ajralmasligiga ko'ra.
4. Gapning aktual bo'linishi:

- a) formal bo'linish;
- b) ichki bo'linish.
- 5. Bir sostavli gaplar tasnifi.
- 6. Gapni tahlil etish tartibi.

Aloqa-aralashuv vositalarning eng kichik birligi gapdir. Gap nutq birligi sanaladi. Tilshunoslikda gapga nisbatan juda ko'p ta'riflar berilgan. Gapni gap qilib turuvchi uchta asosiy belgi mavjud:

1. Har qanday gap ma'lum bir ob'yektiv borliqni ifodalashi nuqtai nazardan nisbiy tugallikka ega.

M: Bahor fasli boshlandi.

2. Har qanday gap intonatsion tugallikka ega bo'ladi. Asosiy belgalardan biri intonatsion tugallikdir. Masalan:

Paxta mavsumi tugadi, talabalar o'qishga qaytdilar.

3. Gapning yana bir asosiy belgisi predikativlikdir. Modallik gap orqali ifodalanayotgan xabarga yoki voqelikka bo'lgan so'zlovchining turli munosabatidir. Bu munosabat asosan gapning kesimi orqali ifoda etiladi. Uni ifoda etuvchi vositalarga fe'lning mayllarini ko'rsatuvchi qo'shimchalar, modal so'zlar hamda intonatsiya kiradi. Misol: dunyoning tinchligi buzilmasin hech. Olasiz (olib bo'psiz). Hayriyat, imtihondan o'tib oldim.

O'zbek tilida gaplar quyidagi belgilarga ko'ra taslif qilinadi.

1. Ifoda maqsadga ko'ra turlari.

Har bir gap o'zida so'zlovchining yoki yozuvchining shu gapini aytishidan maqsadini ham ifoda etadi. Shu gap orqali muallif bir fikrni aytmoqchi yoki so'ramoqchi bo'lsa yoxud o'zining xohish yoki iltimosini bayon qiladi. Shunga ko'ra gaplar uchga bo'lib o'rganiladi.

- a) darak gap.
- b) so'roq gap.
- v) buyruq gap

DARAK GAP

Ob'yektiv borliqdagi biror voqea – hodisa haqida xabar berish, uning mavjudligini qayd etish uchun qo'llangan gaplar darak gap deyiladi. Masalan: Bahor kelganiga qaramay, kunlar hali ancha sovuq.

Ba'zan darak gaplar sof xabar mazmunidan ta'shqari taxmin (bugun yomg'ir yog'sa kerak), maqsad, orzu-istak (ertaga o'rtog'imnikida qolsam) kabi ma'nolarni ifodalashi ham mumkin.

Darak gaplar darak intonatsiyasi bilan aytiladi. Odatda gap bo'laklari normal holatda joylashadi. Darak gaplarning kesimi ko'pincha aniq mayldagi fe'llardan iborat bo'ladi. Darak gaplar nutqda eng ko'p qo'llanuvchi gap turi hisoblanadi. Hatto katta-katta matnlar faqat darak gaplardan tuzilishi mumkin.

SO'ROQ GAP

Tinglovchidan yoki o'quvchidan biror ma'lumot olish uchun, narsa-hodisani so'rab olish uchun qo'llaniladigan gaplarga so'roq gap deyiladi. Masalan: Bahorgi sessiya qachon tugaydi?

So'roq gaplarda sof so'rash mazmunidan tashqari tasdiq, buyruq ma'nolarini ham ifodalashi mumkin. Shunga ko'ra so'roq gaplarning 3 ga bo'lib o'rganiladi:

a) sof so'roq gaplar. Bunday gaplar mazmunidan haqiqiy so'rash ma'nosi anglaShiladi va tinglovchidan albatta javob kutiladi. Masalan: Tashqarida yomg'ir yog'ayotganga o'xshaydi-a?

b) ritorik so'roq gaplar. Bunday gaplarda so'raSh Shakli orqali xabar beriladi. Ular javob talab qilmaydi. Javob so'roqning o'zidan anglashilib turadi. Ritorik so'roq gaplarda ularning javobi Shu gapdagi biror bo'lak yoki ha, yo'q so'zlari orqali berilishi mumkin. Masalan: Bu ishni kechiktirib bo'ladimi?

Ko'rinadiki, ritorik so'roq gaplarda oddiy xabar berishdan tashqari emotsionallik va modallik ma'nolari kuchli bo'ladi.

v) so'roq buyruq gaplar. Bunday gaplar so'raSh bilan birga buyurish, undash mazmunini ham ifodalashi mumkin.

So'roq gaplar quyidagi vositalar yordamida hosil qilinadi.

So'roq yuklamalari bilan: Siz topshiriqni bajardingizmi?

Nahot, bugun ham yomg'ir yog'sa-ya?

So'roq olmoshlari: Darsga kimlar kelmadi?

Intonatsiya : Dars boshlandi?!

BUYRUQ GAPLAR

Adresatni biror ish bajarishga undaSh, buyurish maqsadida qo'llanadigan gaplar buyruq gaplar deyiladi. Masalan: Ehtiyot bo'ling!

Ko'zingga qarab yur.

Temirni qizig'ida bos.

Buyruq gaplarda sof buyuriSh mazmunidan taShqari maslahat, iltimos, g'azab, do'q – po'pisa kabi ma'nolar ifodalaniShi ham mumkin. Masalan:

TopShiriqni o'z vaqtida bajaring. (Sof buyruq gap) Tur o'rningdan (do'q). Chiq uydin (g'azab). Misollardan ko'rinadiki, buyruq gaplarning mazmun doirasi keng bo'ladi. Ular quyidagi xususiyatlarga ega:

a) kesimi buyruq fe'li bilan ifodalanadi.

Qo'lingga qurol ol.

b) buyruq gaplarda ko'pincha undov va undalmalar ishtirok etadi.

Karimaxon, kitobingizni berib turing.

v) buyruq gaplar oxirida nuqta yoki undov belgisi qo'yiladi.

Ba'zan boshqa mayldagi fe'llar ham buyruq gapning kesimi bo'lib keliishi mumkin.

Arzimni bir tinglasalar.

Emotsionallikka ko'ra gap turlari:

Gaplar o'zida kishining ichki xis tuyg'ularini ifodalashi yoki ifodalanmasligiga qarab ikkiga bo'lib o'rganiladi.

a) emotsional gaplar

b) emotsional bo'lmagan gaplar.

Emotsional gaplar maktab darsliklarida undov gaplar deb yuritiladi. Emotsional gaplar kimning ichki xis-tuyg'ularini ifodalab ko'tarinki ruh bilan talaffuz qilinadi. Masalan: Eh, qanday go'zal manzara.

Gapning istalgan turini his-hayajon bilan aytib undov gapni aylantirishi mumkin. Shunga ko'ra darak undov, so'roq undov, buyruq undov gaplarni hosil qilish mumkin.

a) darak undov.

Xayriyat, eson-omon etib olishibdi!

b) so'roq undov.

Ikki oy dalada yurish osonmi?!

v) buyruq undov.

Buyruq undov gaplarda shodlik, quvonch, taajjub, mamnunlik, tashakkur, rag'batlantirish kabi ma'nolar ifoda etiladi. Masalan: Ilg'or talabalar rag'batlantirilsin!

Undov gaplar quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Uning tarkibida ko'pincha undov so'zlar, undalmalar, kuchaytiruvchi yuklamalar qatnashadi.

Uh, qanday dahshat!

2. Undov gaplarda gap bo'laklarining tartibi ba'zan o'zgariishi mumkin

Yashasin tinchlik!

Gapning voqelikka munosabati jihatidan turlari.

Gapning struktura asosiga (tuzilishiga) ko'ra quyidagicha gruppalash mumkin:

1. Sodda gaplar.

Bunday gaplar bir struktura asosidan, ya'ni bir ega va bir kesim markazidan taShkil topadi.

Ikkinchi darajali bo'laklar esa ana shu 2 markaz atrofida jamlanadi.

Masalan: Bog'da bulbul sayraydi.

2. Qo'shma gaplar.

Ikki struktura asosidan, ikki predikativ birlikdan tashkil topadi.

Masalan: Bog'da bulbul sayraydi, ko'nglim guldek yayraydi.

3. Murakkab qo'shma gaplar.

Tarkibida 2 dan ortiq predikativ birliklardan iborat bo'ladi. Masalan: Qizginamning bog'i bor, bog'boni yo'q; suyangani tog'i bor, tolqoni yo'q.

Eslatma: yuqoridagi gap ko'rinishlaridan tashqari yana Shunday gap tiplari mavjudki, bunday gap tiplari nutqda periodik nutq ko'rinishlari deb yuritiladi.

Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra gaplar 2 turga bo'linadi.

1. Yig'iq gaplar.

2. Yoyiq gaplar.

Yig'iq gaplar faqat bosh bo'laklardan tashkil topadi.

Masalan: O'qish boshlandi.

Yoyiq gaplar esa bosh va ikkinchi darajali bo'laklardan tashkil topadi

Masalan: El og'ziga elak tutib bo'lmaydi.

Sostaviga ko'ra gap turlari.

Bunga ko'ra ham gaplar 2 turga bo'linadi.

1. Bir sostavli gaplar

2. Ikki sostavli gaplar.

Faqat birgina sostavdan tashkil topgan gaplar bir sostavli deyiladi. Gapda faqat 2 sostav bo'ladi. Demak faqatgina ega yoki aloqador bo'lgan sostavdan yoki kesim va unga aloqador bo'lgan so'zlardan tashkil topgan gaplar bir sostavli gaplar deyiladi.

Masalan: Qishda Chimyonga boramiz.

Maktab bog'ida ishladik

Ega sostavli gapda kesim, kesim sostavli gaplarda esa ega ishtirok etmaydi.

Umuman olganda bir sostavli gaplarning quyidagi turlari mavjud.

1. Shaxsi aniq gaplar.

2. Shaxsi noaniq gaplar.

3. Shaxsi umumlashgan gaplar.

4. Shaxssiz gaplar.

5. Infinitiv gaplar.

6. Nominativ yoki atov gaplar.

7. So'z – gaplar.

BIR SOSTAVLI GAPLARNING TURLARI.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek sostaviga ko'ra (gap tarkibida bo'sh bo'laklarning iShtirokiga ko'ra) bir sostavli gaplar va iki sostavli gaplarga bo'linadi. Bir sostavli gaplarda ega yoki kesim iShtirok etmaydi.

Hozirgi o'zbek tilida bir sostavli gaplarning quyidagi turlari mavjud:

Shaxsi noma'lum gaplar. Bunday gaplarda ega konkret bo'lmaydi. Kesimning formulasidagi gapning egasi Shaxs ekanligi anglatib tursada, kesim noma'lum shaxslar tomonidan uch zamonning birida sodir bo'ladigan harajatni ifodalaydi.

Qush edim qanotimni ayirdilar.

To'rt g'oz, tuman pul, yigirmata qo'yga go'zal qiz Oyshani sotadigan bo'ldilar.

Shaxsi noma'lum gaplarda egani ifodalaShga ehtiyoj bo'lmaydi, chunki so'zlovchining e'tibori shaxsga emas ish-harakatga qaratilgan bo'ladi. Tinglovchining e'tibori faqat ish-harakatga jalb qilinadi.

Maktabni bitirgach, o'qidim, ishladim, uylandim, uy joyli bo'ldim.

Shaxsi umumlashgan gaplar.

Egasi konkret bo'lmagan, kesimi orqali ifodalangan harakat umumga qaratilgan gap shaxsi umumlashgan gap deyiladi. Shaxsi umumlashgan gaplarning kesimi odatda ikkinchi shaxsning birligi formasidagi fe'l bilan ifodalanadi.

M: Bugungi ishni ertaga qo'yma.

Hikmatli so'zlar va xalq maqollari odatda ko'proq shaxsi umumlashgan gaplar tipida bo'ladi. Bunday gaplarda konkret Shaxs ko'zda tutilmaydi, balki harakatning hamma Shaxs uchun taalluqli ekanligi ma'nosi anglatiladi.

Yer haydasang kuz hayda – kuz haydamasang yuz hayda. Yaxshi so'zga quloq sol, yomon so'zga o'roq sol.

Shaxssiz gaplar.

Egasi bo'lmagan gaplar Shaxssiz gaplar deyiladi. Shaxssiz gaplar shaxsi ko'rsatilmaydigan ish protseslarini ifodalaydi.

Shaxssiz gaplar eganing ifodalanmasligi bilan emas, balki umumiy uning bo'lmasiga bilan harakatlanadi.

Hurlik uchun yig'lash emas, kurashish kerak.

Shaxssiz gaplarning kesimlari quyidagicha ifoda qilinadi.

1. To'g'ri kelmak fe'lining turli formalari bilan: endi ko'p qiyinchiliklarni engishga to'g'ri keladi.

2. Vaqt anglatuvchi so'zlar, son yoki ko'p ancha singari raviShlarning bo'lmoq, to'lmoq, o'tmoq, oshmoq, fe'llari bilan birikib kelishi bilan.

Bu voqeaga ancha bo'ldi.

Yigit ekib tamomlaganiga besh kun bo'ldi.

3. Harakat nomi va kerak, lozim, zarur yoki mumkin so'zlaridan tashkil topgan birikmalar bilan:

Bu ishga ertaroq kirishish kerak dedi rais.

Kutubxonadan kerakli kitoblarni olish lozim.

4. –b, -ib qo'shimchalari ravishdosh va turli formadagi bo'lmoq fe'lining birikib kelishi bilan.

Bu xatni mazmunini bironvga aytib bo'lmaydi.

Bunaqangi qishloqni Farg'ona vodiysida ham topib bo'lmaydi.

5. Fe'ning majhullik nisbati bilan. Bugin kinoga boriladi. Sizning ketishingizga ruxsat berildi.

Nominativ (atov) gaplar

Narsa va predmetlarning hozirgi zamonda mavjudligini tasdiq yo'li bilan ko'rsatadigan gap nominativ gap deyiladi. Nominativ gaplar atov gaplar deb ham yuritiladi. Nominativ gaplar narsa-predmet voqea-hodisani atabgina qolmasdan balki uning mavjudligini maxsus intonatsiya bilan tasdiqlaydi. Natijada bir yoki birdan ortiq so'zlar birikmasi ma'lum bir sharoitda mustaqil bir fikr ifodalaydi.

Bahor hammayoq yashil libosga burkangan.

Tun. Dunyoni zulmat bosgan.

Nominativ gaplar yig'iq va yoyiq bo'ladi.

Osmon to'la yulduz oy yarqirab turibdi.

Oysiz, yulduzsiz, bulutli qorong'u kecha.

Ko'z ko'zni ko'rmaydi.

Mazmun va emotsional qimmatiga ega ko'ra nominativ gaplar quyidagilarga bo'linadi.

1. Tabiat manzaralarini aks ettiruvchi tasviriy nominativ gaplar. Keng sahro, quruq cho'l, suv manbalaridan darak yo'q.

2. Payt anglatuvchi nominativ gaplar:

Shom payti. Qorong'ulik quyuuqlaShib bormoqda.

3. Hayot voqealarini bildiruvchi nominativ gaplar.

Yoqimli ohang. Quvnoq qo'shiqlar. Anorxon yo'lida to'xtab tinglaydi.

4. Ko'rsatuv xarakteridagi nominativ gaplar.

Mana gular. Mana odamlar. Odamlar uni o'rab oldilar.

Nominativ gaplardan keyini kelgan gaplar unda ifodalangan voqea hodisalarni bo'shqa voqea tasviri bilan kengaytiradi.

Qorong'u tun poyezd zarur ortirgan sostavli tezroq manzilga etkazish uchun ShoShilmoqda.

Nominativ gaplarda ifodalangan hodisalar ko'pincha emotsional xarakterda bo'ladi. U ko'pincha emotsional intonatsiya bilan talaffuz qilinadi.

Ota! Naqadar ko'ngilga yoqimli.

Infinitiv gap.

Hokim komponenti infinitiv bilan ifodalangan gaplar infinitiv gaplar deyiladi.

Oyga uchish, yulduzlarni ko'rish bu chinakam zavqli bo'lsa kerak. Infinitiv gaplarda fikr ma'lum bir ish-harakat nomi bilan ifodalanadi. Bu xil gaplar ajablanish, istak orzu, hoxiSh, g'azab, norozilik kabi ma'nolarni beradi.

Gul sayriga chiqmoq! Buni kim bilmaydi deysiz.

Yoshlikda onadan ajralish! Yetim qolish! Eh, urushning nimasini aytasiz.

Infinitiv gaplar tuzilmasiga ko'ra yig'iq va yoyiq bo'ladi.

Infinitivning (hokim so'z) o'zi bilan ifodalangan gaplar yig'iq, infinitivga tobli bo'laklar (to'ldir, hol.) bilan kengayib kelgan gap yoyiq infinitiv gaplarni tashkil qiladi.

Infinitiv gaplarda predikativlik maxsus yo'l bilan ifodalanadi. Bunda intonatsiya muhim rol o'ynaydi. Infinitiv gap intonatsiya bilan aytiladi. Infinitiv gaplar keyin ko'pincha bitta gaplar keltiradi. Bu gaplar infinitiv gaplarning mazmuni bilan bog'lanib uni konkretlashtiradi.

Shaxsi noma'lum gap.

Ega qo'llanmasa-da, uning belgilari kesim orqali konkret anglashib turadigan gap Shaxsi ma'lum gap deyiladi.

Shaxsi ma'lum gaplarda fe'l kesimlarning grammatik, ot kesimning esa bog'lama formasidan shaxs anglashilib turadi. Shuning uchun eganing shaxs ko'rsatuvchi olmosh yoki ot bilan qo'shimcha ravishda ifodalashga hojat qolmaydi.

Kesimi buyruq maylining birinchi va ikkinchi shaxs formalarida ifodalangan bir sostavli buyruq gaplar ham shaxsi ma'lum gaplar hisoblanadi.

Po'lat – Opajon, mashinada, olib borib qo'yaymi?

Surmaxon - Kerak emas, mashinangni pishirib ye.

Ko'rsatilgan gaplarning mazmuniy egalari men, sen olmoshlari hisoblanadi.

a) Bir sostavli gaplar hokim bo'lagining sintaktik tabiatiga ko'ra, egasiz va kesimsiz gaplarga bo'linishi.

b) Egasiz gaplarning, kesimi tabiatiga ko'ra, egasi topiladigan gaplar va egasi topilmaydigan gaplarga bo'linishi.

v) Egasi topiladigan gaplar. Ularning, shaxs xarakteriga ko'ra, shaxsi aniq gap, noaniq gap, shaxsi umumlashgan gaplarga bo'linishi.

1. Struktura asosi bir sostavdan , ya'ni yo ega sostavidan yo kesim sostavidan taShkil topgan gaplar bir sostavli gap deb aytiladi: Oyni etak bilan yopib bo'lmas. Ko'm-ko'k dala. Tevarakda qizg'in ish borayotir.

2. Bir sostavli gaplar, struktura asosi-bosh bo'lagining sintaktik tabiatga ko'ra, ikkiga bo'linadi: egasiz gap, kesimsiz gap.

a) Egasiz gaplarning strukturasi asosi-bosh kesimdan iborat bo'ladi: Bugungi ishni ertaga qo'yma. Mak./Bo'rini ham to'ng'iz o'q bilan otadilar. El og'ziga elak tutib bo'lmaydi./Mak./

Kesimsiz gaplarning struktura asosi-bosh bo'lagi egadan tashkil topadi: Kichkinagina maydoncha. Uning to'rt tarafi baland imoratlar bilan o'ralgan. /O/

B/ Egasiz gaplar. Bu tip gaplarning bosh bo'lagi-kesimi turli vaziyatda bo'ladi: ba'zi tiplarida kesimidan egani topish mumkin, kesimga egani aniqlab beradigan so'roqni berish mumkin, ba'zi tiplarida esa kesimdan egani topib bo'lmaydi, kesim egani aniqlab beradigan so'roqni talab qilmaydi. Qiyos qiling:

Jo'jani kuzda sanaydilar. Mehnatsiz g'alabaga erishib bo'lmaydi. /Mak./ Shunga ko'ra, egasiz gaplar ikkiga bo'linadi: Egasi topiladigan gap, egasi topilmaydigan gap.

«GAP VA UNING ASOSIY BELGILARI» MAVZUSI BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI.

1. Gap deb nimaga aytiladi?
2. Predikativlik nima?
3. Gapning asosiy logik-grammatik belgisi deganda nimalar tuShuniladi?
4. Gapning ifoda asosi nima?
5. Gaplar qanday tasnif etiladi?
6. Gapning so'z birikmasidan farqi.
7. Sodda gap xususiyatlari.
8. Gapning tugallangan ohang bilan aytiliShini tuShuntiring.
9. Gapda fikr nisbiy tugallanishi zarurmi?
10. Gapning ifoda asosiga misollar keltiring.
11. Bir bosh bo'lakli gap deb nimaga aytiladi?
12. Bir bosh bo'lakli gap turlarini sanang.
13. Ega tarkibli gap deganda nimani tushunasiz?
14. Shaxsi topilmas gaplarni tushuntiring.
15. Shaxsi noma'lum gapga misollar keltiring.
16. Shaxsi topilmas va shaxsi noma'lum gaplar qanday farqlanadi?
17. Kesim tarkibiga tushuncha bering.
18. Atov gap haqida nimalarni bilasiz?
19. Shaxsi ma'lum gaplarda shaxs qanday aniqlanadi?
20. Bir bosh bo'lakli gaplarda sinonimiya tushunchasini izohlab bering.

TAYANCH ATAMALAR.

1. Gap tushunchasi.
2. Sodda gap .
3. Predikativlik.
4. Tugallangan ohang.
5. Fikrning nisbiy tugalligi.
6. Ifoda asosi.
7. Bir sostavli gap.
8. Kesim sostavi.
9. Shaxsi ma'lum gap.
10. Shaxsi noma'lum gap.
11. Shaxsi topilmas gap.
12. Atov gap.

ASOSIY ADABIYOTLAR.

1. G'ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiyot tili sintaksis. T., 1966.1987.
2. Baskakov A.N. Predlojenie v sovremennom turetskom yazıke
3. Abdurahmonov G. Qo'Shma gaplar bilan sodda gaplarning farqlanishiga doir ba'zi mulohazalar. «O'zbek tili va adabiyoti» jur. 1958. 3-son.
4. O'rinboev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Samarqand. 2001.
5. Qurbonova M. va boShqalar. O'zbek tilining struktural sintaksisi. Toshkent.2004.
6. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent. 1996.

4- MAVZU. GAP BO'LAKLARI.

REJA:

1. Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot.
2. Gap bo'lagini belgilash printsiplari.
3. Eganing ifodalanishi.
4. Eganing qo'llanishi.
5. Eganing tuzilishiga ko'ra turlari.
6. Gap bo'lagini tahlil qilish tartibi.

Gap bo'laklari gapning uzviy qism sifatida maydonga keluvchi sintaktik kategoriyalardir. So'zlar gapda semantik grammatik jihatdan mustaqil funktsiya ifodalab muayyan so'roqqa javob bo'lib, kelgandagina gap bo'lagi sanaladi. So'zlarning biror bo'lak vazifasida kela olishi yoki kela olmasligini gapning qurilishining sintaktik qoidalari belgilaydi. Gap bo'lagi gapning boShqa bo'laklari bilan o'zaro grammatik bog'langan, uzviy bog'langan munosabatga kirishgan organik qismidir. Gap bo'laklari mustaqil so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi. Har qaysi turkumdagi so'zlar gapda ma'um bir sintaktik funktsiyada qo'llanadi. Fe'lning ko'proq kesim, sifatning aniqlovchi, ravishning hol, otning ega, to'ldiruvchi vazifasida kelishi ana shu holat bilan izohlanadi. Biroq undan so'z turkumlari bir xil hodisa ekan degan xulosa kelib chiqmaydi.

So'z va so'z birikmalarining mohiyati ularning gap tarkibida bajarganini vazifa belgilaydi

Zulfiya o'qigan kitob meni juda qiziqtirdi.

Gap bo'laklarini o'rganish leksik semantik strukturasi o'rganish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki gapning bo'laklarga ajratish ularning ifoda materiallari va ma'nolarini o'rganishni taqazo etadi. Gapning har bir bo'lagi gap orqali qilinayotgan hukmning butunligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Gap belgi belgilashda so'z yoki birikmaning quyidagi belgilari asosiy (printsip) bo'lib xizmat qiladi. Gap bo'laklarining leksik-semantik xususiyati. Bunda gap bo'lagi vazifasida kelgan so'zning anglatgan ma'nosi e'tiborga olinadi, ya'ni bunda

so'zning gap tarkibida anglatgan ma'no va talab qilayotgan so'rog'i asos bo'ladi.

1. Gap bo'laklarining semantik aloqaga kirish usullari. Har bir gap bo'lagi gapda sintaktik aloqaning u yoki bu turi yordamida boshqa bo'laklar bilan aloqaga kirishadi. Ega fe'l kesim bilan shaxs-sonda moslashadi. To'ldiruvchi o'z komponentiga (to'ldiriShiga) boShqaruv yo'li bilan bog'lanadi. Sifat aniqlovchi doim bitirish yo'li bilan aloqaga kirishadi. Gap bo'laklarining sintaktik aloqa usuli yordamida belgilashda ana shu jihatlarga e'tibor qaratiladi.

2. Gap bo'laklarini aloqaga kirituvchi vositalar. Ma'lumki, har bir gap bo'lagi ma'lum bir leksik-grammatik vosita yordamida boshqa bo'laklar bilan doimo tushum, jo'naliSh, o'rin-payt, chiqish kelishiklari formalari yoki ko'makchilar yordamida aloqaga kirishadi. Bunday vositalar boshqa bo'laklarga ham hosdir. Bunda gap bo'lagini belgilashda ana shunga e'tibor qilamiz.

3. Gap bo'laklarining bir-biriga nisbati (munosabat). Bunda biror bir bo'lakning asosan qaysi bo'laklarga bog'lanishi kesimiga oladi. Masalan, sifat ko'proq egaga to'ldiruvchiga, hol asosan fe'l kesimga bog'lanadi. Mazkur printsiplik gap bo'laklarini belgilashda bo'laklarning ana shu jihatlari e'tiborga olinadi. Bo'laklar gapda vazifa jihatdan bir hil emas. Ba'zi bo'laklar gapning umumiy mazmuniga aniqlik kiritish, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradi.

Bularning qo'llanmasligi gap mazmunini yoki tuzilishini keskin o'zgartirib yubormaydi. Ba'zi bo'laklar esa aksincha gapda ishtirok etishi albatta zarur, chunki bularsiz gapning o'zi hosil bo'lmaydi. Mana shu tomonlarga ko'ra gap bo'laklari ikki turga ajraydi. Bosh bo'lak va ikkinchi darajali bo'lak.

BoSh bo'lak gapning grammatik asosini taShkil etadi. Ular gapning sintaktik markazini ifoda etib zaruriy bo'laklar sanaladi. Bir gap orqali ifoda etayotgan hukmi boSh bo'laklar ega va kesim orqali reallashadi. Gap uchun zarur bo'lgan predikativlik tushunchasi bosh bo'laklar orqali ifoda etiladi.

Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklarga bog'lanib ularni mazmunan to'ldirib belgi va holat jihatdan aniqlab keladi ana shu xususiyatlardan kelib chiqib, ikkinchi darajali bo'laklar aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi turlarga ajraydi. Ular gapda mustaqil qo'llana olmaydi. Ular bosh bo'laklarga bog'langandagina nutqda ishtirok etadi. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning semantik grammatik munosabati shuni ko'rsatadiki, ikkinchi darajali bo'lgan tobe, bosh bo'lak hokim bo'ladi.

Ega ikki sostavli gapning bosh bo'laklaridan biridir: u hokim sostavining grammatik markazi, shu sostavlardagi bo'laklarga, shuningdek, tobe sostavidagi bosh bo'lakka-kesimga ham hokimdir. Ega absalut hokim holatidagi bo'lakdir. U gapdagi fikr, hukm o'ziga qaratilgan-predmetning nutq predmetning nomidir. Ega harakatni bajaruvchi yo qabul qiluvchi shaxsdir, yoki kesim ifodlangan holat yo belgi qarashli predmet. Ega ba'zan turni anglatadi. Umumiy qilib aytganda, gapda hukm o'ziga qaratilgan, fikr o'zi haqida borayotgan, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan bosh keliShik formasidagi hokim bo'lak-ega deyiladi. Kesim ifodalagan belgi egaga tegishi bo'ladi. Demak, ega fikr sub'ektni, nutq predmetini bildiradi. Egalar kim, nima, qayer so'roqlariga javob bo'ladi. Ba'zan ega gapda qo'llanmasligi ham mumkin. Eganing qo'llanmasligi gapning

to'liqsizligi, uning biror bo'lagining tushib qolganligini, etiShmasligini ko'rsatmaydi, aksincha, eganing qo'llanmasligi har-xil stilistik, poetik talablar natijasida sodir bo'ladi va gapning me'yoriy shakllanganligini ko'rsatadi.

Ega bosh kelishik formasidagi ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Ba'zan ega chiqish kelishigi formasini ham olishi mumkin. Masalan: Tajriba uchastkamizda turli o'simliklardan bor.

Ega ifoda materiali jihatidan quyidagi turkum so'zlar bilan ifodalanadi:

1. Bosh kelishik formasidagi turdosh yoki atoqli otlar bilan: Gulnor Yo'lchining so'zlarini diqqat bilan tingladi. O'yin kulgi yarim kechagacha davom etdi.

2. Olmosh bilan: Biz ham chiroyli, ham baquvvat bo'lishni istaymiz.

3. Otlashgan sifat bilan: Yaxshi topib so'zlar, yomon qopib so'zlar.

4. Otlashgan sifatdosh bilan: Qomatiga ishongan qaddini bukib qotadi, bilimiga ishongan murodiga etadi.

5. Otlashgan son bilan: (Tun qorong'usidan tekis sug'oriSh qiyin) Uchovimiz musobaqada g'olib chiqdik.

6. Harakat nomi bilan: Tun qorong'usida tekis sug'orish qiyin.

7. Ravish bilan: Sovg'aning oz ko'pi bo'lmaydi.

8. Undov va taqlid so'zlar bilan: Dod-voy, oh-voh, borgan sari kuchayardi.

9. Otlashgan shaxsli fe'l bilan: Shuning uchun hovlida kirdi chiqdi ko'payib qolgan edi.

10. Ibora bilan: havas bo'lsa, anqoning urug'i ham topiladi.

Otlashgan so'z bilan ifodalangan ega ko'pincha son va egalik affikslarini oladi, bular uning otlashish holatini yanada mustahkamlaydi, lekin substantivatsiya –otlashish uchun bu affikslarning bo'lishi shart emas. Masalan: Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.

Sifatdosh, harakat nomi bilan ifodalangan egalarning o'ziga xos xususiyatlari bor. Bular aslida fe'l bo'lganligidan, o'ziga maxsus to'ldiruvchi va hol olib kengayishi mumkin. Masalan: Ishlamay yegan og'rimay o'lar. Bunday kengayish gap-yoyiq bo'laklarini yuzaga keltiradi.

Ellik kishi gazetaga yozildi. Hasharga to'qson kishi qatnashdi kabi gaplardagi «son+ot» tipidagi birikmalarda o'sha ot o'zidan oldingi son, miqdor bildiruvchi so'z bilan birgalikda ega sanaladi. Yana chog'ishtirish: O'nta bola suv bo'yida o'tirishibdi.

Ega vazifasidagi ot qo'llanmay, bu vazifagni uning aniqlovchisi o'z ustiga olganda, otlashgan ega tug'ilishini ko'rib o'tdik. Ba'zan bu holatning ayrimroq ko'rinishini ham uchratamiz: «Yashirinuvchi» eganing aniqlovchisi sintaktik konstruktsiyadan iborat bo'lganda, butun bir konstruktsiya ega vazifasida qo'llanadi. Masalan: Bu gaplarni har kim tushina bermaydi, boShdan o'tgan yaxshi tushinadi. Bunda: Boshdan o'tgan-boshidan o'tgan odam.

Eganing qo'llanishiga doir ba'zi detallarni, hodisalarni ko'rib o'tamiz.

1. Ega to'dadan ajratilgan qismni bildirganda, to'daning – butunning nomi ko'pincha chiqish kelishigidagi so'z bo'ladi. Qismni ko'rsatuvchi so'z qo'llanmasi bu vaqtda butun nomi – chiqish kelishigi formasidagi so'z go'yo ega vazifasida qo'llanganidek ko'rinadi. Masalan: Bizning zavodda hamma millatlar bor: rusdan

ham bor, o'zbekdan ham bor, armanidan ham bor. Bunday qo'llash ko'proq so'zlashuv nutqda uchraydi. Bunda chiqish kelishigidagi bo'lakdan keyin bosh kelishik formasidagi so'z qo'llansa, ega odatdagi holatda ifodalangan bo'ladi. Bosh kelishikdagi so'z qo'llanmasi, bundan konstruksiyasi bir sostavli gap deb qaraladi.

2. Ikki ayrim-ayrim so'z bilan ifodalangan bo'lib, uyushgan bo'laklar formasida kelgan edilar: 1) Shaxs jihatidan bir xil bo'lganda: a) ularning har biri kesim bilan bevosta bog'lana oladi, bunday holat egalarda uchinchi shaxs ma'nosi ifodalanganda sodir bo'ladi: U va Karim keldi.

b) egalar kesim bilan yakka-yakka bog'lana olmaydi, faqat birgalikdagina birikadi, har ikkisi bir butun sanaladi. Masalan: U bilan Karim borishdi. Bunday vaqtda egalarning ayrim-ayrim bog'lana olmasligining ayrim sababi kesimning jamlik, birgalik anglatishi va uning har ikki egaga ko'plik formasida bog'lanishidir.

2) Egalar shaxs jihatidan har-xil bo'lganda uyushuvchi elementlar birgalikda ega sanaladi, kesim birinchi yoki ikkinchi shaxsning ko'pligini ko'rsatadi. Masalan: Men va sen keldik kabi. Bunday o'rinlarda ko'pincha umumlaShtiruvchi so'z qo'llanadi: Men va u ikkovimiz keldik.

3. Ega va kesim shaxs jihatidan bir-biriga mos bo'ladi, boshqa-boshqa shaxsni ko'rsatmaydi. Kesim boshqa shaxsni, ega o'rnida qo'llangandek sezilgan bo'lak boshqa Shaxsni ko'rsatsa, bunday bo'lakni izohlovchi deb qarash kerak. Bunday gaplarda ega funksiyasida qo'llaniladigan kishilik olmoshi ifodalanmay qolgan bo'ladi. Masalan: ... Ikki mashshoq bir-biringiz bilan suhbatlashdingiz. Bunda: siz – ega, ikki mashshoq – izohlovchi.

4. Juft so'z, o'z-o'zidan, bir ega sanaladi va gapning bir bo'lagi bo'lib keladi: Qo'ydi-chiqdi – eski zamondan qolgan yomon odat.

5. Ma'lum tur gaplarda ayrim so'z bilan ifodalangan ega qatnaShmaydi: Sen bordingmi? - Bordingmi? Lekin bunday gap bilan shaxssiz gap bir-biridan farqlanmaydi, ular boshqa-boshqa turdir.

Gapda eganing qatnashuvi yoki qatnashmasligi nutqning mazmun tomonidan yo'nalishi bilan, grammatik stilistik xususiyatlar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan: Siz majlisga boring. – Majlisga boring. Bundagi xilma-xilliklarni fikrni turli darajalarini bildirishda intonatsiyaning ham roli bor.

Eganing ayrim so'z bilan ifodalanmasligi asosan quyidagi o'rinlardan uchraydi:

1) Kesimi buyruq fe'li bilan ifodalangan gaplarda, masalan: Ayt, Tez bor. Bunday gaplarda birinchidan, ega bilan ifodalanadigan shaxs ahamiyat jihatidan asosiy o'rinda bo'lmaydi, ikkinchidan, nutq qaratilgan shaxs kesimdan, ba'zan undalmadan, umumiy mazmundan, grammatik holatdan bilinib turadi.

2) Kesimdagi predikativlik affikslari egani aniq ko'rsatib turganda. Masalan: Bordim, bordingiz.

3) Sub'yekt ma'nosida umuman odamlar o'ylaganda, kesimi ikkinschi yoki uchinchi shaxs formasidagi fe'l bilan ifodalangan gapdan anglashilgan fikr hammaga qaratilgan bo'lganda: Nima eksang, shuni o'rasan. Mehnat qilsang, rohat ko'rasan kabi misollar ham, yuqorida aytilgandek, egasiz gaplarga kiradi, holbuki ularning aniq shaxs sonini ko'rsatadi. Lekin bunday o'rinlarda Shaxs-son formasi

umumlashgan bo'ladi. Anglashiladiki, gapning shaxsi aniq, shaxsi noma'lum, shaxsi umumlashgan kabi tiplarini belgilashda ham eganing xarakteri, uning qo'llanish - qo'llanmasligi kabi xususiyatlar asosga olinadi.

4.) Topishmoqlarning ba'zi turida ham ega qo'llanmaydi: ega bilan ifodalanishi kerak bo'lgan predmetning belgilarini bildiradigan so'zlar gapni hosil qiladi, faqat eganing o'rni ochiq qoladi, tinglovchi o'shani topadi. Misollar: Kunduzi izzatda, kechasi xizmatda, (ko'rpa-yostiq). Chopsa, chopilmas – kessa, kesilmas (soya).

5) Shaxsli fe'llar gapda kirish so'z, kirish gap vazifasida qo'llanganda: Shunday qilib, desangiz, surati gazetada chiqibdi.

6) Ega bilan ifodalaniShi lozim bo'lgan predmetning ma'nosi kontekstual raviShda juda ham aniq o'qiladigan – seziladigan ba'zi gaplar borki, ular doim egasiz qo'llanadi: Uning bo'yida bo'ldi. Umumiy mazmunga qaraganda «bo'yida bo'ldi» tipidagi konstruksiyani egasi «bola»dir

Ega tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'ladi.

Sodda egalar sintaktik formadagi birgina so'zlardan iborat bo'ladi. Masalan fusunkor bahor, dillarga quvonch baxsh etib keldi.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning tobelaniSh munosabatidan tuzilib, bir butun holda qo'llanadigan, bir murakkab tushuncha anglatadigan egalar murakkab hisoblanadi.

Gap bo'lagini tahlil qilish tartibi:

1. **Bo'lakning nomi;**
2. **IfodalaniShi;**
3. **Grammatik formasi;**
4. **So'rog'i;**
5. **Qaysi bo'lakka bog'langanligi: a) sintaktik aloqasi, b) semantik aloqasi;**
6. **Tuzilishi.**

«GAP BO'LAKLARI» MAVZUSI BO'YICHA NAZORAT

SAVOLLARI:

1. Gap bo'lagi deb qanday birlikka aytiladi?
2. Ma'lum bir so'z qanday holatlarda gap bo'lagi vazifasida kela oladi?
3. Gap bo'lagi necha turga bo'linadi?
4. Gapning bosh bo'laklari qaysilar?
5. Ikkinchi darajali bo'laklarni sanang.
6. Gapning grammatik asosini qaysi bo'laklar tashkil etadi?
7. Ega va kesim qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanadi?
8. To'ldiruvchi, aniqlovchi, hol qaysi so'z turkumlaridan ifodalandi?
9. So'zlashuv nutqida gap bo'laklari tartibi qanday bo'ladi?
10. Gapni tashkil etishda eganing roli qanday bo'ladi?
11. Eganing grammatik belgilari.
12. Egani aniqlashda logik va grammatik aspektlar.
13. Ega qanday ifodalanadi?
14. Tuzilishiga ko'ra ega necha xil bo'ladi?
15. Ega kesim bilan qanday grammatik aloqaga kiradi?

16. Predikativ aloqa deganda nimani tushunasiz?
17. Logik va grammatik egani qanday izohlaysiz?
18. Gapda egaga qaysi bo'laklar tobelanadi?
19. Otlashgan so'zlardan ifodalangan ega ishtirokida uchta gap tuzing.

TANYACH ATAMALAR:

1. Gap bo'lagi.
2. BoSh bo'lak.
3. Ikkinchi darajali bo'lak.
4. Grammatik asos.
5. Ega.
6. Kesim.
7. To'ldiruvchi.
8. Aniqlovi
9. Hol
10. Sodda ega, murakkab ega.

A d a b i y o t l a r :

1. Abdurahmonov G'. va boShqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T, 1979 yili.
2. G'ulomov A., Asqarova M., Hozirgi o'zbek adabiy tili. T, 1987 yil.
3. Hojiev A., Maxmudov N. Semantika va sintaksis pozitsiya. «O'zbek tili va adabiyoti» jurn, 1983 y. 2-son.
4. O'rinboev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Samarqand. 2001.
5. Qurbonova M. va boShqalar. O'zbek tilining struktural sintaksisi. ToShkent.2004.
6. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. ToShkent. 1996.
7. Nurmonov A. va boshqalar. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T, 1992 yil.

5-MAVZU.

KESIM VA UNING IFODALANISHI.

REJA:

1. Kesim haqida umumiy ma'lumot.
2. Kesimning ifoda materialiga ko'ra turlari:
A) ot-kesim;
V) fe'l-kesim.
3. Kesimning tuzilishiga ko'ra turlari.
4. Ega va kesimning shaxs-sonda moslashishi.
5. Fe'l-kesimning ega bilan moslashuvi.
6. Ot kesimning ega bilan moslashuvi.

Eganing belgisini, harakatini, holatini yoki boshqa biror belgisini hukm yo'li bilan ifodalaydigan bo'lak kesim deyiladi. Kesim eganing aktiv ish-harakati va passiv /sifat-holat/ belgilarini ifoda etadi. Eganing aktiv belgisi uning o'z faoliyati natijasida hosil qilinadi. Passiv belgi esa uning doimiy belgisi hisoblanadi. Kesim

gap tuzishda asosiy bo'lak hisoblanadi. Gapning asosiy belgisi hisoblangan predikativlik asosan kesim orqali ifodalanadi. Demak, kesim bir tomondan eganing belgisini, ifodalaydigan, 2-tomondan qaysidir jihatdan ma'nosi to'ldirilgan, aniqlanadigan bo'lak hisoblanadi. Kesim ifoda materialiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Ot-kesim.
2. Fe'l-kesim.

Fe'ldan boshqa turkumlarga oid so'zlar bilan ifodalangan kesim ot-kesim deyiladi. Ot-kesimlar egalik sifati, miqdori, jinsi, xususiyati kabi passiv belgilarni ifodalaydi. Ular kim? nima? qanday? qancha? nechta? kabi so'roqlariga javob bo'ladi.

Ot-kesimlar quyidagi turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan: Gullar ichida eng go'zali-atirgul.
2. Sifat bilan: Mehnat qilgan elda aziz.
3. Son bilan: Ilmli kishilarning umri ikkita.
4. Olmosh bilan: Dadangni ra'ylari shu.
5. Ravish bilan: Muncha jahling tez.
6. Harakat nomi bilan: Yashamoq-kurashmoq, kurashmoq o'rnak bo'lib yashamoqdir.
7. Taqlidiy so'zlar bilan: Auditoriya shov-shuv.
8. Modal so'z bilan: Xalq orzusini oshirishdan kattaroq baxt bormi?

Fe'l bilan ifodalanib, eganing harakatini, holatini anglatadigan kesim fe'l-kesim deyiladi.

Kesim vazifasida kelgan fe'lning anglatgan ma'nosiga ko'ra holat bildiruvchi fe'l-kesim va harakat bildiruvchi fe'l-kesimga ajratilishi mumkin

Harakat bildiruvchi fe'l-kesim predmetning fizik harakatini anglatadi. Bu harakat 3 zamon tengligida sodir bo'ladi:

Opa singil yugurib hovliga chiqishdi.

Holat bildirgan fe'l-kesimlar eganing har xil psixologik holatini ifoda etadi.

Tepada azim qayrag'och savlat to'kib turardi.

Fe'l-kesim fe'lning quyidagi formalari bilan ifodalanadi.

1. Sof fe'l bilan. Bu sho'x qiz minbar uzra o'z sarguzshtlarini so'yulardi.
2. Ravishdosh bilan: Xuftondanoq shu erga kirib yotib erdim.
3. Sifatdosh bilan: Biz ishlayotgan brigada rejani oshirib bajargan.

Kesimlar tuzilishiga ko'ra sodda, sostavli, murakkab bo'ladi.

Sintaktik formadagi birgina so'z bilan ifodalangan kesimlar sodda kesimlar deyiladi. M: She'riyatning onasi- til.

Mustaqil so'z bilan turli grammatik ma'nolarni ifodalovchi yordamchi so'zning birikishidan xosil bo'lgan sostavli kesimlar deyiladi. Sostavli kesimning etakchi komponenti eganing biror bir belgisini anglatadi. Yordamchi komponent esa yetakchi komponentning grammatik formasini shakllantiradi, to'ldiradi. Kelgan 2 kishi professor ekan.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'noli so'zlarning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topgan bir butun holda kesim sifatida ajratilgan morfologik-sintaksis hodisalar murakkab kesim deyiladi.

Ular quyidagicha ifodalanadi:

1. Turg'un birikma bilan: Bu er-ishlab chiqarish birlashmasi

2. Ibora bilan: Mirzakarimboy ilonni yog'ini yalagan odam.

Ma'lumki ega va kesimning grammatik asosi sanaladi. Gapni-gap qilib to'ldiruvchi ana shu ikki bo'lak o'zaro shaxs-sonda moslashadi moslashuv aloqasi yordamida ikki xil sintaktik konstruktsiya-so'z birikmasi va gap hosil qiladi.

Gap hosil qiliShda, ya'ni ega va kesimning bir-biriga moslashuvida asosan shaxs-son qo'shimchalari va fe'ning birgalik nisbati vositasida keladi. Ega va kesim ham logik jihatdan, ham grammatik jihatdan bir-biriga moslaShadi. Bunda ikki holat:

1. Ega va kesim faqat logik jihatdan moslashishi mumkin: Hamma to'plandi. Bu erda hamma so'zi ko'plik ma'nosini ifoda etadi, kesim birlik ma'nosida turibdi.

Demak, bu erda grammatik jihatdan mosluShuv mavjud emas. Logik jihatdan esa bu erda hech qanday mantiqsizlik sezilmaydi.

2. Grammatik jihatdan moslaShuv. Ega va kesimning farmal jihatdan quyidagicha xususiyatlarga ega:

a) gapning kesimi fe'l – kesim bo'lganda:

- Ega birinchi va II Shaxs olmoshlari bilan ifodalanganda kesim bilan shaxs -sonda moslashadi. Men o'qidim, Siz o'qidingiz...

- Ega III shaxsni ko'rsatuvchi olmoshda ifodalanganda kesim bilan shaxs –sonda moslashadi. Lekin kesim tarkibida shaxs –son qo'shimchalari qo'llanmasligi mumkin: Lobar o'qidi. Talabalar musobaqada g'olib chiqililar.

b) kesim ot –kesim bo'lganda: Men talabaman – men talaba

v) uyushiq egalarning kesimi bilan moslashuvi:

Karima, Salima va Halima birga dars tayorlashdi.

SHAXSDA MOSLIK

Ega va kesim bir-biri bilan shaxsda hamma vaqt mos bo'ladi: Biz maktabning jamoat ishlariga faol qatnashamiz. Ular maktabning jamoat ishlariga faol qatnashadilar.

Oldingi gapda ega ham, kesim ham (Biz qatnashamiz) I shaxsda, keyingi gapda esa (ular qatnashadilar) ega va kesim III shaxsda bir-biri bilan qat'iy moslashgan.

Eslatma: Nutqda hayron bo'lasan kishi tarzidagi gaplar bilan ba'zan qo'llanadi. Bu gapda ega va kesimni shaxsda moslashmagan: Ega (kishi) III shaxsda, kesim esa III shaxsdir.

EGA BILAN KESIMNING SONDA MOSLIGI.

I. Fe'l – kesim I va II shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda mos bo'ladi: Men fakultativ mashg'ulotlarga qatnashyapman. Biz paxta yig'im-terimida dehqonlarga yordam berdik.

II. Fe'l – kesim III shaxsda ega bilan hamma vaqt sonda moslashavermaydi:

1. Kimsani bildirgan III shaxsdagi ega bilan fe'l-kesim sonda mos bo'ladi: Siddiqjon kimningdir qattiq kulgusidan uyg'onib ketdi. (A.K.) Dehqonlar bahorgi ishlarni boshlab yubordilar.

2. Ko'plikdagi ega kimsani emas, balki narsa - buyumlarni bildirsa, fe'l - kesim, odatda ega bilan sonda moslashmay, birlikda ishlatiladi: O't - o'lanlar bahor kelishi bilan ko'karadi.

Eslatma. Jonivorlarni anglatgan ko'plikdagi ega fe'l kesim bilan sonda mos bo'lishi ham mumkin: Qo'ng'izlar kuzda uyalariga yashirinadilar.

3. Birgalik nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan kesimning ega bilan sonda moslashishi o'ziga xos bo'ladi: bunday fe'llardan ko'plik ma'nosi anglashilib turadi: O'qituvchilar va o'quvchilar mehnat fahriylarini kutib olishdi.

4. Ot-kesim ko'plikdagi ega bilan ko'pincha moslashmaydi, birlikda qo'llanadi: Stol atrofida Isoy bobo, Alixon aka va cho'ponlar bor edi.

Eslatma. Ba'zan. Ega birlikda, kesim esa ko'plikda bo'ladi. Bunda hurmat yoki o'rni bilan kesatish va boshqa ma'nolar anglashiladi: O'rtoq Ibrohimov juda yaxshi hosilot ekanlar.

5. Gapda eganing aniqlovchisi miqdor son bilan ifodalansa, ega birlik shaklida bo'ladi, kesim ham birlikda qo'llanadi: O'n besh o'spirin sayrga ketdi.

FE'L-KESIMNING EGA BILAN MOSLASHUVI

Fe'l-kesimning ega bilan moslashuv yo'li bilan ro'yobga chiqadi. Bu shakliy munosabat kesimning morfologik shakli orqali amalga oshadi. Fe'l-kesimning morfologik shakli orqali amalga oshadi. Fe'l-kesimning morfologik shakli fe'l bo'lgani uchun u kesim shakllantirish hamda kesimning ega bilan sintagmatik munosabatini ko'rsatish vazifasini bajaradi. Masalan: Sherzod deraza pardasini surib, tashqariga qaradi. (U.Hoshimov)

I va II Shaxsdagi fe'l kesimlar ega bilan ham shaxsda, ham sonda moslashadi. Masalan: Biz hamma narsaning qadrini o'zi yo'qolganidan keyin bilamiz. (U.Hoshimov)

Kesim ega bilan doimo shaxsda moslashadi. Lekin sonda doimo mos bo'lavermaydi. Quyidagi holatlarda ega bilan kesim o'rtasida qisman moslik (faqat Shaxs jihatidan) mavjud bo'ladi:

a) ko'plik shakldagi ega vaziyatida shaxs bildiruvchi ot morfologik shakli bo'lganda kesim birlikda ham, ko'plikda ham kela oladi: Donishmandlar to'g'ri aytgan. (O'.Hoshimov)

b) ko'plik shakldagi ega vaziyatda jonsiz predmetlarni hayvon, parandalarni bildiruvchi ot morfologik shakli bo'lganda kesim doimo birlik shaklda qo'llanadi: Itlar hurdi.

OT-KESIMNING EGA BILAN MOSLASHUVI

Ot-kesim vaziyatida sintaktik shaklning fe'ldan boshqa morfologik shakllari kelganligi sababli ular kesim bo'lib shakllanishi va ega bilan bog'lanishi uchun maxsus vositalarni oladi. Ana shunday vositalar bog'lama hisoblanadi.

Bog'lamalar ot kesimlarni kesim qilib shakllantirish va ega bilan sintagmatik munosabatini yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. Bog'lamalar ot-kesimga qo'shilishiga ko'ra ikkiga ajratiladi:

a) sintetik shakl (-man, -san, -dir kabi).

b) analitik Sshakl (bo'lmoq, hisoblanmoq, sanalmoq va boshqalar).

Sintetik shakllar to'g'ridan-to'g'ri ot kesimning o'ziga xuddi fe'l kesimlardagi shakllari kabi qo'shiladi. Masalan:

Men talabaman

Sen talabasan

U talabadir

Ko'pincha III shaxs shakli bevosita ifodalanmasligi mumkin. Masalan: Bu er – mardlar makoni.

Ayrim vaqtlarda I va II shaxs shakllari ham shakliy ifodalanmasligi mumkin:

Men – inson farzandi (G'.G'.)

Sen talaba

Sen xalqimning yuragi (H.O.)

Bunday vaqtda ega va kesim o'rtasida mazmuniy predikativ munosabat bo'lsa ham, lekin bu munosabat moslashuv orqali ifodalanmaydi. Mazmuniy va shakliy munosabat o'rtasida nomuvofiqlik vujudga keladi.

Analitik shakli kesimlik shakllarini olgan holda kesim vaziyatidagi ot shakliga qo'shiladi va kesimni shakllantirish hamda uni ega bilan sintagmatik munosabatga kiritish vazifasini bajaradi. Masalan:

Men talaba hisoblanaman. (bo'laman)

Sen talaba hisoblanasan. (bo'lasan)

U talaba hisoblanadi. (bo'ladi)

SODDA VA TARKIBLI KESIMLAR

Kesimlar tuzilishiga ko'ra sodda va tarkibli kesimlarga bo'linadi. Kesim vaziyatidagi sintetik - morfologik shakldan tashkil topgan sintaktik (morfologik) shakl sodda kesim sanaladi. Qanday sintetik - morfologik shakldan tashkil topishiga ko'ra sodda kesim ikki xil nom bilan yuritiladi:

a) sodda ot kesim: Men ishchiman, xizmatchiman. (H.H)

b) sodda fe'l kesim: O'rik gulladi.

Kesim vaziyatidagi analitik morfologik shakllardan, frazeologizmlardan yoki birikmalardan tashkil topgan sintaktik shakl tarkibli kesim hisoblanadi. Ko'k yuzini bulut, chol ko'zini g'azab asta bosib kela boShladi. (U.)

Tarkibli kesim ham qanaday morfologik Shaklning etakchiligiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

a) tarkibli fe'l kesim.

b) tarkibli ot kesim.

Tarkibli fe'l kesim quyidagi modelli morfologik shakllardan tashkil topadi.

a) ravishdosh + ko'makchi fe'l: -ib boShla(yot, tur, o'tir, kel, bor, yur, chiq, tashla, tuSh, ko'r va boshqalar)

- b) sifatdosh +to'liqsiz fe'l: edi (ekan, emish).
 v) fe'l + fe'l: aytdi-qo'ydi, chiqdi-ketdi va boshqalar.
 g) ot+fe'l tipidagi frazeologizmlardan: ko'ngli to'ldi, boshi qotdi kabi.
 Tarkibli ot kesim quyidagi modeli morfologik shakllardan tashkil topadi:
 a) ot+to'liqsiz fe'l: Xona issiq ekan (edi).
 b) ot+bog'lama: (hisoblanmoq, sanamoq, tuyulmoq, bo'lmoq kabi):
 O'zbekistonning mustaqil bo'lishi katta voqea hisoblanadi («O'zbekiston ovozi»)
 v) ot (+dan) +iborat: Uyimiz besh xonadan iborat.
 g) harakat nomi (+egalik Shakli)+kerak (zarur, lozim, mumkin, Shart kabi so'zlar): Men o'qishim kerak.
 d) sifatdosh (+egalik Shakli) + yo'q: Xalqqa ayting: men aslo o'lganim yo'q (H.O.)

«KESIM» MAVZUSI BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI:

1. Kesim deb nimaga aytiladi?
2. Kesim ifodalaniShiga ko'ra nechaga bo'linadi?
3. Ot-kesim deb nimaga aytiladi?
4. Fe'l –kesim qanday ifodalanadi?
5. Kesim tuziliShiga ko'ra qanday ko'rinishlariga ega bo'ladi?
6. Sodda kesim qanday bo'ladi? Murakkab kesim-chi?
7. Bog'lama deb nimaga aytiladi?
8. Predikat tushunchasiga tavsif bering.
9. Ot-kesim va uning ifodalanishi haqida gapiring.
10. Fe'l-kesimlarni qanday guruhlash mumkin.
11. Moslashuv aloqasi haqida ma'lumot bering.
12. Ega va kesim qanday moslashadi?
13. Ega va kesimning moslashuvida qanday vositalar muhim vazifa bajaradi?
14. Qanday hollarda ega va kesim orasiga tire qo'yiladi?
15. Moslashuv aloqasi deganda nima tushuniladi?
16. Ega va kesim moslashuvi.
17. Ega va kesimning shaxs-sonda mosligi.
18. Ega va kesimning shaxsda mosligi.
19. Ega va kesimning sonda mosligi.
20. Ega va kesim o'rtasida tirening ishlatilishi.

TAYANCH ATAMALAR.

1. Predikativ tushunchasi.
2. Predikativ va sub'ekt.
3. Kesimning ifoda asoslari.
4. Ot-kesim.
5. Fe'l-kesim
6. Sostavli kesim.
7. Sodda kesim.
8. Bog'lamali kesim.

9. Murakkab kesim.
10. Moslashuv aloqasi
11. Shaxsda moslik
12. Sonda moslik
13. Ot-kesimning moslashuvi
14. Fe'l-kesimning moslashuvi
15. Bog'lama

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Akramov T. Birikmali ot-kesimlar, N,1967.
2. O'zbek tili grammatikasi. II tom. T., 1976
3. Nurmonov A. va bosh. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T., 1992.
4. Kesimning strukturasi ko'ra klassifikatsiyasi. «O'z. tili va adabiyoti» jurn. 1965. 4-son.
5. «O'zbek tilining nazariy grammatikasi» N.Mahmudov, A.Nurmonov, T.,1995 y.
6. O'rinboev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Samarqand. 2001.
7. Qurbonova M. va boshqalar. O'zbek tilining struktural sintaksisi. ToShkent.2004.
8. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. ToShkent. 1996.

6-MAVZU

TO'LDIRUVCHI VA ANIQLOVCHI. ULARNING IFODALANISHI HAMDA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

REJA:

1. To'ldiruvchi haqida ma'lumot
2. To'ldiruvchining ma'no turlari.
3. Uning ifodalaniShi.
4. Aniqlovchilarning ma'no turlari:
 - a) sifatlovchi, uning ifodalanishi;
 - b) qaratuvchi, uning ifodalanishi;
 - v) izohlovchi va uning ma'nolari.
5. Aniqlovchining tuzilishiga ko'ra turlari.

O'z hokim komponentiga tobelanish yo'li bilan bog'lanib, shu hokim komponent orqali otlashilgan harakat ta'siriga berilgan, Shu zaruratni o'z ustiga olgan ob'ekt yoki predmet ma'nosini bildiruvchi so'z to'ldiruvchi deyiladi. To'ldiruvchi vositali kelishiklar (-ni,-ga, -da, -dan) yoki ko'makchilar bilan birga kelib, o'zi ergashib kelgan gap bo'lagiga boShqqaruv yo'li bilan bog'lanadi. To'ldiruvchilar vositali kelishiklar va ko'makchili so'zlar so'roqlariga javob bo'ladi. Mavlon ota qurilishning ahamiyati haqida zavq bilan so'zladi. Muhiddin qog'ozga allanimalarni yozdi.

To'ldiruvchi gapda kesimga harakat, holat, belgi anglatuvchi so'z bilan ifodalangan bo'laklarga tobelanib, o'rtasidagi munosabat xarakteriga ko'ra to'ldiruvchilar vositasiz to'ldiruvchi va vositali to'ldiruvchiga ajraladi.

Hokim bo'laklar ifoda qilingan harakatning ta'siri bevosita o'ziga o'tgan predmetni bildiruvchi to'ldiruvchilar vositasiz to'ldiruvchilar deyiladi. Vositasiz to'ldiruvchilar o'timli fe'llarga, shuningdek, o'timli fe'l o'zagidan hosil qilingan sifatdash, ravishdash yoki harakat nomiga bog'lanib, tushum kelishigi formasida keladi. Kimni, nimani, qaerni, so'roqlariga javob bo'ladi. Hokim bo'lak ifodalangan harakat konktet ob'yektga emas umuman, shu turdagi ob'yektlarga o'tish tushunchasini bildirsa, vositasiz to'ldiruvchi belgisiz qo'llaniladi.

Botirlari kanal qazadi, Shoirlari g'azal yozadi.

Vositasiz to'ldiruvchi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan: Yurak sensan mening sozim, tilimni nayga jo'r etting.
2. Otlashgan sifat bilan: Qizilini alohida ajrating, dedi rais.
3. Otlashgan sifatdash bilan: Qari bilganni pari bilmas.
4. Olmosh bilan: Qutladi seni xalqing, Keksalar, norastalar.
5. Son bilan: Birni kessang, o'nni ek.
6. Harakat nomi bilan: Otishni o'rgandim, chorishni o'rgandim, dushman yer tagiga kirsan topishni o'rgandim.
7. Undov so'zlar bilan: Hozirdan «oh-voh»ni sizga kim qo'yibdi, -dedi qaynona.
8. Taqlid so'zlar bilan: Allamahalgacha osmonu – falakdan kelayotgan gumbur-gumburni eshitib, yalt-yultni tamasho qilib yotdim.
9. Otlashgan tovushlar bilan: Mo'ylabi, maysa bo'lib ham kap-katta chiroyli yigitning «R»ni ayta olmasligi Xolmurodga g'alati tuyuldi.
10. Iboralar bilan: Notiq takliflarni ovozga qo'yishni so'radi.

O'z hokim bo'lagiga tobelanish yo'li bilan bog'lanib, shu hokim bo'lak orqali ifodalangan harakatning yuzaga kelish qurol vosita vazifasini bajaradigan to'ldiruvchi vositali to'ldiruvchi deyiladi.

Vositali to'ldiruvchi vositali kelishiklar so'roqlariga va ko'makchili konstruksiyalar so'rog'lariga javob bo'ladi. Ular o'timsiz fe'llarga, shuningdek, bosh turkum so'zlarga bog'lana oladi: Ular quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan: yigit qizning naqsh olmadek yuzlariga, ingichka kamon qoshlariga, qop-qora xumor ko'zlariga termilgancha, qotib qolgan edi.
2. Otlashgan sifat bilan: Qo'rqqoqqa qo'sha ko'rinar.
3. Otlashgan sifatdash bilan: Yotib yeganga tog' ham chidamaydi.
4. Son bilan: Birniki mingga, mingniki tumanga.
5. Olmosh bilan: Senga termulmoqlik men uchun azob, ko'zim qamashadi tiniqligingdan.
6. Ravish bilan: Ko'pdan- quyon qochib qutulmas.
7. Harakat nomi bilan: Laylakning ketishiga boqma, kelishiga boq.
8. Otlashgan Shaxsli fe'l bilan: Odamlarning keldi-ketdisiga qo'shilib ketganmiz.
9. Undov bilan: Shunaqalarning «dod-voyidan» juda bezganman.

To'ldiruvchi tuzulishiga ko'ra sodda va murakkab bo'ladi. Sintaksis formadagi birgina so'z bilan ifodalangan to'ldiruvchilar deyiladi: Senga taxtdan baxt tilarman. Yaxshiga yomon, yomondan qoch. Ikki va undan ortiq mustaqil ma'noli so'zlarning tobelaniSh minosabatidan tashkil topib, bir murakkab to'ldiruvchiga anglatadigan, gapda butunligicha to'ldiruvchi vazifasiga kiradigan morfologik-sintaktik birliklar murakkab to'ldiruvchi.. Tong saharda quShlar, bulbullar. Men Tangriqul gapning tegirmonga tushsa butun chiqishga ishonaman.

Predmetning belgisini, qarashlilikini ifoda qiluvchi gap bo'lagi aniqlovchi deyiladi. Bu o'rinda belgi tushunchasi keng ma'noda qo'llanib sifat rang tuz xususiyat maza, shakl-hajm, miqdor-daraja ma'nolarini ifoda qiladi.

Aniqlovchi ot va otlashgan so'zlar bilan ifodalangan bo'laklarga bog'lanadi. M: Movi osmonda kul rang bulutlar sayr qiliShmoqda.

Aniqlovchi bog'lanib kelgan aniqlanmish deyiladi. Aniqlanmish deyilganda belgisi aniqlanadigan predmet yoki shaxs tushuniladi.

Aniqlovchilar anglatgan ma'nolarga ko'ra: sifatlovchi, qaratuvchi izohlovchilarga bo'linadi.

Sifatlovchi aniqlovchilar aniqlanmishga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi va predmetning turi belgilarni ifoda etadi. Ular qanday?, qaysi?, qanaqa?, nechanchi?, qancha kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Sifatlovchi quyidagicha ifodalanadi:

1. Sifat bilan: Bizning erkin va quvnoq hayotimizga hech kim halal bermasin. Ba'zan kichkina bir hodisa katta voqealarni biliShga sabab bo'ladi.

Sifatlovchi nisbiy sifat bilan ifodalanganda predmet belgisini o'rin va paytgga nisbat belgi orqali aniqlanadi. Dalada kuzgi bug'doy unib chiqqan payt edi.

2. Ot bilan: Ishchilarning temir, po'lat qo'llari eng yuksak tog'larning bag'rini yoradi.

3. Son bilan: Erkin ucht a bola bilan keldi. Ular ikkinchi sinf bolalari edilar.

4. Olmosh bilan: Bu kiShining fe'l-atvori menga ma'qul. Hovliga yaqin erda qandaydir hashorat chirillaydi.

5. Sifatdosh bilan. Aytilgan so'z otilgan o'q.

Ba'zan sifatdoshlar o'ziga bog'langan so'zlar bilan kengayib, sifatdosh abarotlarini hosil qiladi. Ular yoyiq sifatlovchilar sanaladi. M: Samalyotlar uchib qo'nayotgan joydan sal berida temir yo'l ko'rindi.. Oy shu'lasini tushib turgan binolar zarrin tusda oqarib ko'rinadi.

6. Ravish bilan. Uzoq-yaqin qarindoshlar ham etib keliShdi.

7. Taqlidiy so'zlar bilan. Har yoqdan ovozlar eShitiladi.

8. Kerak, zarur kabi predikativ-modal so'zlar bilan: Zarur iShlar bitdi endi unga qaytamiz.

Qaratuvchi aniqlovchi biror predmetning yoki nimaga qarshi ekanligini btildiruvchi aniqlovchidir. Qaratuvchi aloqaga kirishgan bo'lak qaralmish sanaladi. Qaratuvchi va qaralmish moslashuv yo'li bilan aloqaga kirishadi: Yengil taqlid bizning kishilarga xos sifat emas.

Qaratuvchi quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan. Yigitning yuragi bir oz o'ynab ketdi.

2. Olmosh bilan. Sening ko'zlaring hammani jodu etar.
3. Otlashgan sifat bilan. Go'zallarning sochlari uzun.
4. Otlashgan sifatdosh bilan. Kerilganning uyiga bor, maqtanganning to'yiga.
5. Ravish bilan: Ertaning tashvishlari barchamizni o'ylantirib qo'ygan edi.
6. Otlashgan son bilan: Men bir umr kuylab o'tdim millionlarning dardini.
7. Harakat nomi bilan: Instutdagi o'qishning tashvishli onlari imtihon sessiyasi davom etayotgan kunlar edi.

Qaratuvchi belgi yoki belgisiz qo'llanishi mumkin. Bu, albatta ma'no xarakteriga ko'radilar. Qiyoslang: Universitet bog'ida har xil gullar ochilib yotibdi. Universitetning bog'ida har xil gullar ochilib yotibdi.

Izohlovchi ham aniqlovchining bir turidir. Predmetga boshqa nom berish, uni boshqacha atash yo'li bilan aniqlaydigan bo'laklar izohlovchi deyiladi. Izohlovchi aniqlab kelgan bo'lak izohlanmish sanaladi. Izohlovchilik birikmada ikki predmetning munosabati ifodalanadi. Izohlovchi va izohlanmish bo'laklar ot, otlashgan sifat, son yoki sifatdosh bilan ifodalanadi.

Izohlovchilar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1. Unvonni: Professor G'.Abdurahmonov atoqli tilshunos olimdir.
2. Mashg'ulot, kasb, amalni: Hovliga bosh buxgalter Sulaymon Sodiqov kirib keldi. Yo'lchi o'z do'sti temirchi Qoratoy bilan hangomalashib o'tirar edi.
3. Qarindoshlik va shunga o'xshatilgan belgini: To'xta xola uzoqdan kelayotgan ikki kishini qorasini ko'rdi. Opam Karima universitetning 5-kursida o'qiydi.
4. Jinsi: Uzoqdan qiz bolalarning kulgusi eshitalardi.
5. Laqabi: Ayvon pastida Soli sovuq bilan Juman pismiqlik qo'l qovushtirib turadi.
6. Taxullusni: Rahmatulla ota Qo'zi o'g'li-Uyg'un yirik o'zbek shoiridir.
7. Aniqlovchilar tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: Sodda aniqlovchi, murakkab aniqlovchi.

Sintaktik formadagi so'zlar bilan ifodalanib, bir sodda tushunchani anglatadigan sodda aniqlovchi deyiladi. Sodda aniqlovchi quyidagicha ifodalanishi mumkin. M: Vatanimizning hamma burchaklarida mustaqillik nashidasi hukmron. Ahmadalining ukasi injener bo'ldi. Ikkita olma bir kilo chiqdi. Ko'rilajak masala ham nozik ekan. O'qiganning tili ko'p uzun bo'ladi.

Ikki va undan ortiq so'zlarning tobelanish munosabatidan taShkil topgan bir murakkab tushuncha anglatadigan gapda bir butun holda aniqlovchi vazifasida qo'llanadigan birikmalar murakkab aniqlovchi deyiladi. Murakkab aniqlovchilar quyidagi morfologik-sintaktik birikmalar bilan ifodalanadi. M: Markaziy Osiyolik olimlar simpoziumiga to'planadilar. Og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadigan Haydarqul butun xo'jalik rahbari. Ko'pchilik o'rtasida oq koftalik, qora yubkalik, ixcham qomatli Fotima yaqqol ko'zga taShlanib turar edi. Yuz yillik qarag'aylar o'zaro shivirlasha ketdi. Ko'z ilg'amas o'rmonlarda qish hukm suradi.

Umuman, aniqlovchilar belgi anglatishi nuqtai nazardan hol va kesimga o'xshash ketadi. Lekin kesim-eganing belgisini hukm yo'li bilan ifoda etadi, hol esa harakatning turli belgilarini aniqlaydi. Aniqlovchining ulardan farqi shundaki, ular ot yoki otlashgan so'zlar belgisini atributiv yo'l bilan izohlab keladi.

«TO'LDIRUVCHI VA ANIQLOVCHI, ULARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI» MAVZUSI BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI.

1. Ikkinchi darajali bo'laklar haqida ma'lumot bering.
2. To'ldiruvchi deb nimaga aytiladi?
3. To'ldiruvchilar necha turga bo'linadi?
4. Vositali to'ldiruvchi haqida ma'lumot bering?.
5. Vositasiz to'ldiruvchiga misollar keltiring.
6. To'ldiruvchi qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin?
7. To'ldiruvchilar belgisiz kela oladimi?
8. Sodda to'ldiruvchilarning xususiyatlari nimada
9. Murakkab to'ldiruvchilarning misollar orqali tushuntiring.
10. Atributiv aloqa haqida nimalar bilasiz?
11. Aniqlovchi deb nimaga aytiladi?
12. Aniqlovchining ma'no turlarini sanab bering.
13. Sifatlovchi qanday ma'nolarni anglatadi?
14. Izohlovchining ma'nolarini sanang.
15. Sifatlovchi va izohlovchilar so'zlarga qaysi yo'l bilan bog'lanadi?
16. Qaratqich aniqlovchi qanday shakllanadi?
17. Qaralmish qanday usul bilan so'zga bog'lanadi?
18. Sodda aniqlovchining xususiyatlari nimada?

TAYANCH ATAMALAR.

- 1.To'ldiruvchi.
- 2.Vositasiz to'ldiruvchi.
- 3.Vositali to'ldiruvchi.
- 4.To'ldiruvchining ifodalaniShi.
- 5.Sodda to'ldiruvchilar.
- 6.Murakkab to'ldiruvchilar.
 - 7.Atributiv aloqa.
 - 8.Aniqlovchi.
 - 9.Sifatlovchi aniqlovchi.
 - 10.Qaratqich aniqlovchi.
 - 11.Izohlovchi.
 - 12.Sodda aniqlovchi.
 - 13.Murakkab aniqlovchi.

ASOSIY ADABIYOTLAR.

1. Mahmudov N.Funksional va nofunksional to'ldiruvchilar haqida. «O'zbek tili va adabiyoti» xur.1981.1-son.
2. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Sintaksis.ToShkent.1996.

3. G'ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o'zbek tili. Sintaksis. ToShkent, 1966, 1987.
4. O'rinboev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Samarqand. 2001.
5. Qurbonova M. va boShqalar. O'zbek tilining struktural sintaksisi. ToShkent.2004.
6. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. ToShkent. 1996.

7-MAVZU HOL VA UNING MA'NO TURLARI.

REJA:

1. Hol haqida umumiy ma'lumot.
2. Holning ma'no turlari va ifodalanishi.
3. Holning tuzilishiga ko'ra turlari.

Harakat yo holatning bajarilishi o'rni, payti maqsadi, sababi, tarzi va boShqalarni ko'rsatib ish-harakat bildiruvchi bo'lakka tobelashgan bo'lak – hol deyiladi.

Hol fe'l-kesimga, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh yoki ravish bilan ifodalangan bo'laklarga bog'lanib ularni biror jihatdan izohlab keladi. Safarov bilan Samandarov qotib-qotib kulishdi. Oysulton xayol surib ayvonga chiqib qolganini bilmay qoldi. Ravon o'qishni otamdan o'rgandim.

Hol ravish, ravishdosh, vositali kelishikdagi yoki ko'makchili otlar, harakat nomi, sifat, shuningdek, ravish xarakteriga ega bo'lgan ajralmas birikmalar bilan ifodalanadi. Ifodalangan mazmunga ko'ra hollar quyidagi turlarga ajraladi:

1. Ravish holi.
2. Miqdor daraja holi.
3. O'rin holi.
4. Payt holi.
5. Sabab holi.
6. Maqsad holi.
7. Shart holi.
8. To'siqsizlik holi.

RAVISH /TARZ/ HOLI

Ish harakatning yoki holatning qay tarzda, qay vaziyatda sodir bo'lishini ko'rsatadigan hollar ravish holidir. Ular qanday?, qay tarzda?, qay holda? so'roqlariga javob bo'ladi. Bu hol quyidagicha ifodalanadi:

1. Holat ravishi: Sidiqjon birdan boshini ko'tardi.
Oppoq bulutlar asta-sekin qoraya boshladi.
2. Ravishdosh bilan: Yo'lchi suqila-suqila oldinga intildi.
3. Sifat bilan: Ular ko'zlari bilan iliq, samimiy salomlashdilar.
4. Ko'makchilar bilan: Brigada o'z vazifasini Sharaf bilan bajardi.
5. Ravishdosh formasidagi «bo'lmoq» yordamchisi bilan birikkan sifat va son bilan. Daryoning bir joyi botayotgan quyosh nuridan qip-qizil bo'lib ko'rinadi. Men xonaga birinchi bo'lib kirdim.

6. Holda, tarzda ko'makchilari bilan birga sifatdosh bilan: Bo'taboy hamon xatni o'ylagan holda g'ijimlardi.

7. Ravishda, surat, tarzda, tahlilda, yo'sinda, vaziyatda, tartibda kabi yordamchilar bilan kelgan so'zlar bilan:

8. Taqlidiy so'zlar bilan: Anorxon piq-piq yig'lardi.

9. -lay, -dek, -simon affikslari bilan olgan, kabi, singari, yanglig' ko'makchilari bilan kelgan otlar yoki sifatdosh bilan: Tozagul 18 ga kirib oydoy to'lgandi.

10. Iboralar bilan: Ular topshirilgan vazifani qo'l uchida bajarib yurdilar.

MIQDOR-DARAJA HOLI.

Ish-harakat, holat, vaqt kabilarning qay darajada ekanini miqdor jihatdan chegaralab, darajalab ko'rsatuvchi hollar daraja-miqdor holi deyiladi. Ular qancha? so'roqlariga javob bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

1. Ravish bilan: Kun tamom yorishib ketdi.

2. Son bilan: Yana 1 kmcha yurdik. Yo'lchi bu dorini 2 marta tayyorlagan.

3. Ko'ra, qarab, yarasha, sayin, sari kabi so'zlar bilan: kelgan ot va sifatdosh bilan: Ular yurgan sari to'p ovozlari tobora kuchayardi.

4. Son va vaqtni bildiruvchi so'zlar bilan: Poyezd 3 kechayu 3 kunduz yo'l yurdi. Bir kun kutdik.

O'RIN HOLI

Ish-harakat yoki holatning bajarish o'rnini bildiruvchi qayerda?, qayerga?, qayerdan? so'roqlariga javob bo'luvchi bo'laklar o'rin holi deyiladi. Ular quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan: Diyorimizda yana bir bahor boshlandi.

2. Olmosh bilan: Qayerdadir chigirtka chirilladi.

3. Otli ko'makchi bilan: Batalon qishloq tomon yo'l oldi.

PAYT HOLI

Ish-harakat yoki holatni bajarilish paytini bildirib, qachon? qachongacha? qachondan buyon? so'roqlariga javob bo'ladi. Payt holi quyidagicha ifodalanadi.

1. Ravish bilan: Ahyon-ahyonda otliq yo'lovchilar uchraydi.

2. Otlashgan sifat bilan: Issiqda ham, sovuqda ham ochiq havoda yotardik.

3. Harakat nomi: Qaytishga ular ancha qiynalishdi.

4. Son va vaqt ma'nosini anglatuvchi so'zlar bilan: Kunduz soat 3 larda uchrashdik.

5. Vaqt anglatuvchi so'zlarning arafasida, boShda, o'rtasida, oxirida kabi so'zlar bilan keliShi: Mart oyining boshlarida yerlar ko'karadi.

SABAB HOLI

Ish harakatning bajarilish sababini bildirib necha? nima uchun so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar sabab holi deyiladi. Sabab holi quyidagicha ifodalanadi:

Ravishdosh bilan: Qiz yetib keldi, sevgilisining qamchilanishiga chidolmay maydonga otildi.

Ot bilan: Men hijolatdan labimni tishladim.

Harakat nomi bilan: oila otaning kelishidan quvondi.

Sifatdosh bilan: Bashorat oyisini tanimay qolganiga kuldi.

Ibora bilan: Akasini yuzidan o'tolmay u o'rimga chiqdi.

MAQSAD HOLI

Ish-harakatning kuzatilgan maqsadni bildiruvchi hollar maqsad holidir. Ular nima maqsadda? nega? so'roqlariga javob bo'ladi.

Ravish bilan: Solovpev asrlar bilan gaplaShar ekan, atayin vahimali gaplarni aytardi.

Ravishdosh bilan: Qiz uni ushlab olgani ko'p urindi.

Harakat nomi bilan: Holmurod mollarni o'tlatishga olib chiqdi.

Ko'makchi va yordamchilar bilan kelgan so'zlar bilan:

Sir boy bermaslik uchun u sun'iy tabassum bilan savolni qaytardi. Oqsoqol ketmoqchi bo'lib o'rnidan turdi. Bir ko'rib chiqay deb xolamlarnikiga kirdim.

TO'SIQSIZ HOL.

Ma'lum bir harakatning bajarilishini to'siqlik, zidlik bo'lishiga qarama, shu harakatning bajarilishini anglatgan hollar to'siqsiz holi deyiladi. Ular quyidagicha ifodalanadi:

1. Ravishdosh bilan: Hammasini bilib turib yana so'raysiz.
2. –da yuklamasi olib kelgan shart fe'l bilan: Qiynalsak-da yetib olamiz.
3. Qaramay, qaramasdan, demay ko'makchilari bilan kelgan so'zlar bilan. Oysulton juda charchadi, Shunga qaramay yana yurgisi kelardi. Yoz demay, qish demay, bo'ron demay qo'yning oldidan yuramiz.
4. Fe'l-kesimning bo'lishli va bo'lishsiz formada takrorlanishi bilan: Men, xohlasam, xohlamasam, otinoyiga qatnashim shart edi.

SHART HOLI

Shart holi harakat ifodalangan bo'lakka bog'lanib, shu bo'lak orqali anglatilgan harakatning sodir bo'lishidan shartni ko'rsatadi va asosan fe'lining shart formasi bilan ifodalanadi. O'z hokim bo'lagiga –sa afiksi yordamida bog'lanadi: Og'a sog' borsangiz avval onamlarga salom ayting. Borsam Ochil buvani albatta boshlab kelaman.

Shart holi ba'zan payt ma'nosini ham anglatadi. Ko'rsam yerim quvonaman sarvqomat bo'yularingdan.

Hol tuzilishiga ko'ra sodda va murakkab bo'ladi. Sintaktik formadagi so'z bilan ifodalanib bir sodda tushunchani anglatadigan hollar sodda hollar deyiladi. Bu voqea tunda ro'y bergan edi.

Ikki va undan ortiq so'zlarning birikishidan tashkil topib bir murakkab tushuncha anglatadigan butunligicha hol vazifasida qo'shimchadagi morfemik sintaktik birliklar murakkab hol deyiladi. Ular asosan ravishdosh va sifatdosh, frazeologik yaxlit qo'shimchadagi ajralmas bo'laklar bilan ifodalanadi. Asqarali

tong saharda yana paydo bo'ldi. Boshimni olib, ey, Bobur, oyoq yetganча ketgayman.

«HOL» MAVZUSI BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI.

1. Hol deb nimaga aytiladi?
2. Holning ma'no turlarini sanang.
3. Tarz holining ta'rifini ayting.
4. Sabab hollari qanday ifodalanadi?
5. Maqsad hollari qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
6. To'siqsizlik holi haqida ma'lumot bering.
7. Shart holi qanday shaklda ifodalanadi?
8. Reletiv aloqani tushuntiring.
9. Daraja-miqdor holi qanday ifodalanadi?
10. O'rin holi qaysi so'z turkumlaridan ifodalanishi mumkin.
11. Payt holi qanday so'roqlarga javob beradi?
12. Payt holi qanday so'zlar yordamida ifodalanadi?
13. Maktab darsligida hol necha turga bo'lib o'rganiladi?
14. Oliy maktab darsliklarida-chi?
15. «Hol» mavzusi bo'yicha qanday qo'shimcha adabiyotlarni bilasiz?
16. Polesemantik bo'laklar qaysi gap bo'lagi doirasida kuzatiladi?
17. Gapda holning o'rni qanday?
18. Hol va hol ergaSh gaplar orasidagi sinonimik munosabatni tushuntirib bering.
19. Ajratilgan hollarga misollar keltiring.
20. Ajratilgan hollarda qaysi tiniSh belgilari ishlatiladi?

TAYANCH ATAMALAR

1. Reletiv aloqa.
2. Hol.
3. Holning ma'no turlari.
4. Ravish holi.
5. O'rin holi.
6. Payt holi.
7. Maqsad holi.
8. Sabab holi.
9. Daraja miqdor holi.
10. Shart holi.
11. To'siqsizlik holi.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Amarova O. Hozirgi o'zbek adabiy tili sabab va maqsad hollari . SamDU asarlari 188-son. S., 1971 yil.
2. Hayitboev K. Payt holining tartibiga doir. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali 1976. 6-son.
3. Po'latov A. Miqdor daraja holi «O'zbek tili va adabiyoti» jurn. 1970. 1-son.
4. Abdurahmonov A. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1979.
5. O'rinboev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Samarqand. 2001.

6. Qurbonova M. va boshqalar. O'zbek tilining struktural sintaksisi. Toshkent.2004.
7. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent. 1996.

8-MAVZU

GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI VA AJRATILGAN BO'LAKLAR

REJA:

1. Gapning uyushiq bo'laklari haqida ma'lumot.
2. Uyushiq bo'laklarni shakllantiruvchi vositalar.
3. Uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'z.
4. Uyushiq bo'laklarni bog'lovchi vositalar.
5. Ajratilgan bo'laklar haqida tushuncha.
6. Gap bo'laklarini ajratuvchi sintaktik holatlar.
7. Bosh bo'laklarning ajratilishi:

1. Gapning biror bo'lagiga nisbatan ayni bir xil sintaktik munosabatda bo'ladigan birdan ortiq bo'laklar uyushiq bo'laklar deyiladi.

Uyushiq bo'laklar ko'pincha bir xil so'z turkumi bilan ifodalanib, bir xil so'roqqa javob bo'ladi. Ular biriktiruvchi, ajratuvchi, sanaSh, chog'ishtirish intonatsiya bilan shuningdek, teng bog'lovchilar vositasida o'zaro bog'lanadi.

Uyushiq bo'laklar jins tushunchasiga nisbatan tur tushunchasini ajratib ko'rsatadi. M: Bog'da shaftoli, o'rik, olma gulladi gapida bog'da gullashi mumkin bo'lgan muman mevalarning turlari ko'rsatilgan.

Turli tushunchalarini anglatuvchi so'zlar bilan ifodalangan bo'laklar bir xil sintaktik vazifa bajarib, bir xil so'roqlarga javob bo'lsada, uyushiq bo'lak sanalmaydi. M: Katta, qizil olmalar tovlanib turibdi. Gapdagi katta, qizil so'zlari uyushiq bo'lak emas, chunki katta so'zi hajm tushunchasini, qizil so'zi rang-tus tushunchasini anglatadi.

2. Uyushiq bo'laklarni shakllantiradigan grammatik vositalar ham bir uyushiq bo'laklarga yoki uyushiq bo'laklarning eng keyingisiga qo'shiladi. So'nggi grammatik vosita oldingi uyushiq bo'laklar uchun ham umumiy bo'ladi. M: Atrofdagi yam-yashil paxta dalalari, kolxoz bog'lari va ekinzorlarda tinchlik hukm suradi.

Grammatik vositalar quyidagi hollarda har bir uyushiq bo'lakda takrorlanib keladi.

a/ tinglovchining diqqati har bir bo'lakka alohida jalb qilinganda: M: Yo'lchi ham Qora Ahmadning basharasiga, qorniga to'qmonday mushtimi bilan to'xtovsiz tushira boshaldi.

b/ uyushiq bo'laklar distant holatda bo'lganda: M: Yigit qizning keliShgan qomatiga, bejiringina yuziga, Sho'x o'ynab turga jon olguvchi ko'zlariga, ataylab mo'ychinoqda terilganday ingichka kamon qoShlariga termilib qolgan edi.

v/ uyushiq bo'laklar yuklamalar bilan takrorlanib qo'llanganda: Endi u ust-boshiga ham, minib yurgan otiga ham, ichadigan ovqatiga ham qaramas edi.

Gapning hamma bo'laklari uyuShib keladi:

a/ ega uyushadi: Yaxna go'sht, barra bodring, pomidor, piyoz, tuz, qalampir, ardoqlab saqlaydigan olma va anor ham dasturxonning ziynati edi.

b/ kesim uyushadi: Yodgor ham qul edi, ham oshiq.

v/ aniqlovchi uyushadi: xullas, tabiat go'zal, yoqimli, issiq kunlarda habar berar edi.

g/ to'ldiruvchi uyushadi: Saodat yoshligidan o'z qishlog'ini, o'z opasini, jonajon singlisini juda sog'indi.

d/ hollar uyushib keladi: Ona bechora kun sayin, soat sayin so'lib borardi.

3. Uyushiq bo'laklarda ifodalanuvchi tushunchalarni bir guruhga birlaShtiruvchi, bir umumiy nom bilan atovchi bo'lak umumlashtiruvchi so'z deyiladi.

Umumlashtiruvchi so'z odatda jins tuShunchasini uyushiq bo'laklar esa tur tuShunchasini ifodalaydi. M: Elmurodning do'stlari – Ergash, Jo'ra, Omonboy ham ta'tildan qaytiShdi.

UmumlaShtiruvchi so'z uyushiq bo'laklardan ham, keyin ham keladi.

a/ Oldin: Biz institut hovlisida ishladik – yer chopdik, ko'chat ekdik, supurib sidirdik.

b/ Keyin: Tog'da ham, pastda ham, qishloqda ham, dalada ham, hamma yerda fidokorona mehnatni tantana qilardi.

ESLATMA: Umumlashtiruvchi so'z oldin kelganda undan keyin, keyin kelganda esa undan oldin tire qo'yiladi.

Ba'zan, bir gapda ikkita umumlashtiruvchi so'z ham qo'llanishi mumkin, bunda umumlashtiruvchi so'zlardan biri uyushiq bo'laklardan oldin, ikkinchisi keyin keladi. Kolxozdagi bu yilgi ishlar – g'ozu parvarishi, yangi uchastkani o'zlashtirib paxta ekish, uy-joy binolari, gidrostantsiya qurilishi – bularning hammasi o'tgan yildagi ishlarga qaraganda uch hissa ortiq mehnat talab qiladi.

4. Ganing uyushiq bo'laklari o'zaro intonatsiya va teng bog'lovchi vositasida bog'lanadi.

Teng bog'lovchilar o'z grammatik munosabatlariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi va uyushiq bo'laklarni bog'lash uchun xizmat qiladi:

a/ biriktiruvchi bog'lovchilar: /va, hamda, bilan/ Juda ko'p yigitlar va qizlar paraShut sportiga qiziqib, sportning Shu turi bilan shug'ullanmoqdalar.

b/ zidlovchi bog'lovchilar: / ammo, lekin, biroq/. Eshikdan hassa tayangan, oppoq soqolli, ammo ko'rinishi tetik bir chol kirib keldi.

v/ ayiruv bog'lovchilar: /yo, yoxud, ba'zan, yoki, goh-goh, dam-dam/ Quyosh dam bulut orasiga kirib, dam sekin yarqirab chaqnardi.

g/ inkor bog'lovchisi: /na, ne/

Bu erda na g'urbat, na ofat, na g'am,

Bunda bor; harorat, muhabbat, shafqat.

1. Intonatsion hamda fikran ajratilib gapda ma'lum bir mustaqillikka ega bo'lgan bo'laklar ajratilgan bo'laklar deyiladi.

Ajratilgan bo'laklar nutqda biror bo'lakni ajratib bo'rttirib ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qilib, tinglovchi diqqatini shu bo'lakka jalb qiladi. Bunday bo'laklar

og'zaki nutqda alohida intonatsiya bilan aytilib, muhim stilistik vosita ham hisoblanadilar.

Intonatsiya gap bo'laklarini ajratuvchi grammatik vositadir: ajratilgan bo'laklar oldidan ohang ko'tariladi. Ajratilgan bo'laklar odatda pauza bilan ajratilib, logik urg'u oladilar: Ko'kda, daraxtlar ustida, g'uj-g'uj yulduzlar yonadi. /O./

2. Gap bo'laklarining ajratilishi turli sintaktik holat bilan bog'liq. Bularning eng muhimlari quyidagilar:

1/ Izohlash zaruriyati gap bo'laklarini ajratish uchun sharoit yaratadi: Po'lat hovlida, hovuz bo'yida tollar soyasida, dars tayyorlab o'tirishadi. /SH.R./ Bu holatda gapning har bir bo'lagi ajratilishi mumkin. Izohlanayotgan bo'lak qaysi gap bo'lagi bo'lsa, ajratilgan bo'lak ham o'sha gap bo'lagi bo'ladi.

2/ Inversiya. Bu sifatlovchi va izohlovchilarning ajratilishi uchun imkoniyat yaratadi. G'ulomov yalangbosh, majnuntollar tagida aylanib yurardi. /I.R/ Sobir Rahimov, birinchi o'zbek generali: o'chmas nom qoldirdi.

3/. Gap bo'laklarining yoyiq holda kelishi. Bunda ravishdosh, -dey, -dek affikslari bilan yasalgan ravish o'ziga oid so'zlar bilan kengayib, ajratilgan bo'lak hosil qiladilar: Betobligini bahona qilib, Muzaffarbek tezda uyiga jo'nadi. /L.B./ Traktorchilar, bo'ron bilan o'chakishganday, tun bo'yi yer haydadilar. /SH.R./. Gap bo'laklarining ko'makchilar bilan kelishi ularni ajratish uchun sharoit yaratadi. Bunda konstruktsiya ko'pincha yoyiq holda bo'ladi. Kamsh kapalaklar, odamlarni nomlari bilan atashdan ko'ra, xususiyatlari bilan ta'riflashni afzal ko'radilar. /A.Q./

Uchinchi va to'rtini holat bilan bog'liq bo'lgan ajratilgan bo'laklar yarim predikativlik ifoda qilish bilan ergash gaplarga o'xshab ketadi. Lekin ular to'liq predikativlik ifoda qilmasligi, gap uchun zarur bo'lgan manimal forma-struktura asosi / grammatik markaz/ bo'lmasligibilan ergash gaplardan farq qiladi.

3. BoSh bo'laklarning ajratilishi izohlash zaruriyati bilan bog'liq. Ajratilgan bosh bo'lak o'zidan oldin kelgan ega yoki kesimi izohlaydi.

A. Ajratilgan egalar: Hamma, hatto ko'rgan odamlar ham, klubda yana ko'rishga shoshilar edi. /A.K./Keyinchalik biz, aka-uka ikkovimiz, texnikaga berildik. /P.K./

B. Ajratilgan kesim: Mening tug'ilgan yilim – Shu - bir ming to'qqiz yuz yettinchi yil! Shu yili mening to'g'rimda, mening inson ekanligim haqida qayg'iruvchi odam bor ekanligini eshitdim. /M.G.

4. Ikkinchi darajali bo'laklarning ajratilishi izohlash, inversiya, gap bo'laklarining kengayib kelishi bilan bog'liq.

A. Aniqlovchi ajralishi quyidagicha: Sifatlovchilarning ajratilishi inversiya hodisasi bilan bog'liq: belgi ta'kidlab, bo'rttirib ifoda qilinganda, u o'z sifatlanmishidan keyin keltiriladi:

Hech erimay kuch tukibdi Ko'kan-devkor.

O'ylamabdi shuncha piyoz kinga darkor. /G.G./

Biri aks etadi gullarda.

Biri olim – yoqimli, xushfe'l /X.P./

Qaratuvchining ajratilishi izoh bilan bog'liq: Qaratuvchi o'zidan oldin kelgan qaratuvchini izohlaydi: Nargiz ovozigga bo'shqa gullarning. Qizlarning, ovozlari kelib qo'shildi. /SH.R./

B. Izohlovchilarning ajratilishi inversiya hodisasi bilan bog'liq: kasb, xunar, amal, unvon kabilarni ifoda qiluvchi izohlovchilar o'z izohlanmishidan keyin keltiriladi: Denisov – dehqonlar orasida ko'p yurgan sobiq irregator –sodda, odamshavanda, lekin talabchan, haqiqatchi edi. /O./ Obid Sodiqov, O'zbekiston fanlar akademiyasining akademigi, atoqli o'zbek olimidir.

V. To'ldiruvchilarning ajratilishi quyidagicha: Izoh bilan bog'liq: Bunda vositasiz va vositali to'ldiruvchilar o'zlaridan oldin kelgan Shu tipdagi to'ldiruvchilarni izohlaydi: Xalq mulkining katta parchasini, etti yuz gektar oltin tuproqni, necha yillardan beri qamish, Sho'r bosib yotibdi. /X.G./ Bektemirga sobiq sodiq cho'ponga, komandirning fikri g'oyat yoqdi. /O./

Yoyiq holda kelgan ko'makchili konstruktsiyalar bilan ifodalangan to'ldiruvchilar ajratiladi. Konstruktsiya tarkibida qaraganda, taShqari, ko'ra kabi ko'makchilar keladi: Hozirgi muvaffaqiyatlarimiz, kolxozga yashiringan imkoniyatlarga qaraganda, xamir uchidan patir bo'lib ko'rinadi. / O./ Bu er, ilm,sanhat o'chog'i bo'lishidan tashqari, mamlakatdagi eng go'zal shaharlardan biri edi. /O./

G. Hollarning ajratilishi quyidagicha:

Izoh bilan bog'liq: bunda hol o'zidan oldin kelgan Shu tipdagi holni izohlaydi: Uzoqda,ko'kimtir tuman ichida mudragan tog'lar ustida,siyak yulduzlar ko'zlarini xorg'ingina qisadilar./O./ Ertasi kechqurun, soat ettilarda, Karim Abdullayevich kutilmaganda G'ulomjonning uyiga kirib keldi./S.N./

Yoyiq holda kelgan ko'makchili konstruktsiyalar bilan ifodalangan ko'makchilar bo'ladi: Navoiy, bir ko'lini ko'ksiga qo'ygan holda, boshini kamtar, yengil qimirlatish bilan xalqni tabrigiga samimiy javob berib bordi./O/ Buloqning suvi, podsho va amaldorlar zamonidagi mahlumotlarning ko'laridan oqqan yosh kabi, tinmay tomib turardi./SH.R/ -day,-dek affikslari bilan yasalgan ravishlar bilan ifodalangan hollar kengayib kelib ajratiladi: Qishloqlardan kelayotgan odamlar, keng dengizga quyilayotgan katta daryoday, oltisoy qishloq kengashi oldidagi maydonni to'ldiradi./SH.R./

Ravishdosh bilan ifodalangan hollar o'zlariga oid so'zlar bilan kengayib kelib ajratiladi: Oyoqiz, ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib, hurmat bilan xalqqa tahzim qildi./SH.R./ Elmurod ko'zlarini yerdan olmay, sekin-sekin odimlab boradi. /P.T./ Ekskursantlar, manzilga yetgancha, bir necha joyda dam oldilar.

«GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI VA AJRATILGAN BO'LAKLAR» BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Uyushiq bo'lak deb nimaga aytiladi?
2. Uyushiq bo'laklar qanday holda shakllanadi?
3. Uyushiq bo'laklar qanday ma'no anglatishi shart?
4. Uyushgan egaga misollar keltiring.
5. Uyushgan kesim haqida ma'lumot bering.
6. Uyushgan to'ldiruvchi ajratilgan izoh to'ldiruvchidan qanday farq qiladi?

7. Uyushgan aniqlovchi bilan ajratilgan izoh aniqlovchining o'xShaShlik tomonlari nimada?
8. Uyushgan holni misollar orqali tushuntiring?
9. Umumlashtiruvchi so'z deb nimaga aytiladi?
10. Umumlashtiruvchi so'z ishtirok etgan gaplarda tininSh belgilari qanday ishlatiladi?
11. Ajratilgan bo'laklar deb qanday bo'laklarga aytiladi?
12. Ajratilgan bo'laklar gapda qanday vazifa bajaradi?
13. Izoh tipida ajratilgan bo'laklarga misollar keltiring.
14. Qaysi bo'lak inversiyaga uchraydi?
15. Ajratilgan bo'lakning asosiy xususiyatlari.
16. Ajratilgan egaga tavsif bering.
17. Ajratilgan kesimga misol keltiring.
18. Ajratilgan to'ldiruvchi bilan uyuShgan to'ldiruvchilarni farqi nimada?
19. Ajratilgan aniqlovchini misollar orqali tushuntiring.

TAYANCH ATAMALAR.

1. Uyushgan ega.
2. Uyushgan kesim
3. UyuShgan aniqlovchi.
4. Uyushgan to'ldiruvchi.
5. Uyushgan hol.
6. Umumlashtiruvchi so'z.
7. Ajratilgan bo'lak.
8. Ajratilgan ega.
9. Ajratilgan kesim.
10. Ajratilgan to'ldiruvchi.
11. Ajratilgan aniqlovchi.
12. Ajratilgan hol.

ADABIYOTLAR:

1. M.Asqarova, A.G'ulomov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1987 y.
2. G'.Abdurahmonov va boSh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1979 y.
3. A.Nurmonov va boSh. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T., 1992 y.
4. N.Mahmudov, A.Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi T. , 1993 y.
5. AShurov D. Uyushiq bo'laklarda bog'lovchilarning qo'llaniShiga doir. «O'zbek tili va adabiyoti»jurn. 1960y. 11-son.
6. O'zbek tili grammatikasi II tom Sintaksis. T., 1976.
7. O'rinboev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Samarqand. 2001.
8. Qurbonova M. va boshqalar. O'zbek tilining struktural sintaksisi. ToShkent.2004.
9. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent. 1996.
10. Abdurahmonov A. Ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar. T.1960.
11. Ashurov D. Ubaeva F. Boltaboeva X. Gapning uyushgan va ajratilgan bo'laklari. ToShkent 1962.

9-MAVZU

KIRISH KONSTRUKTSIYALAR. UNDALMA.

REJA:

1. Kirish konstruktsiyalar haqida tuShuncha.
2. Kirish konstruktsiyalarining strukturaviy tiplari : kirish bo'lak, kirish birikma, kirish gap.
3. Kirish konstruktsiyalarining ma'nolari .
4. Kirish konstruktsiyalarining o'rni.
5. Undalma.
6. Undalmalarda tinish belgilari.

Kirish konstruktsiyalar so'zlovchining gapning ayrim bo'laklari yoki butun ifodaga bo'lgan sub'ektiv munosabatini, emotsional tuyg'ularini ifodalaydi: Albatta, buyuk kaShfiyotlar osonlikcha tug'ilmaydi. /J.A./ Yolqin akang bundan ham kattaroq bir unvonni ko'zlayapti, chamasi. /P.Q./

Kirish vazifasida so'z turkumidan ajralib chiqib, faqat kiriSh vazifasida iShlatiladigan so'zlar (masalan, Shekilli, albatta, demak, modomiki kabilar/, ma'lum so'z turkumidan ajralib chiqmagan, kirish vazifasida ham qo'llanuvchi so'zlar / qisqasi , rost, aftidan, oxiri kabilar/ keladi.

2. Kirish konstruktsiyalar strukturasi ko'ra 3 xil: kirish bo'laklar, kirish birikmalar, kirish gaplar.

KIRISH BO'LAKLAR. Bular bir so'zdan iborat bo'lib, ma'lum so'z turkumi bilan bog'lanadilar. Shunga ko'ra, kirish bo'laklar quyidagi tiplarga bo'linadi:

A. Ot tipidagi kirish bo'laklar: chamasi, taajub, modomiki, odatda, oxiri, nazaringda, baxtimizga, baxtga qarshi, so'ziga ko'ra kabilar.

B. Olmosh tipidagi kirish bo'laklar: menimcha, senincha, uningcha kabilar.

V. Sifat tipidagi kirish bo'laklar: so'zsiz, to'g'ri, durust, tabiiy kabilar.

G. Son tipidagi kirish bo'laklar: birinchidan, ikkinchidan kabilar.

D. Ravish tipidagi kirish bo'laklar: dastlab, oxir, nihoyat, asosan, aksincha kabilar.

E. Fe'l tipidagi kirish bo'laklar: Kechirasiz, bundan chiqdiki, anglashiladiki, deyman, kabilar.

KIRISH BIRIKMALAR. Bular birikma holida bo'lib, ularning strukturasi quyidagicha:

A. Qaratuvchili kiriSh birikmalar: uning fikricha, buning ustiga, sening nazaringda kabilar.

B. Sifatlovchili kiriSh birikmalar: bir tomondan, shu jumladan kabilar

V. To'ldiruvchili kirish birikmalar: Menga desa, qisqasini aytsam, to'g'risini aytganda kabilar.

G. Holli kirish birikmalar: Qisqacha aytganda, boshqacha aytganda, ochiq gapirganda kabilar.

D. Aniqllovchi va to'ldiruvchili kirish birikmalar: uning so'ziga qaraganda, sening gapingga qaraganda kabilar.

E. Aniqllovchi va holli kiriSh birikmalar: uning ochiq aytiShicha, uning ochiq gapiriShicha.

J. Aniqlovchi, hol va to'ldiruvchili kirish birikmalar: uning ochiq gapirishiga qaraganda.

KIRISH GAPLAR. Bular gap shaklida bo'ladi: Yolg'iz borishga, to'g'risini aytсам, qo'rqaman. /O./ Ibrohimov, Qurbon ota aytmoqchi, gullarni o'z ilmidan bahramand qildi. /A.Q./

3. Kirish konstruksiyalar quyidagilarni ifodalaydi:

1/ So'zlovchining aytilayotgan fikrga bo'lgan munosabatni bildiradi. Bunga albatta, ehtimol, balki, shubhasiz, haqiqatdan, darhaqiqat, baxtimizga, afsus, chamasi, Shekilli, toleimizga, koshki, baxtga qarshi, muqarrar, ajab, to'g'risini aytganda, ochiq aytganda kabilar kiradi. Bular quyidagi ma'nolarni anglatadi:

A. Ishonch yoki tasdig'ni /albatta, shubhasiz, so'zsiz, haqiqatdan, darhaqiqat, muqarrar kabilar /: Haqiqatdan, bu yil mashinada sakkiz yuz ellik tonna terishga va'da berganmiz. /P.K./ Darhaqiqat, bugungi sayl umrbod esda qoladigan bo'ldi. /J.A./

B. Gumon /ehtimol, balki, chamasi, shekilli, aftidan /: Ehtimol, oramizdan eski qadrdonlar chiqib qolar.

V. Shodlik, mamnunlik / baxtimizga, xayriyat, shukur/: Baxtimizga, o'rtoq Davronov uchrab qolib, bizni bu yerga ergashtirib keldi. /P.T./

G. Afsus, achinish, taajubni/afsus, essiz, nahotki, baxtga qarshi, ajabki/: Afsuski, hikoya oxirida Pavelning o'sha yili o'lganini aytib o'tmog'imiz lozim. / N.Ostrovskiy/Eh, attang, shuncha mehnat qilsang- u, mehnating ko'kka sovirilsa. /SH.R./

D. Orzu-umidni/ Shoyad, koshkiydi /: koshki, akasi Yo'lchi bo'lsa edi. /O./

2/ Aytilayotgan fikrning kimga qarashli ekanligini ifodalaydi. Bunga menimcha, fikrimcha, aytishlaricha, ma'lum bo'lishicha, uning so'ziga qaraganda, uning qayd qilishicha, seningcha, nazarimda, sening gapingga qaraganda kabilar kiradi: Ernazar akaning aytishicha, bu yil saraton juda issiq boshlandi. /I.R./

3/Aytilayotgan fikrning tartibini ifodalaydi. Bunga birinchidan, ikkinchidan, avvalo, nihoyat, oxiri kabilar kiradi: Nihoyat, go'zal kunlarning birida zabardast odam bilan qudratli mashina cho'ning o'rtasida uchrashdi. /S.N./

4. Aytilayotgan fikrning oldingi fikr bilan aloqasini ifodalaydi. Bunga demak, xullas, xulosa qilib aytganda, anlashiladiki, Shunday qilib, baribir, binobarin, ko'rinadiki, ochiq qilib aytganda, qisqasi, bir so'z bilan aytganda kabilar kiradi. Xullas, qo'shiq, yana avjga mindi. Shunday qilib, tarixiy shartnomaga qo'yiladi. Baribir, suv ham, gaz ham o'sha hammaga, uylarga bitta-bitta trassadan boradi.

5/ Aytilayotgan fikrning odatda ro'y beruvchi hodisa ekanligini ifodalaydi. Bunga odatda, odat bo'yicha, odatga ko'ra kabilar kiradi: Odat bo'yicha, shovqin solish, atrofdagilarni bezovta qilish, asabiga tegish man qilinadi.

6/Kirish konstruksiyalar gap boshida, o'rtasida, oxirida keladi. Bu ularning ma'no va funksiyasiga bog'liq.

Kirish konstruksiyalarining ba'zilar / demak, haqiqatdan, darhaqiqat, baxtimizga, to'g'ri kabilar/ ko'proq gap boshida, ba'zilar /Shekilli/ gap oxirida, ko'pchiligi esa gap o'rtasida keladi.

Kirish konstruksiyalar gapda ba'zan birdan ortiq keliShi ham mumkin: Shunday qilib, Mahmud, sening fikringcha, xalifaning XorazmShohga alohida

iltifot qilib qoliShi zamirida biror g'araz yo'qmi? – savol berdi Beruniy. /» Abu Ali Ibn Sino qissasi»./

KIRITMA KONSTRUKTSIYALAR Kiritma konstruktsiyalar gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumotlar beradi. Bular gap tarkibiga nutq protsesida kiritilib, gap bilan logik - semantik jihatdan munosabatga kirishadilar.

Kiritma konstruktsiyalar intonatsion jihatdan mustaqillikka ega bo'ladilar. Ular biror so'roqqa javob bo'lmaydilar, sintaktik vazifa bajarmaydilar, gap bo'lg'i yoki qo'shma gaplarning komponenti bo'lib hisoblanmaydilar.

Kiritma konstruktsiyalar tushinilishi qiyin yoki tushunilmaydigan so'zlar/dialektalizm, professionalizm, termin, jargonizm, arxaizm, istorizm kabilar /ma'nosini, ayrim leksik birikmalarning talaffuzi va etimologiyasini izohlash, so'zlovchining sub'yektiv –emotsional munosabatini ifodalash, xabar manbaini ko'rsatish, qo'shimcha ma'lumotlar berish uchun xizmat qiladi: Boshidagi qalampir nusxa qora do'ppisi ham / na chust nusxaga o'xshaydi, na marg'ilon nushaga / yangi./ H.G'./

2. Kiritma konstruktsiyalar, strukturasi ko'ra, uch tipga bo'linadilar: kiritma bo'lak, kiritma birikmalar, kiritma gaplar.

Kiritma bo'lak ayrim so'z shaklida bo'ladi: Go'dakligidan She'r yod ola bo'lgan AliSher ajoyib natijaga erishdi. Ellik ming bayt /yuz ming satr/ She'r yod oldi. /L.Sulton/

Kiritma birikmalar so'z birikmasi shaklida bo'ladi: u / safardan qaytgan kiShi /... juda mayda odatiy voqealarni ham qoldirmay so'zlar edi. /G.G./

Kiritma gaplar gap shaklida bo'ladilar: Shu payt dumi kalta chavkar ot mingga qora soqolli kesksa bir bek/ yuzi ayollarniki singari tuksiz bo'lganligidan, jangimlar o'zaro uni ko'sa deb ataShardi. Xusayn yoniga yugurib keldi. /L.B./

3. Kiritma konstruktsiyalar ko'pincha gap ichida, ba'zan gap oxirida keladilar, gap boshida kelmaydilar.

Kiritma konstruktsiyalar gapning barcha tiplari tarkibidan kelishi mumkin. Ba'zan bir gap /ko'proq murakkablashgan gaplar/ tarkibida bir necha bo'lishi mumkin: Mehmonxonaga joylaShib, soqol – mo'ylovlvrini olib/ Ochil Sho'x harakat bilan siladi/, keyin agigator sifatida / u ko'kragini kerdi / salobat bilan kirib bordim. /P.K./

UNDALMA

So'zlovchining nutqi qaratilgan Shaxs yoki predmetni ifoda qiluvchi mustaqil so'z yoki so'z birikmasi undalma deyiladi.

Undalma gapning umumiy mazmuni bilan bog'liq bo'lib, gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydi.

Undalma bosh kelishik formasida keladi. Bu jihatdan u egaga o'xshaydi. Lekin undalma undosh intonatsiyasi, pauza bilan ajratilishiga ko'ra hamda kesim bilan bog'lanmasligi jihatdan egadan farq qiladi.

Undalma ko'proq so'zlovchi nutqi qaratilgan Shaxsni ifoda qiladi: Kechir meni, Oyqiz, ishga ko'milibketdim. /SH.R./

Nutqdan baʼzan jonli va jonsiz predmetlarining nomlari ham undalma vazifasida keladi: Men sizlarga aytsam-chi, chiroqlarim, yoshim shunchaga etib, bunaqa katta selni koʻrmaganman. /X.N./

Qushlar qushlar hoy quShlar, qanot qoqib kelinglar. /Z.D./

2. Undalmalar leksik – semantik jihatdan quyidagilarni ifoda qiladi:

A. Konkret ism va familiyani ifoda qiladi: Men ham oʻshanda sizni ovora qilgan edim-ku, Roziya! /P.K./

B. Kasb-hunarni, mashgʻulotni ifoda qiladi:

Er, suv endi, dehqon sizniki

QuyoSh ungan zamon seniki! /O./

Qilichingiz sindi, qalqoningiz teShildi, domla, sichqon boʻlib kavakka kirib ketayotibsiz. /A.Q./

V. Mansab-amalni ifoda qiladi: Toʻqay masalasini jiddiy oʻylashimiz kerak, rais! /X.G./

G. Unvonni ifoda qiladi: Oʻrtoq kapitan, topshiriq muvaffaqiyatli bajariladi.

D. Qarindoshlik, yaqinlik, doʻstlikni ifoda qiladi: Azonda toʻqayda nima qilib yurgan edingiz, xola? /S.A./Bexuda yonma, uka, bir akil top. /O./ Xotirjam boʻling, otajaon, maqsadingizga etasiz. /X.G./

E. Holat, xususiyatni ifoda qiladi: Bilamiz, qahramon, sizni hamma hurmat qiladi. Kechirasiz yigit, sizga boshqa ish berishar. /P.K./

J. Obʻyektiv bahonati ifoda qiladi. Bilasanmi jonginam, bir kattakon elektrotstantsiya faqat Shu inshoot uchun tok yetkazib beradi. /J.A./

2. Turli jonli va jonsiz predmetlarni ifoda qiladi:

Kelinglar goʻzal gullar,

Kelsang, oshiq bulbullar.

Shu sevgini kuylalik.

Orom olsin koʻngillar. /SH.R./

1. Undalmalar quyidagi soʻz turkumlari bilan ifodalanadi:

A. Ot bilan: Bilasanmi, Ikrom, koʻklam shabadasi yurib qoldi. /S./

B. Otlashgani sifat bilan: Tilingni tiy, uyatsiz! /SH.R./HoʻSh, yaxshilar, nima qilmoq darkor? / «Abu Ali Ibn Sino qissasi»/.

V.Otlashgan sonlar bilan: beshinchilar, davlat imtixonlariga puxta tayyorlaningiz!

G. Otlashgan sifatdoshlar bilan: Ey sportda gʻolib chiqqanlar, sizlarga shon-sharaflar boʻlsin!

D. Undov bilan: Hoy, seni kutib turiShibdi.

E. Frazelogizm bilan: Xayr, oʻgʻlim, oq yoʻl boʻlsin, xayr, koʻzim qorasi! /X.O./

J. Bir butun holda qoʻllanilgan bogʻlamalar bilan:

2. Undalma tarkibi quyidagicha:

A. Yolgʻiz bir soʻzdan iborat boʻladi: Toʻkilgandan tomchilagan yomon, uka, tomchilagan yomon./A.Q./

B. Undalma undov soʻzlar bilan keladi. Xoy qizim, vazifani bajardingmi?

V. Undalma izohlovchi bilan keladi. Toʻgʻri, oʻrtoq Rahimjon aka, mih ham egilsa, toʻrgʻilab yana qoqiladi./A.Q./

G. Undalma aniqlovchi bilan keladi: Yo'ling oydin, olganing oltin bo'lsin, aziz o'g'lim./X.G./

Ba'zan undalma aniqlovchilar uyushgan bo'lishi ham mumkin: Ey vujudi qayg'u- alamdan iborat bo'lgan peshonasiga azaldan sevgi yozib qo'yilgan yigit, sen bizga ravshanlik keltirding. / «Farhod va Shirin»/

D. Ba'zan so'zlovchining nutqi qaratilgan ob'ekt turlicha nomlanishi mumkin. Bu vaqtda undalma ob'ektning turli xususiyatlarini ifodalovchi so'zlardan bo'ladi: Qadrlil o'rtoqlar va do'stlar! Sportchining ommaviyligi uchun kurashaylik!

E. Undalmalar uyuShib kelishi mumkin: Hasan, Aziz, Ibrohim, yuklarni darhol tushuringlar. / Abu Ali Ibn Sino qissasi»/

J. Undalmalar ba'zan takrorlanib keladi: Dala – chi, dala, bugun biz bog'chada poezd-poezd o'ynadik. /S.Z./

5. Undalmalar gapning boShida, o'rtasida, oxirida keladi. bu uning suemantik funksiyasi, stilistik xususiyati gap strukturasi va mazmuniga bog'liq.

A. Tinglovchining diqqatini jalb qiliSh uchun xizmat qiluvchi undalmalar. Undov so'zli undalmalr, odatda, gap boshida keladi: Yormat, bu erda so'zni chuvaltirma. /O./

Turli chaqiriq, shior, daklad, buyruqlarida ham undalma gap boshida keladi: Yigit va qizlar, fan asoslarini chuqurroq egallangiz.

B. Undalma gap oxirida keladi. bu vaqtda so'zlovchi uchun nutq qaratgan Shaxs emas, tinglovchiga tegiShli bo'lgan fikr muhim bo'ladi: Suhbatingizdan nihoyatda mamnunman, ustoz. /S.Abd./

Bo'laklarga ajratilmagan gaplarda undalma odatda gap oxirida keladi: Guloyim- Salom, dada. Otasi-Salom qizim. /X.O./

V. Undalma gap orasida keladi. Bu vaqtda tinglovchiga tegiShli bo'lgan fikr aytilib, unga murojaat qilinadi. Keyin fikr yana davom ettiriladi. Bunday undalmalar, odatda logik, urg'u olmaydi: Siz baxtlisiz. Olimjon aka, siz xalq uchun ko'p xizmat qildingiz.

6. Undalmalarda intonatsiya, gap xarakteriga ko'ra, turlicha bo'ladi: darak gaplarda past ohang bilan aytiladi: so'roq gaplarda alohida urg'u olgan undalmadan keyin cho'ziq pauza bo'ladi: buyruq gaplarda gap mazmuniga qarab, past hamda kuchliroq ohang bilan aytiladi.

«KIRISH KONSTRUKTSIYALAR VA UNDALMA» MAVZUSI BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI.

1. Kirishlar deb qanday bo'laklarga aytiladi?
2. Kirishlar necha turlarga bo'linadi?
3. Kirish birikmani tushuntiring.
4. Kirish gapning asosiy xususiyatlari.
5. Kirish konstruktsiyalar va kirishma konstruktsiyalar qaysi belgilarga ko'ra farq qiladi?
6. Kirishlar qaysi jihatlari bilan gap bo'laklariga bog'lanmaydi?
7. Kiritmalar deganda qanday konstruktsiyalar tushuniladi?
8. Undalma nima?
9. Undalmaning ifodalanishi?
10. Undalmaning mazmuniy paradigmasi.

11. Undalmalarda tinish belgilari.

TAYANCH ATAMALAR.

1. Kirish konstruksiya.
2. Kirish bo'lak.
3. Kirish birikma.
4. KiriSh gap.
5. Kiritma konstruktsiya.
6. Undalma.
7. Yoyiq undalma.
8. Yig'iq undalma.

ADABIYOTLAR.

1. Ashurova D., Ubaeva F. Boltaboeva X. «Gapning uyuShgan va ajralgan bo'laklari», «O'zbekiston fanlar akademiyasi naShriyoti», T.
2. Saydullayev A. Hozirgi o'zbek tilida kiriSh bo'lak. T. 1972.
3. O'rinboyev B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Samarqand. 2001.
4. Qurbonova M. va boshqalar. O'zbek tilining struktural sintaksisi. ToShkent.2004.
5. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent. 1996.

ONA TILI

(sintaksis)

Amaliy mashg'ulotlar uchun
dars ishlanmalari
(3-kurslar uchun)

1. Amaliy mashg'ulot mavzusi: So'z birikmasi tahlili

Reja:

1. "Sintaksisga kirish" va "So'z birikmasi tasnifi, uning tasnifi" mavzulari bo'yicha nazorat savollari.
2. So'z birikmasi tahlili bo'yicha mashqlar.
3. Keyingi amaliy mashg'ulot topshiriqlari: mavzuga doir 3 varyantli testlarni ishlash.

1-mavzu bo'yicha nazorat savollari:

20. «Sintaksis» atamasining ma'osini izohlab bering.
21. Sintaksis kursining vazifalari nimalardan iborat?
22. Sintaksisning boshqa til bo'limlari bilan aloqasi.
23. Sintaktik birliklar qaysilar?
24. Sintaktik munosabat deganda nimani tushunasiz?
25. «Sintaktik konstruktsiya» atamasini izohlang.
26. Sintaktik qurilish va ularning ko'rinishlari.
27. Sintaktik aloqa haqida gapiring.
28. Sintaktik vositalarga nimalar kiradi?
29. Sintaktik stilistika nimani o'rganadi?
30. Gapda so'zlar qanday usullar bilan bog'lanadi?
31. Teng aloqa deb nimaga aytiladi?
32. Tobe aloqa qanday yuzaga chiqadi?
33. So'zlar o'zaro qanday vositalar yordamida bog'lanadi?
34. So'zlar o'rtasidagi mantiqiy munosabat turlarini sanab bering?
35. Boshqaruv aloqasi qanday reallashadi?
36. Moslashuv aloqasining xususiyatlari nimada?
37. Boshqaruv va moslashuv belgisiz holda qo'llanishi mumkinmi?
38. Bitishuv aloqasi haqida tushuncha bering.

So'z birikmalari bo'yicha mashqlar.

1-mashq. Berilgan birikuvlardan so'z birikmalarini topib, tahlil qiling:

Muzeyga bormoq, shunday o'lka, shivir-shivir gap, po'latdan mustahkam, kelajakni o'ylagan, ko'p odam, otadan ulug', opasi Bilan ko'rishmoq, yashil o'rmon, o'ylab gapirmoq, ko'ngli keng, bolalar haqida g'amxo'rlik, mevalar pishdi, olma terish, gapirishga oson, chiroyli gulni sevmov, tol va terak, hurmat bilan yondashuv, goh sayraydi, goh tinadi, san'atga hurmat, hammaga birday, sabzi bilan piyoz, qalam bilan yozdi, birga ishlamoq, mahallaning qariyalari, tabiat inkor etmaydi, shaxsiy ibrat, mehnatiga yarasha, yosh-u qari, baxtli qiz, ko'zi tushdi, qo'qqisdan kirib keldi, eshitdi, ammo kelmadi, mening kelajagim, havo bulut, quduq qazdi, qisqa engli guldor shifon ko'ylak, po'stiga samon tiqmoq, ifodali o'qigan.

2-mashq. Berilgan birikuvlardagi sintaktik munosabat turlarini attributiv, ob'yektli, relativ va oppozitiv munosabat ustunlariga ajrating.

Sinf derazasi , maydonni qurshab, pishgan o'riklarni terdi, men keldim, ko'rdi, biroq kelmadi, ovqat pishirdim, ovqat pishirildi, baxtli qiz, tosh yo'l, kitobni o'qib, oq ko'ngil, to'satdan kirib keldi, tuya Bilan bo'taloq, adabini bermoq, yoshlar kelajagi, mazmunli gapirgan, sekin-sekin o'rgandi, tinch uyqu, semira boshladi, o'tirganlarning hech biri, barkamollikka erishgan, Janubiy Afrika, taklifiga ko'ra, ishonchli do'st, oq kabutar, qizargan olma, do'stona munosabat, o'zbekcha nutq, devorni buzmoq, do'stimning maktubi, chumchuqlarning chug'ur-chug'uri, zavq bilan o'qimoq, sharoitga ko'ra yondashmoq, gazeta va maqola, ko'zini yog' bosgan, ...

3-mashq. Berilgan gaplardagi sodda so'z birikmalarining sonini aniqlang; fe'lli,

otli va ravishli birikmalarga ajrating.

1. O'z Vatanini sevgan kishi shu Vatanning ravnaqi uchun kurashadi.
2. Kechqurunlari buvimdan oy yorug'ida turli rivoyatlar tinglardim.
3. Darveshalining zindonda yotishi Alisherning yuragida dushmanlik olovini to'ldiradi.
4. Bu masalani tezda yechish kerak.
5. Badanni junjituvchi sovuq shamol izg'ib qoldi.
6. Sayohatchilar daraning pillapoya kabi yotiqroq yerlaridan yuqoriga intildilar.
7. Zargarov sahrodagi ishlarning miqyosini yaxshi tasvirlab berdi.

1-mavzu bo'yicha topshiriqlar. Berilgan test variantlarini yechish va to'g'ri

javoblarni izohlash.

I variant

1. Sintaksisda nima *õrganiladi*?
A) *sõz turkumlari* B) *tinish belgilari*
C) *sõz birikmalari, gap bõlaklari va uning turlari*
D) *tovushlar*
2. Tilning asosiy ijtimoiy vazifasi qaysi qatorda *tõgri kõrsatilgan*? □
A) *fikrni shakllantirish* B) *fikrni ifodalash*
C) *odamlar orasida fikr almashuv vositasi bõlishi* D) *A, B, C*
3. *Sõzlarni õzaro biriktirish, gap hosil qilish, gaplarning qurilish xususiyatlarini õrganish bilan tilshunoslikning qaysi bõlimi shug'ullanadi*?
A) *fonetika* B) *morfologiya* C) *sintaksis* D) *leksikologiya*
4. *Tilimiz õzining tovushlar, iboralar va qõshimchalardagi imkoniyatlarini qaysi bõlimda namoyon qiladi*?
A) *fonetikada* B) *morfologiyada* C) *leksikologiyada* D) *sintaksisda*
5. *Qaysi qatordagi atama (termin)lar grammatikaning sintaksis qismiga tegishli*?
A) *taqlid sõz, jamlovchi otlar, nisbat yasovchi qõshimcha*
B) *paronimlar, qõshma gap, rasmiy uslub*
C) *aralash qõshma gaplar, omonimlar, sifat*
D) *bog'lama, sõz birikmasi, kirish sõz*

6. *Quyidagi atamalarning qaysi biri sintaksisga tegishli?*
 A) orttirma nisbat C) taqlid sōz B) modal sōz D) hokim sōz
7. *Sōz birikmalarida hokim (bosh) sōz boshqa sōzlar bilan qanday yōl orqali bog‘lanadi?*
 A) faqat teng bog‘lanishi mumkin
 B) teng va tobe bog‘lanishi mumkin
 C) faqat tobe bog‘lanishi mumkin
 D) sanash ohangi, kōmakchilar, bog‘lovchilar va bog‘lovchi va zifasida qōllanuvchi sōzlar orqali bog‘lanishi mumkin
8. *Tobe bog‘langan sōzlarda qanday sōz hokim sōz sanaladi?*
 A) kelishik qōshimchasini olgan sōz B) kōmakchidan oldin kelgan sōz
 C) ma‘nosi izohlanayotgan sōz
 D) ōzi bog‘lanib kelgan sōz ma‘nosini izohlaydigan sōz
9. *Tobe sōz bilan hokim sōzning birikish usullari kōrsatilgan qatorni aniqlang*
 A) teng bog‘lanish va tobe bog‘lanish B) moslashuv, boshqaruv, bitishuv
 C) tobe sōz va hokim sōz D) hokim sōz bilan tobe sōzning mosligi
10. *Sōzlar ōzaro teng bog‘langanda, qanday vositalar orqali bog‘lanishi mumkin?*
 A) ohang va teng bog‘lovchilar, teng bog‘lovchilar vazifasidagi yordamchilar bilan
 B) barcha bog‘lovchilar bilan C) faqat teng bog‘lovchilar bilan
 D) teng bog‘lovchilar va teng bog‘lovchi vazifasidagi kōmakchi va yuklamalar bilan
11. *Tobe sōzni hokim sōzga bog‘lovchi quyidagi vositalardan qaysilari ayrim hollarda ifodalanmasligi mumkin?*
 A) tushum kelishigi qōshimchasi B) qaratqich kelishigi
 C) egalik qōshimchasi D) A, B va C
12. *Hokim sōz olmosh sōz bilan ifodalangan otli birikmani toping*
 A) hammadan kuchli B) farovon hayot C) kitob
 D) Nargizaning ōzi
13. *Hokim sōz sifatdosh bilan ifodalangan sōz birikmasini aniqlang*
 A) vazifani bajarib B) kelajakka umid C) birga
 D) muzeyga bormoq
14. *Qaysi qatorda hokim sōz sifat bilan ifodalangan?*
 A) shunday ōlka B) halol ishlamoq C) a‘lochilardan

beshtasi

D) voqeadan xabardor

15. Ravishdosh hokim sōz bōlib kelgan qatorni belgilang

A) shivir-shivir gap

B) pōlatdan mustahkam

C) kelajakni

ōylagan

D) oz-ozdan ōrganib

16. Tobe sōz bilan hokim sōzning kōmakchi yordamida birikishi qaysi qatorda berilgan?

A) fabrikada ishlamoq

C) ōqish orzusi

B) dōstlari bilan kengashmoq

D) havodagi qushlar

17. Sōz birikmasidagi moslashuv qaysi qatorda berilgan?

A) derazani ochmoq

B) moviy osmon

C) ilmda

ōtkir

D) uzukning kōzi

18. Boshqaruv yōli bilan hosil bōlgan sōz birikmasini kōrsating

A) opasi bilan kōrishmoq

B) yashil ōrmon

C) navbatchining

vazifasi

D) zimdan kuzatmoq

19. Bitishuv yōli bilan hosil bōlgan sōz birikmasini aniqlang

A) bolalar haqida g'amxōrlik

B) maktab hovlisi

C) ōylab

gapirmoq

D) gapirishga oson

20. Qaysi qatordagi tobe sōz bilan hokim sōzning tartibi ōzgartirilsa, gap hosil bōladi?

A) maqola ōqimoq

B) kōm-kōk ōtloq

C) yura-yura

charchamoq

D) suvga tōldirmoq

21. Otli sōz birikmasini toping

A) og'zi qulog'ida

B) havorang

C) vazifani

bajargan

D) ōquvchilarning har qaysisi

22. Hokim sōz ravishdosh bilan ifodalangan fe'lli birikmani toping

A) gulni sevmoq

B) senga kōp

C) hurmat bilan

yondashish

D) kelajakni ōylab

23. Hokim sōz fe'lining sifatdosh shakli bilan ifodalangan sōz birikmasini toping

A) ōqigan bola

B) oldinga yurib

C)

guldan nozik

D) mehnatda sinalgan

24. Boshqaruv yōli bilan birikkan sōz birikmasini toping

A) kitob ōqish

B) tezda kelmoq

C) mahallaning

qariyalari

D) birga ishlamoq

II variant

1. Gap qaysi qatorda berilgan?
A) qop-qora kōzlar B) atrof kōm-kōk C) katta umid D) achchiq piyoz
2. Boshqaruv yōli bilan birikkan sōz birikmasini aniqlang.
A) tog ' balandligi B) kitoblarni taxlamoq
C) B va D D) tesha bilan maydalamoq
3. Qaysi qatordagi boshqaruv aloqasida grammatik vosita qatnashmagan?
A) kutubxonaga bormoq B) qōshiq haqida suhbatlashmoq
C) bug 'doy ōrmoq D) anhor tomon yurmoq
4. Tobe sōz hokim sōzga kōmakchi yordamida birikkan qatorni aniqlang.
A) havoning sofligi B) qulog 'iga shivirlamoq
C) pastlikka tushib ketmoq D) qōli bilan g 'ijimlamoq
5. Moslashuv yōli bilan hosil bōlgan sōz birikmasini toping.
A) B va D B) uning niyati
C) taqdir tōg 'risida gapirmoq D) mening kelajagim
6. Moslashuvda tobe (ergash) sōzining qaratqich kelishik qōshimchasiz ishlatilgan holati qaysi qatorda berilgan?
A) B va D B) maktabimiz bolalari C) zōr ishonch D) sinf derazasi
7. Bitishuv yōli bilan birikkan sōz birikmasini aniqlang.
A) bahor oqshomlari B) ip bilan bog 'lamoq
C) shaharga kelish D) xushbōy hidlar
8. "Boshlanganidan darak beradi" sōz birikmasida tobe sōzining hokim sōzga bog 'lanishini tushuntiring.
A) moslashuv B) otli birikma C) fe 'lli birikma D) boshqaruv
9. Sodda sōz birikmasi berilgan qatorni aniqlang.
A) katta tekis yōl B) keksa tajribali ōqituvchi
C) kino haqda gapirmoq D) katta yog 'och qoshiq
10. Bitishuv munosabatidagi birikmalar berilgan qatorni aniqlang
A) kōklam quyoshi, bahor tongi B) maftunkor chehralar, tezda kelmoq
C) ōlkamiz chiroyi, maktab bordi, kōl suv D) xat yozdi, quduq qazdi, sōz sehri
11. Kelishikli boshqaruv qatnashgan gapni aniqlang
A) Mol topguncha, aql top B) Ōquvchilarning tashabbusi bilan ish boshlandi
C) Yigit tezda chiqib olibd D) Xalqim uchun, Vatan uchun jon fido qilaman
12. Ot+fe 'l shaklidagi birikuvlarda asosan qanday vositalardan foydalaniladi?
A) faqat kelishik qōshimchalaridan B) ohangdan va tartibdan
C) faqat kōmakchilardan D) kelishik va kōmakchilardan

13. Sifat+ot shaklidagi birikuvlarda quyidagi vositalarning qaysi biridan foydalaniladi?
1) kelishik qōshimchalaridan, 2) kōmakchilardan, 3) ohangdan, 4) sōz tartibidan.
A) 1, 2 B) 2, 3 C) 3, 4 D) 2, 4
14. "Olmosh+ot" shaklidagi bog 'lanish qaysi yōl bilan amalga oshadi?
A) moslashuv B) bitishuv C) boshqaruv D) A va B
15. Qanday sōz birikmalarida tobe sōz hokim sōzga grammatik vositalarsiz bog 'lanadi?
A) boshqaruvda B) moslashuvda
C) bitishuvda D) boshqaruv va bitishuvda
16. Sōz birikmalarning qaysi birida tobe sōz ayrim hollarda kelishik qōshimchasiz ishlatilishi mumkin?
A) moslashuvda B) boshqaruvda C) bitishuvda D) A, B
17. Sōz birikmasi qōllangan qatorni aniqlang.
A) shifoli suv B) savlat tōkib C) qōl urmoq D) oqimoq va ishlamoq
18. Fe 'lli birikma qaysi qatorda qōllangan?
A) ijobiy natija B) ishtahasini bōg 'moq
C) ertakni tinglab D) A va B
19. Otli birikmani aniqlang.
A) mayda qirqilmoq B) anorning ikkitasi
C) adabini emoq D) B va C
20. Sōzlarni bitishuv yōli bilan bog 'lanishi qaysi qatorda berilgan?
A) g 'alaba uchun kurashmoq B) ketma-ket o'rnashmoq
C) xush kōrmoq D) akasining kitobi
21. Boshqaruv yōli bilan bog 'lanish qaysi qatorda aks etgan?
A) hayotbaxsh modda B) birga ishlamoq
C) qōl bilan termoq D) vasvasaga tushmoq
22. Ushbu gapdagi murakkab sōz birikmasining aniqlang Bir ozdan keyin eshik ochildi-yu, qisqa engli guldor shifon kōylak kiyib olgan Shoira kirib keldi.
A) bir ozdan keyin kirib keldi B) Shoira kirib keldi
C) guldor shifon kōylak D) qisqa yengli guldor shifon kōylak, guldor shifon kōylak
23. Haydar yer ostidan uning yuziga qaradi.
Ushbu gapda tobe bog 'lanishning qaysi yōllari mavjud?
A) belgili va belgisiz moslashuv B) kelishikli boshqaruv C) A va B
D) moslashuv, boshqaruv, bitishuv
24. Bitishuvli sōz birikmasini toping.
A) qiz husni B) ukam uchun olmoq
C) birdan gapirmoq D) ukamga olmoq
25. Grammatik vosita orqali bog 'langan birikmani toping.

A) serhosil dala
D) ertak haqida sōzlamoq

B) ma'noli sōz

C) katta daryo

III variant

1. *Egalik qōshimchasi tushib qolgan holat qaysi qatorda aks etgan?*
 - A) maktab bog 'i, kitob ōqidi, odobli bola
 - B) bizning uy, bizning kōcha, bizning mahalla
 - C) ashula tinglamoq, kuzgi terim, ōtkir bilim
 - D) hovli sahni, mashina ovozi, kino kōrdi
2. *Quyidagi birikmalardan qaysi biri bitishuvli birikuvga mansub emas?*
 - A) devor soat
 - B) vatan ishq
 - C) shunday ōyin
 - D) qiyin ōyin
3. *Sanjar bilan Sherzod bog ' tomon yōl oldilar.*
Ushbu gapdagi atoqli otlar ōzaro qanday yōl bilan bog 'langan?
 - A) tobe bog 'lanish yōli bilan
 - B) teng bog 'lanish yōli bilan
 - C) kōmakchili boshqaruv yōli bilan
 - D) kelishikli boshqaruv yōli bilan
4. *Tobe bog 'lanishning qaysi usuli bilan hosil qilingan birikmalar asosan oti birikma hisoblanadi?*
 - A) boshqaruv
 - B) moslashuv
 - C) bitishuv
 - D) B va C
5. *Bitishuv yōli bilan birikkan sōz birikmalarida tobe sōzni kōrsatuvchi asosiy belgilar qaysilar?*
 - A) grammatik vositalarni olgan sōz tobe sōz
 - B) kōmakchilardan oldin kelgan sōz tobe sōz
 - C) oldin kelgan sōz tobe sōz
 - D) kelishik qōshimchasini olgan sōz tobe sōz
6. *Qaratqich aniqlovchili sōz birikmasi ishtirok etgan gapni aniqlang.*
 - A) Harakat har qanday yoshdagi odam hayotida muhim ahamiyatga ega.
 - B) Mevazor bog 'larni kōpaytirish kerak
 - C) Yōlbars izidan, yigit sōzidan qaytmas.
 - D) Ōquvchilar ōymakorlikni ōrgandilar.
7. *Boshqaruv yōli bilan birikkan sōz birikmalari qatorini aniqlang*
 - A) kichik korxonalar, yakuniy baho
 - B) san 'at bayrami, dugonamning singlisi
 - C) shoir bilan uchrashish, sahroga hujum
 - D) Valining uyi, paxtakorlar yutug 'i
8. *Sifat+ot shaklidagi birikmalarda sōzlarni ōzaro bog 'lovchi vositalar kōrsatilgan*
javobni toping
 - A) kelishiklar
 - B) kōmakchilar
 - C) tartib va intonatsiya
 - D) kelishik va qōshimchalar

(ohang)
9. *"Yolg 'ondan gapirmoq", "tezda qaytmoq" kabi birikmalardagi sōzlar ōzaro qanday*

- yõl bilan bog 'langan?
 A) moslashuv usuli bilan
 B) kõmakchili boshqaruv usuli
 bilan
 C) bitishuv usuli bilan
 D) teng bog 'lanish orqali
10. Tobe sõzlar kõchma ma 'noda qõllangan qatorni aniqlang
 A) Keng kõcha, chiroyli uy, achchiq sovuq
 B) Kumush qoshiq, temir intizom, tilla soat
 C) Kumush qish, qora sovuq, tilla bola
 D) Tikansiz gul, qõli gul, gul õtqazdim
11. Boshqaruvli bog 'lanishda kelishik qõshimchalari va kõmakchilar odatda qaysi sõzlar tarkibida bõladi?
 A) hokim sõz tarkibida
 B) tobe sõz tarkibida
 C) hokim sõz yoki tobe sõz tarkibida
 D) birikma oxiridagi sõz tarkibida
12. Quyidagi grammatik vositalarining qaysi biri sõz birikmasi doirasida qõllanadi?
 1) bog 'lovchilar; 2) kelishik qõshimchalari; 3) egalik qõshimchalari;
 4) shaxs-son qõshimchalari; 5) yuklamalar; 6) kõmakchilar
 A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 2, 3, 6 C) 1, 2, 5, 6 D) 2, 3, 4
13. Sõz birikmasi hosil bõlgach, birikma tarkibidagi sõzlarga xos bõlgan qaysi xususiyat yõqoladi?
 A) leksik ma 'no B) kõp ma 'nolilik C) omonimlik D) B va C
14. Moslashuvli birikmalarida egalik va qaratqich kelishigi qõshimchalari qaysi sõz tarkibida joylashishi mumkin?
 A) kelishik qõshimchasi tobe sõz tarkibida; egalik qõshimchasi hokim sõz tarkibida
 B) kelishik qõshimchasi tobe sõz tarkibida; egalik qõshimchasi ham tobe sõzda,
 ham hokim sõz tarkibida
 C) kelishik qõshimchasi hokim sõz tarkibida; egalik qõshimchasi tobe sõz tarkibida
 D) A va B
15. Sõz qõshilmasini aniqlang.
 A) baland uy B) C va D C) shahar va qishloq D) olma-yu
 õrik
16. Kõmakchilar vositasida hosil qilingan sõz birikmasi tarkibida doim qanday sõzlar mavjud bõladi?
 A) fe 'l turkumiga oid sõz B) ot va ot vazifasidagi sõz
 C) ot yoki sifatga oid sõz D) ot, olmosh va son
17. Tobe bog 'lanishli birikmalarda qanday sõz hokim sõz sanaladi?
 A) kõmakchi bilan kelgan sõz B) kelishik shaklidagi sõz
 C) ma 'nosi izohlanayotgan sõz D) boshqa sõzning ma 'nosini ifodalaydigan sõz

18. Bitishuv munosabatidagi birikmalar berilgan qatorni aniqlang
 olma A) kōklam quyoshi, bahor tongi B) olis yōllar, tez yurdi, qizil
 sehri C) ōlkamiz chiroyi, maktab bordi, kōl suvi D) xat yozdi, quduq qazdi, sōz
19. Bitishuv yōli bilan bog‘langan sōz birikmasi qatnashgan gapni aniqlang
 bōldim A) Zahar solmoq emish kasbi ilonning B) Men uyda qoladigan
 bōldi C) Gulni sevgan tikanni ham sevadi D) Tantanali qism juda qisqa
20. Kelishikli boshqaruv qatnashgan gapni aniqlang
 qilaman A) Yaxshi ōg‘il otga mindirar, yomon ōg‘il otdan indirar
 B) Ōquvchilarning tashabbusi bilan ish boshlandi
 C) Yigit tezda chiqib olibdi D) Xalqim uchun, Vatan uchun jon fido
21. Moslashuv yōli bilan bog‘langan sōz birikmasi berilgan qatorni aniqlang
 A) kuchli shamol B) kitob ōqish C) maktab bog‘i D) jadal yur
22. Boshqaruv yōli bilan bog‘langan sōz birikmalari qatorini aniqlang
 A) Uyga qaytish, olma terish, sayr haqida suhbatlashish
 B) Kōchaning chetida, chelakka solish, Sharifani kōrish
 C) Bog‘ tomonga yurish, kitob ōqish, keng uy
 D) Qarmoq bilan tutish, ōqish tōg‘risida gaplashish, akam topshirig‘i
23. Moslashuv yōli bilan bog‘langan birikmalarda tobe sōz bosh sōzga qanday vositalar yordamida bog‘lanadi?
 yordamida A) kōmakchilar yordamida B) sōz tartibi va tobe ohang
 yordamida C) turli kelishik qōshimchalari yordamida D) qaratqich kelishigi
24. 1. Kōcha katta. 2. Taklif qilmoq. 3. Sotib olmoq. 4. Kulib gapirmoq. 5. Bir tup ōrik.
 bōlgan? 6. Maktab tomon. Yuqoridagi qaysi sōzlar birikuvidan sōz birikmasi hosil
 A) 2, 3, 4, 5 B) 3, 4, 6 C) 3, 4, 5, 6 D) 4, 5
25. Mustaqil sōzlarning bir-birlari bilan bog‘lanishi qaysi qatorda tōg‘ri kōrsatilgan?
 birikma A) boshqaruv, moslashuv, bitishuv B) otli birikma va fe‘lli
 bog‘lanish C) tobe bog‘lanish va tobe bog‘lanish D) teng bog‘lanish va tobe bog‘lanish

2. Amaliy mashg'ulot mavzusi: Gapning turlari. Gapning lisoniy sintaktik qoliplari.

Reja:

1. "Gap va uning tasnifi" mavzusi bo'yicha nazorat savollari.
2. Gap tasnifiga doir va gapning lisoniy sintaktik qoliplari bo'yicha mashqlar.
3. Keyingi amaliy mashg'ulot topshiriqlari: mavzuga doir 2 varyantli testlarni ishlash.

2-mavzu bo'yicha nazorat savollari:

21. Gap deb nimaga aytiladi?
22. Predikativlik nima?
23. Gapning asosiy logik-grammatik belgisi deganda nimalar tushuniladi?
24. Gapning ifoda asosi nima?
25. Gaplar qanday tasnif etiladi?
26. Gapning so'z birikmasidan farqi.
27. Sodda gap xususiyatlari.
28. Gapning tugalangan ohang bilan aytilishini tushuntiring.
29. Gapda fikr nisbiy tugallanishi zarurmi?
30. Gapning ifoda asosiga misollar keltiring.
31. Bir bosh bo'lakli gap deb nimaga aytiladi?
32. Bir bosh bo'lakli gap turlarini sanang.
33. Ega tarkibli gap deganda nimani tushunasiz?
34. Shaxsi topilmas gaplarni tushuntiring.
35. Shaxsi noma'lum gapga misollar keltiring.
36. Shaxsi topilmas va shaxsi noma'lum gaplar qanday farqlanadi?
37. Kesim tarkibiga tushuncha bering.
38. Atov gap haqida nimalarni bilasiz?
39. Shaxsi ma'lum gaplarda shaxs qanday aniqlanadi?
40. Bir bosh bo'lakli gaplarda sinonimiya tushunchasini izohlab bering.

1-mashq. Berilgan gaplarni gap tahlili bo'yicha tahlil qiling.

1. *Uyda mehmon bor. — Mehmon? 2. Onani kim sevmaydi? 3. Kimda bor bunchalik latofat, husn? 4. Menga desa tosh yog'maydimi? 5. Ie, men kimni ko'ryapman? 6. Jamila, tur o'rningdan! 7. Meni ham o'z safiggizga olinglar. 8. YOmon kunga qo'yma, o'rtoqjon, toki yig'ib olayin darmon! 9. O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil. 10. Ko'zingga qara, ahmoq! 11. Issiqda salqinda o'tirib ham ol. 12. Xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtirib, chetellarga o'qishga borsam. 13. Oyim keldi! 14. Nega yig'layapsan?! 15. Qo'lingni ko'tar! 16. Eh, tog' manzarasi naqadar go'zal! 17. Sigirimiz tug'di! 18. Kechagi kino boshlandi. 19. Bog'da gullar ochildi. 20. Anvar keldi, lekin Sobir kelmadi. 21. Kamola kirib keldi. 22. Kamola darvozadan shoshilib kirib keldi.*

2-mashq-topshiriq. Darak, so'roq, buyruq, istak gaplarga va sodda, qo'shma, bir

tarkibli hamda ikki tarkibli gaplarga ikkitadan misol yozing.

2-mavzu bo'yicha topshiriqlar. Berilgan test variantlarini yechish va to'g'ri javoblarni izohlash.

I variant

1. *Sõroq gaplarni hosil qiluvchi vositalar qaysi qatorda kōrsatilgan?*
A) *sõroq olmoshlari bilan* C) *sõroq ohangi yordamida*
B) *gapning mazmuniga qarab* D) *sõroq yuklamalari yordamida*
E) *A, C, D qatordagi vositalar asosida*
2. *Muomala vositasining eng kichik birligi nima?*
A) *sõz* C) *qōshma sõz* E) *gap*
B) *ibora* D) *sõz birikmasi*
3. *Faqat sõroq ohangi yordami bilan hosil bōlgan sõroq gapni belgilang?*
A) *Õtkir Hoshimov asarlarini òqiganmisiz?* B) *Siz-chi?*
C) *Yaxshi qōshiqni kim yoqtirmaydi?* D) *-Soat besh bōldi. -Soat besh bōldi?*
E) *Õquvchilarni qanaqa kitoblar bilan xursand qilmoqchisiz?*
4. *Ritorik sõroq gapni toping*
A) *Farmon bibining uylari shumi?* B) *Siz qayerdan, mehmon?*
C) *Shunday gōzal vatan bormi dunyoda?*
D) *Sen mening gapimga quloq solgin.* E) *Xōsh?*
5. *Buyruq gapning ohang yordami bilan sõroq gapga òtgani qaysi qatorda berilgan?*
A) *Ismingiz?* B) *Opang seni juda yaxshi kōrsa kerak-a?*
C) *Yōl bōlsin?* D) *Sening ukang bultur maktabni bitirgan?*
E) *Siz qanday kitoblar oldingiz?*
6. *Yomon kunga qōyma, òртоqjon,*
Toki yig'ib olayin darmon! *Ushbu gap haqidagi qaysi hukm tōg'ri?*
A) *ritorik sõroq gap* B) *darak gap*
C) *gap oxirida undov qōyilgani uchun bu gap his-hayajon gap hisoblanadi*
D) *buyruq gap* E) *darak va his-hayajon gaplardan tuzilgan qōshma gap*
7. *Hammani maqtaydigan odamga ishonma.*
Ushbu gapda buyruq-istak maylidagi fe'l qanday gapning bosh bōlagi bōlib kelgan?
A) *darak gapning* B) *sõroq gapning* C) *buyruq gapning*
D) *his-hayajon gapning* E) *darak va buyruq gapning*
8. *Dunyoda eng ulug' zot bōlgan onani kim sevmaydi?*
Mazkur gap haqidagi qaysi hukm tōg'ri?
A) *sof sõroq gap* B) *his-hayajon gap*
C) *ritorik sõroq gap* D) *buyruq gap* E) *A, B, C javoblar*
9. *Yashirin inkor mazmunini bildiradigan ritorik sõroq gapni belgilang*
A) *Õzingdan chiqqan baloga qayga borasan davoga?*
B) *Farzandni kim sevmaydi?* C) *Siz Salimovning òg'li emasmisiz?*
D) *Suv dehqonlar uchun durday noyob ekanini kim bilmaydi?*

- E) Odamning hayoti tug‘ilishidan boshlanishini kim bilmaydi?
10. Yashirin tasdiq mazmunini bildiradigan ritorik sōroq gapni toping
- A) Kimda bor bunchalik latofat, husn?
 B) Dehqonning erdan boshqa nima tirikchiligi bor?
 C) Inson qila olmaydigan ish bormi?
 D) Yutuqlarimizni kim inkor qila oladi?
 E) Oftob nurlariga g‘arq bōlib yotgan bu kōrkam, aziz Vatanimizda nimalar yōq?
11. Maslahat mazmunini bildirgan buyruq gapni toping
- A) Maktabga bor ertalab. B) Opa, shu ertak kitobni myenga bering.
 C) Ōg‘lim sog‘-salomat kelsin. D) Yaxshisi, bugun kutubxonaga bor.
- E) Bu sirni birovga ayta kōrma.
12. Taklifni anglatgan buyruq gapni aniqlang.
- A) Seni ish engmasin, sen ishni eng.
 B) Endi oltin balig‘ing kelib, xizmatimni qilsin.
 C) Kōksingizda gōzal niyatlar gullasin, birodar!
 D) Qani, boqqa kiring, dam oling. E) Mashg‘ulotlarga kechikma.
13. Shodlik, xursandchilik ifodalaydigan his-hayajon (undov) gapni aniqlang.
- A) Evoh, esiz umr, esiz qizim! B) Buncha gōng bōlmasa-ya bu kishi!
 C) Uyaling oqni qora degani! D) Mehmonlar kelishayotir, onajon!
 E) Xudo umr bersin kulgiga! Onajon, ōrtog‘im, ōrtog‘im!
14. Hayratlanishni bildiradigan his-hayajon gapni belgilang.
- A) Ikkita zarrin tōn keltir. B) Bu musibatga qanday chidayman!
 C) Buguncha biznikida qoling. D) Ō-ho‘, unaqa-munaqa emas-ku!
 E) Ket mening dargohimdan!
15. Sōroq yuklamali sōroq gapni aniqlang.
- A) - Shaharda qayoqdan ish topasan?
 B) - Umringda tōy kōrmaganmisan? C) - Senga ne bōldi?
 D) - Nega angrayib turibsani? E) Kim kimning onasi bōladi?
16. Buyurish mazmuniga ega bōlgan sōroq gapni toping.
- A) - Husan aka, nega sizni Duma deyishadi?
 B) Shunaqa sōzlarni har kimga ayta berasizmi? C) - Maktab qursa yomonmi?
 D) Nima deyotganini ōzi biladimi oyim? E) Shomurod akamnikiga ketayapsizmi?
17. Qaysi sōroq gap darak mazmunini bildiradi?
- A) - Suv ichmaysizmi? B) - Oqsoqolning aybi nima?
 C) Demak, shunday katta boylikdan voz kechish mumkinmi, axir?
 D) Hamma narsani gap deb gapiraveradimi? E) C va D
- 18.- Senga xizmati kerak bōlmasa, onangning xizmatini qiladi.
 - Faqat onamning -mi ?
 Sōroq gap tarkibida qōllangan -mi . yuklamasi qaysi gap bōlagiga qōshilib kelgan?
- A) kesimga B) tōldiruvchiga C) aniqlovchiga D) holga E) egaga
- 19.- Qiyin, qiyin menga qiyin.
 - Menga-chi?

Sōroq gapni shakllantirgan -chi yuklamasi qaysi bōlak tarkibida qōllangan?

A) ega B) kesim C) aniqlovchi D) tōldiruvchi E) hol

20. Buyruq, maslahat, nasihat tariqasida bōlgan gapni aniqlang.

A) Sochingni chambarak qil!

B) Yaxshisi, boshingga tashvish tushganda bardam bōl.

C) - Kōnglingiz tōq bōlsin, oqsoqol!

D) - Olimjon, chiq bu yoqqa! E) - Shoshma, avval qorningni tōyg□azib

ol.

21. Yupatish, tasalli berish mazmunidagi buyuruq gapni toping.

A) Odamlarga yomonlik qilma, dilini og‘ritma, ularni tashvish va notinchlikka qōyma.

B) Tezroq qōrg‘onga kirib, sodiq beklarni tōplaylik C) Avval kimligini sōrab bil!

D) Agar quvonching tugasa, nimada yangilishganingni axtar.

E) Kōp tashvish qilmang. Kōp oylayvermang. Ōzingizni bosing.

22. Qaysi darak gapda qodirlik ma‘nosi ifodalangan?

A) U bu ishni bemalol bajara oladi. B) Hamma yoq oppoq qor bilan qoplangan.

C) Biz, ehtimol, indingga uchrashsak kerak.

D) U ōrnidan turdi. E) Kuz faslida deyarli yog‘ingarchilik

bōlmadi.

23. Istak mazmunidagi darak gapni aniqlang.

A) Bir qarashda bu -yaxshi orzu

B) Har kim mashina olgisi keladi.

C) Aka-uka hosilni baravar bōlishibdilar.

D) Ona ancha yil fabrikada ishlagan.

E) A, B

24. Tilak-maqсад mazmuniga ega bōlgan darak gapni aniqlang.

A) Har kim ōz oyligiga berilgan edi.

B) Oksana degan qiz haqida ham sizlarga ochig‘ini yozmoqchiman.

C) Bahorda hammamiz yangi uyga kōchamiz.

D) Rahmonqulov Elchibekning kamgaplugini shubhalanadi shekilli.

E) Bahor yaqin.

25. Yuklama ishtiroki bilan hosil bōlgan sōroq gapni aniqlang.

A) - Ha ota?

B) - Siz baxtli emasmisiz?

C) - Uning kimi bor?

D) - Oting nima?

E) - Keyin nima bōldi?

II variant

1. Qaysi gapda sōroq bilan birga hayajon ham ifodalangan?

A) - Ota-onang bormi?

B) - Yangi qōshnimizga nima deysan?

C) - Voy, Ahmadjon, endi nima qilaman? D) - Sen qayerdan bizga qōshilding?

E) - Endi nega achinayapsan?

2. Sōroq olmoshi yordami bilan hosil bōlgan gapni aniqlang.

A) - Bizning tōg‘rimizda yozayapti, fahmladingmi?

B) - Ahmadjon, haligi odamlar kim edi? C) - Sōnajon, bir kurortga ham bormadik-a?

D) - Nimadan qōrqqan edingiz?

E) B, D

3. Faqat ohang yordami bilan tuzilgan sōroq gapni aniqlang.

A) - Havo bosimi odamga ta’sir qilmaydimi?

- B) - Demak, sizga astoydil tayansak bōladi? C) - Nega bōlmasa dujmol qilayapsan?
 D) - Arizangiz bor ekan deb eshitdim? E) B va D
4. Ritorik sōroq gap qaysi qatorda berilgan?
 A) Nomard qanday bema'ni gaplarni aytmaydi?
 B) - Tepalik kōrinmayaptimi?
- C) Musofirlik azobini chekmagan kishi vatandagi hayotning qadrini qaydan bilsin?
 D) - Kimdan maslahat sōrayman. E) A va C
5. Sōroq shaklidagi tasdiq ifodalaydigan ritorik sōroq gapni aniqlang.
 A) Safar qilmagan kishi orom olish farog'atini qaydan bilsin?
 B) Ilmi hisob o'qiganingiz bormi?
 C) Ayting-chi? Bunaqa o'qituvchi haqiqiy pedagog bōla oladimi?
 D) Tōqlikka shōxlikni judayam oshirib yubormayapsizmi? E) A, C
6. Tilakni bildirgan buyruq gapni kōrsating.
 A) - Yangi uyga kōchishingiz kerak ekan, oyi.
 B) - Uni albatta o'zingiz bilan ola keting.
 C) - Mana shu xonadondan qut-baraka arimasin.
 D) - U kelishi bilan daftarni albatta kōrsating. E) A va C
7. Maslahat tariqasidagi buyruq gapni aniqlang.
 A) - Chop, tezroq yugur. B) O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir.
 C) - Ana u burchakdan joy berilsin bularga!
 D) - Yig'lamasdan gapir, yaramas! E) A va B
8. Iltimos, yalinish mazmunini bildirgan buyruq gapni aniqlang.
 A) Sizlarni mehmon qilishga ijozat bering. B) Jon aka, menga ham o'rgating.
 C) - Albatta, topib bering. D) - Iltimos, bu haqda og'iz ochmang. E) B va D
9. Ogohlantirish tariqasidagi buyruq gapni toping.
 A) - Menga qara, sen odamning kōngliga chōp suqma.
 B) - Hamma voqeani bafurja gapirib beringlar.
 C) - Mening ketayotganimni unga ayta kōrmang.
 D) - Hovliqmasdan gapir. E) - Shu ishni menga topshiring.
10. His-hayajon (undov) gap qaysi qatorda berilgan?
 A) - Bu mening og'aynim, bu mening jangovor dōstim bōladi!
 B) Rōparamdagi katta derazadan yomg'ir yuvgan tropik o'rmonlar kōrinadi.
 C) Mening isitmam bor, shekilli, yonib ketayapman.
 D) Necha kun yurdik? E) His-hayajon (undov) gap berilmagan.
11. Tilak mazmuni anglashilgan buyruq gapni toping.
 A) - Chetidani yiriting, qolganini chōntakka soling. B) - Oy borib, omon qayt, o'g'lim.
 C) Ishongan omadingizga kōrsatib tushuntiring. D) Gapiring, og'ayni.
 E) Bu odamni esingda tut, o'g'lim.
12. Sōroq gap ohangi bilan bog'liq notōg'ri fikr qaysi qatorda berilgan?
 A) Sōroq anglatuvchi sōzlar gapni boshida kelsa ohang avval kōtarilib, gap oxirida pasayadi.
 B) Sōroq sōzlar gapning o'rtasida kelsa, ohang gap o'rtasida kōtarilib, keyin pasayadi.
 C) Bu sōzlar gapning oxirida kelsa, ohang gap oxirida kōtariladi.

- D) Sōroq sōzlarning gapdagi ḍrniga qarab ohang kuchli bōladi.
 E) Sōroq gaplarda ovozning kōtarilishi sōroq sōzlarning ishtirokiga bog‘liq emas.

13. Ritorik sōroq gap qōllangan qatorni toping.

- A) Umuman, savdo-sotiq ayollarga xos kasbmi, nima deysiz?
 B) Umr ḍrtasida poytaxtga kōchib kelishga nima majbur qildi?
 C) Ōqishga kirolmasam, shu ham fojiami?

D) U yerga kim bilan bormoqchisan? E) Necha yoshga kirganga ḍxshayman?

14. Sōroq shaklida yashirin tasdiqni bildirgan fikr qaysi gap orqali ifodalangan?

- A) Farida qayoqqa ketgan? B) Aslida bu kibrlanish ḍz-ḍzini kōz-kōz qilish emasmi?
 C) Ammo bitta nomarddan keyin beshta mardning uchrashi buyuk topilma emasmi?

D) Xōsh, uning ketidan hayot tōxtab qolarmidi? E) B va C

15. Sōroq shaklida inkor qilinadigan fikr qaysi gap orqali ifodalangan?

A) Uning qayerda yashashini bilasizmi?

B) ...dunyoning, qardosh xalqlar adabiyotining durdona asarlarini qanday qilib hayrat va hayajonsiz, zavq-shavqsiz ḍrgatib bōladi?

C) Bunday islohotlar natijasida respublikamizning iqtisodiyoti kōtarilishini kim bilmaydi?

D) Bundan ham gōzal, bundan ham sururli manzara bōladimi? E) B va D

16. Qaysi sōroq gapda buyurish mazmuni ifodalangan?

A) Kumushning ḍzi yigit tōg‘risida hech narsa bilmaydimi?

B) ...sinashta ḍrtog‘ingiz bōlsalar, u kishidan sir yashirib ḍtirasizmi?

C) Hoy uka, shu yerda qōlida kitob, daftar kōtargan bola kōrmadingizmi?

D) Tunov kuni aytganim yodingizdan chiqmadimi?

E) Otabek qipchoqlarga qarshi chiqmadimi?

17. Buyruq gapning maslahatni anglatish qaysi qatorda berilgan?

A) Rōmolimni bering

B) Bu voqeani oyimga gapirib yurma.

C) Ōzingni er bilsang, ḍzgani sher bil.

D) Mayli, ḍzini ishda oqlasin.

E) Ummatali, sen ham sahnaga chiq.

18. Yōling tushganmidi, qadrdon dōstim, bu yaqin orada Mirzachōl tomon.

Ifoda maqsadiga kōra ushbu gap turini belgilang.

A) undalmali gap

B) sōroq gap

C) bir bosh bōlakli gap

D) yoyiq gap

E) Barcha hukmlar

tōg‘ri

19. His-hayajon gap qaysi qatorda berilgan?

A) Bugungi ishni ertaga qōyma.

B) Naqadar jasur va quvnoq edik!

C) Opam keldimi?

D) Mehr-muhabbatga tōymaydi inson.

E) Qani, qani, mehmonlar, ichkariga.

20. Qani oldimga tushib kōr-chi! Ushbu jumla mazmuniga kōra qanday gap?

A) darak gap

C) ritorik sōroq gap

B) sōroq gap

D) buyruq gap

E) undov gap

21. 1.Darak gap. 2.Sōroq gap. 3.Buyruq gap.

Gapning ifoda maqsadiga kōra ushbu turlaridan qaysi biri dialogik nutqda kōproq ishlatiladi?

- A) 1 B) 2 C) 3 D) 1 va 2 E) 1, 2 va 3
22. Yozuvda darak, sōroq va buyruq shaklidagi his-hayajon gaplarning qaysi biridan sōng ikkita tinish belgisi qōyiladi?
 A) darak gap shaklidagi his-hayajon gaplarda
 B) sōroq gap shaklidagi his-hayajon gaplarda
 C) buyruq gap shaklidagi his-hayajon gaplarda
 D) sōroq va buyruq shaklidagi his-hayajon gaplarda
 E) barcha shaklidagi his-hayajon gaplarda faqat undov belgisi qōyiladi.
23. Ie, men kimni kōryapman. Ushbu gap ifoda maqsadiga kōra qanday gap hisoblanadi?
 A) darak gap C) buyruq gap E) sōroq-buyruq gap
 B) sōroq gap D) his-hayajon gap
24. Qani endi, shu vaqt muzdek suv bōlsa.
 Ushbu gap ifoda maqsadiga kōra qanday gap hisoblanadi?
 A) darak gap C) buyruq gap E) sōroq-buyruq gap
 B) sōroq gap D) his-hayajon gap
25. Kutilmagan xabar eshitishi natijasida taajjub bildirib, aynan gapni yoki uning biror bōlagini takrorlash natijasida qanday gap hosil bōladi?
 A) darak gap B) sōroq gap C) buyruq gap
 D) his-hayajon gap E) sōroq-buyruq gap

III variant

1. Sōzlovchining sōzlashdan maqsadi ma'lum voqea-hodisani bajarish yoki bajarmaslikka da'vat etish bōlsa, unda gapning ifoda maqsadiga kōra qaysi turi vujudga keladi?
 A) darak gap C) buyruq gap
 B) sōroq gap D) inkor yoki tasdiq gap E) ritorik sōroq gap
2. Qaysi qatordagi tobe sōz bilan hokim sōzning tartibi ōzgartirilsa, gap hosil bōladi?
 A) maqola ōqimoq C) yura-yura charchamoq E) onaning va-siyati
 B) kōm-kōk ōtloq D) suvga tōldirmoq
3. -mi, -chi, -a, -ya yuklamalari yordami bilan qanday gap tuziladi?
 A) buyruq gap C) darak gap E) darak gap, buyruq gap
 B) his-hayajon gap D) sōroq gap
4. Qaysi gapni sōroq olmoshi yordamida ritorik sōroq gapga aylantirish mumkin?
 A) Tog' orqasidan shamol kōtarildi. B) Osmonda yulduzlar chamani porlaydi.
 C) Tinch uyda janjal bōlishini istaydi. D) Siz odamlarni yaxshi bilasiz.
 E) Hamma ham ōz xalqining tarixini bilishni istaydi.
5. Faqat sōroq ohangining ōzi bilan tuzilgan sōroq gapni aniqlang.
 A) Bugun uni kōrasiz-a? B) Sizni qaysi masalalar qiziqtiradi?
 C) Uyda mehmon bor? D) Yaxshini kim sevmaydi?
 E) Yana mehmonlar kelishadimi?
6. Iltimosni bildirgan buyruq gap qaysi qatorda berilgan?

- A) Bugungi ishni ertaga qōyma B) Men sizga bir mashq chalib beray
 C) Mayli, baxtingizni sinab kōring D) Marhamat, uyga kiring
 E) Meni ham ōz safangizga ola qoling
7. Mulla aka, sal nariroq surilib ōtirmaysizmi?
 Ushbu gapda sōroq mazmuni qaysi yōl bilan berilgan?
 A) taajjub B) iltimos C) gumon D) shubha E) ikkilanish
8. Kimda qanday taklif bor? Sōroq gap qaysi vosita yordamida tuzilgan?
 A) faqat "qanday" sōroq sōzi yordamida
 B) faqat "kim" sōroq olmoshi bilan C) sōroq yuklamasi vositasida
 D) sōroq olmoshlari ishtirokida E) faqat sōroq ohangi yordamida
9. His-hayajonsiz gap qaysi qatorda berilgan?
 A) Eh, qanday gōzal bu yoshlik!
 B) Yoshlik, qanday beg 'ubor faslsan! C) Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.
 D) Naqadar baxtlidir ona bechora! E) O, mevasi tilni yoradi, biram lazzatli!
10. Misollarning qaysi biri ritorik sōroq gap?
 A) Shundan beri qancha soylar oqib ketdi? Dunyo necha marta aylandi?
 B) Xōsh, ōzingizning ahvolingiz qanday, dōstim?
 C) -Soatim tōxtab qolibdi. Buzilibdimi?
 D) Nimadan xafasiz? Kim xafa qildi? E) Ibrohimovamisiz?
11. Ritorik sōroq gap berilgan qatorni aniqlang
 A) Ōqish qachon boshlanadi?
 B) Dadang qayerga borib kelganini aytaymi? -deb qoldi.
 C) Salomat yuribsizmi, Bahromjon?
 D) Sut kōr qilgur haromi, Gitler oqqadar, farzandning qadrini qayerdan bilsin?!
 E) Xōsh, qanday yangiliklar bor? - dedi Ōktam.
12. Yashirin tasdiq mazmunini bildiradigan ritorik sōroq gapni toping
 A) Inson qila olmaydigan ish bormi? B) Yutuqlarimizni kim inkor qila oladi?
 C) Kimda bor bunchalik latofat, husn?
 D) Dehqonning yerdan boshqa nima tirikchiligi bor?
 E) Kim she 'r yozmas mening yoshimda?
13. Yashirin inkor mazmunini bildiradigan ritorik sōroq gapni belgilang
 A) Siz Salimovning ōg 'li emasiz?
 B) Suv dehqonlar uchun durday noyob ekanini kim bilmaydi?
 C) Shunaqa narsa bilan hazil qilib bōladimi? D) Farzandni kim sevmaydi?
 E) Odamning hayoti tug 'ilishidan boshlanishini kim bilmaydi?
14. Sōroq yuklamasi ishtiroki bilan hosil bōlgan sōroq gapni belgilang
 A) Kimda qanday taklif bor? B) Oltinsoyga yaqinda keldinglar shekilli?
 C) Nahotki bir tomchi qayg 'uni bir daryo sevinch yuvib ketolmaydi?
 D) Qishlog 'imiz yoqmay qoldimi? E) Pulini ham berdingiz?
15. Tashviq mazmunini ifodalovchi buyruq gap berilgan qatorni aniqlang
 A) Nahotki kechasi bilan yōl yurib, shuncha oz yurilgan bōlsa.
 B) Ayajon, menga rahmat ayting
 C) Kunning tig 'ida nima qilasan, bu yerga kelib, salqinda ōtirsang-chi.
 D) Salim ketgan joyga uni ham jōnatish kerak. E) Ashuladan yana bōlsin!

16. Shodlik, mamnunlik mazmunini ifodalovchi his-hayajon gap berilgan qatorni aniqlang
- A) Barakalla, barakalla, õg‘lim! B) Muncha yaxshi yigit ekansiz!
 C) Evoh, esiz umr, esiz qizim! E) Qani endi muzdek suv bõlsa!
 D) Barakali mehnatdan sõng rohatlanib dam olish qanday zavqli!
17. Gap berilgan qatorni aniqlang?
- A) baland bino, pok niyat B) vijdoni pok, e‘tiqodi kuchli
 C) zilol suv, mustaqil diyor D) ma‘naviy boylik, sadoqatli dõst
 E) mahalla ahli, oilaviy hamjihatlik
18. Quyidagi gapda ajratib kõrsatilgan iboraning sinonimi qaysi javobda berilgan? Ona **kõzi tõrt bõlib** yõlga qaraydi. (H.O)
- A) mehr bilan B) diqqat bilan C) intizorlik bilan
 D) shoshib-pishib E) jahl bilan
19. Ogohlantirish tariqasidagi buyruq gapni toping.
- A) - Menga qara, sen odamning kõngliga chõp suqma.
 B) - Hamma voqeani bafurja gapirib beringlar.
 C) - Mening ketayotganimni unga ayta kõrmang.
 D) - Hovliqmasdan gapir. E) - Shu ishni menga topshiring.
20. His-hayajon (undov) gap qaysi qatorda berilgan?
- A) - Bu mening og‘aynim, bu mening jangovor dõstim bõladi!
 B) Rõparamdagi katta derazadan yomg‘ir yuvgan tropik õrmonlar kõrinadi.
 C) Mening isitmam bor, shekilli, yonib ketayapman.
 D) Necha kun yurdik? E) His-hayajon (undov) gap berilmagan.
21. Tilak mazmuni anglashilgan buyruq gapni toping.
- A) - Chetidan yiriting, qolganini chõntakka soling. B) - Oy borib, omon qayt, õg‘lim.
- C) Ishongan omadingizga kõrsatib tushuntiring. D) Gapiring, og‘ayni.
 E) Bu odamni esingda tut, õg‘lim.
22. Sõroq gap ohangi bilan bog‘liq notõg‘ri fikr qaysi qatorda berilgan?
- A) Sõroq sõzlar gapni boshida kelsa ohang avval kõtarilib, gap oxirida pasayadi.
 B) Sõroq sõzlar gapning õrtasida kelsa, ohang gap õrtasida kõtarilib, keyin pasayadi.
 C) Bu sõzlar gapning oxirida kelsa, ohang gap oxirida kõtariladi.
 D) Sõroq sõzlarning gapdagi õrniga qarab ohang kuchli bõladi.
 E) Sõroq gaplarda ovozning kõtarilishi sõroq sõzlarning ishtirokiga bog‘liq emas.
23. Ritorik sõroq gap qõllangan qatorni toping.
- A) Umuman, savdo-sotiq ayollarga xos kasbmi, nima deysiz?
 B) Umr õrtasida poytaxtga kõchib kelishga nima majbur qildi?
 C) Õqishga kirolmasam, shu ham fojiami?
 D) U yerga kim bilan bormoqchisan? E) Necha yoshga kirganga õxshayman?
24. Sõroq shaklida yashirin tasdiqni bildirgan fikr qaysi gap orqali ifodalangan?
- A) Farida qayoqqa ketgan? B) Aslida bu kibrlanish õz-õzini kõz-kõz qilish emasmi?
 C) Ammo bitta nomarddan keyin beshta mardning uchrashi buyuk topilma

emasmi?

- D) *Xōsh, uning ketidan hayot tōxtab qolarmidi?* E) *B va C*
25. *Sōroq shaklida inkor qilinadigan fikr qaysi gap orqali ifodalangan?*
- A) *Uning qayerda yashashini bilasizmi?*
- B) *...dunyoning, qardosh xalqlar adabiyotining durdona asarlarini qanday qilib hayrat va hayajonsiz, zavq-shavqsiz ōrgatib bōladi?*
- C) *Bunday islohotlar natijasida respublikamizning iqtisodiyoti kōtarilishini kim bilmaydi?*
- D) *Bundan ham gōzal, bundan ham sururli manzara bōladimi?* E) *B va D*

3. Amaliy mashg'ulot mavzusi: Ega va kesim, ularning o'ziga xos jihatlari

Reja:

1. "Ega, kesim va ega-kesim koordinatsiyasi" mavzusi bo'yicha nazorat savollari.
2. Ega va kesim tahlili bo'yicha mashqlar.
3. Keyingi amaliy mashg'ulot topshiriqlari: mavzuga doir 2 varyantli testlarni ishlash.

3-mavzu bo'yicha nazorat savollari:

20. Gap bo'lagi deb qanday birlikka aytiladi?
21. Ma'lum bir so'z qanday holatlarda gap bo'lagi vazifasida kela oladi?
22. Gap bo'lagi necha turga bo'linadi?
23. Gapning bosh bo'laklari qaysilar?
24. Ikkinchi darajali bo'laklarni sanang.
25. Gapning grammatik asosini qaysi bo'laklar tashkil etadi?
26. Ega va kesim qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanadi?
27. Gapni tashkil etishda eganing roli qanday bo'ladi?
28. Eganing grammatik belgilari.
29. Egani aniqlashda logik va grammatik aspektlar.
30. Ega qanday ifodalanadi?
31. Tuzilishiga ko'ra ega necha xil bo'ladi?
32. Ega kesim bilan qanday grammatik aloqaga kiradi?
33. Predikativ aloqa deganda nimani tushunasiz?
34. Logik va grammatik egani qanday izohlaysiz?
35. Gapda egaga qaysi bo'laklar tobelanadi?
36. Otlashgan so'zlardan ifodalangan ega ishtirokida uchta gap tuzing.
37. Kesim deb nimaga aytiladi?
38. Kesim ifodalanishiga ko'ra nechaga bo'linadi?
39. Ot-kesim deb nimaga aytiladi?
40. Fe'l –kesim qanday ifodalanadi?
41. Kesim tuzilishiga ko'ra qanday ko'rinishlariga ega bo'ladi?

42. Sodda kesim qanday bo'ladi? Murakkab kesim-chi?
43. Bog'lama deb nimaga aytiladi?
44. Predikat tushunchasiga tavsif bering.
45. Ot-kesim va uning ifodalanishi haqida gapiring.
46. Fe'l-kesimlarni qanday guruhlash mumkin.
47. Moslashuv aloqasi haqida ma'lumot bering.
48. Ega va kesim qanday moslashadi?
49. Ega va kesimning moslashuvida qanday vositalar muhim vazifa bajaradi?
50. Qanday hollarda ega va kesim orasiga tire qo'yiladi?
51. Moslashuv aloqasi deganda nima tushuniladi?
52. Ega va kesim moslashuvi.
53. Ega va kesimning shaxs-sonda mosligi.
54. Ega va kesimning shaxsda mosligi.
55. Ega va kesimning sonda mosligi.
56. Ega va kesim o'rtasida tirening ishlatilishi.

1-mashq. Berilgan gaplardagi egalarni tahlil qiling.

1.Yomg'ir yog'sa, cho'llar yashnaydi. 2. Karimjon yolg'on gapirmaydi. 3.Ular topshiriqni puxta bajarishdi. 4. Kitob sizni aldab qo'ymaydi. 5. Intilganlar maqsadga erishmay qo'yishmaydi. 6.Musichaning g'uv-g'uvi miyani eyardi. 7. Bolalarning uchovi shunga qaror qildi. 8. Ko'pchilik shartga ko'nmadi. 9.Odam olasi ichida bo'ladi. 10. Hafsalasi pir bo'lgani ko'zidan bilinib turardi. 11.Qo'shni xotinnning oh-vohi eshitila boshladi. 12. Gapning ozi yaxshi. 13.Ma'naviyat insonga suvdek zarur. 14.Vazifani o'z vaqtida bajarish shart. 15.Yo'lchi o'rnidan turdi. 16.Uyda quyon bor. 17. Baquvvat xotiraning mohiyati—unutmaslik. 18.Mard maydonda bilinadi. 19. To'qqiz uchga karrasiz bo'linadi. 20. Biz yarim tunda jo'nadik. 21.Tortishuv qizib ketdi. 22. Bunisi undan ham og'ir. 23.Tirishgan tog'dan oshar. 24.Qizlarning shivir-shiviri eshilib turardi. 25.Burgaga achchiq qilib, ko'rpani kuydirish yaxshi emas. 26.Otlarning otxonaga olib o'tilmagani Ziyodullani ajablantirgan edi. 27.Turobjon hazildan qizarib ketdi. 28. Bu gapni hamma eshitdi. 29.Siz bizga mehmonsiz. 30.Olg'irlar hayotda ko'p emish. 31.Vatan quchog'ida baxt-saodat bizniki. 32.Tikan zahri ichida. 33.Uning kelishi sertashvish edi. 34. Ikki karra ikki to'rt bo'ladi. 35.Sen kimsan? 36.Senda aql kammi? 37. Nurining es-hushi erga tegish edi. 38.CHo'ponlarning qulog'i ding. 39.Issiq ovqating bormi? 40. Bular mening do'stlarim bo'ladi. 41.Sobir ma'ruza yoza boshladi. 42.Men sizdan shunchaki so'radim-qo'ydim. 43.O'sha kuni havo issiq edi. 44. Somonxona o'zingniki bo'lsin. 45.Mirzakarimboy to'nini teskari kiyib oldi. 46. Men maktabga boraman. 47. Po'lat xatni kecha yuborgan. 48.Yaxshi ro'zg'or – jannat. 49. Ikki karra ikki – to'rt. 50.O'zim har joydaman, ko'nglim sandadir. 51. Sizdan umidim ko'p.

2-mashq. Berilgan gaplardagi kesimlarni tahlil qiling.

1. Sengga tengdosh Pomur-u oqsoch Tyonshan, o'zbekim. 2. Eshikning qo'qqisdan ochilishi ayollarni cho'chitib yubordi. 3. Tabiatga hayron qolasan kishi. 4. Ikkovlon mast bo'lsak vasl bog'ida. 5. Ko'pni yomonlagan ko'muvsu qolar. 6. Guzar ustida g'ovur-g'uvur ko'tarildi. 7.Tursunboyni hayotda ushlab turadigan hech narsa

qolmadi. 8. Hushbo'y hid socha ekan har xil gul va g'unchalar. 9. Tilimiz juda boy va chiroyli. 10. Valining keksa onasi uzundan-uzoq duo o'qidi. 11. Ishlamay egan, og'rimiy o'lar. 12. Baxil o'z moli uchun qattiq azob chekadi. 13. Adabiyotga o'g'ri mushukka o'xshab tuynukdan oshib tushadiganlar ham bo'ladi. 14. Tirnoq orasidan kir qidirish uning doimiy odati bo'lib qolgan. 15. Ilmiga amal qilmagan olim ustiga kitob ortilgan eshakka o'xshaydi. 16. Bilmagan barmog'in tishlar. 17. Hasadgo'y yaramas fe'li tufayli tinch yashay olmaydi. 18. Birlashgan daryo bo'lur. 19. Ko'pchilik bu voqeani o'sha kuniyoq eshitdi. 20. Quvvatning tushishi goho hushdan ketishga olib keladi. 21. Rejasiz ish—qolipsiz g'isht. 22. Otning dupur-dupuri eshitildi. 23. Albatta, mehmonsiz siz bizga. 24. Shu hafta o'qiganlarini takror qila qo'ya qolmoqchi edi. 25. Inson baxt uchun yaralgan. 26. Hali hech kim kamtarona yashashdan afsuslanmagan. 27. O'smirlikdagi tushkunlik—yoshlikka xos kasallik. 28. Me'yor sog'likning posbonidir. 29. Shoshib qilingan ishning umri qisqa. 30. Vijdon xotiradan ko'ra ishonchliroq. 31. Oddiylik—insoniy qadr-qimmatini anglashing. 32. Kim ko'p gapirsa, u kerakli narsapni o'rgana olmaydi. 33. Qo'rquv iroda kuchsizligidan kelib chiqadi. 34. So'z hamisha ishga nisbatan botirroq bo'ladi. 35. Sog' tanda sog'lom aql bo'lishiga intilish kerak. 36. Haqiqiy ta'lim odamiylikka tayyorlashi lozim. 37. Har bir kishi o'ziga yarasha ishni o'rganishi zarur. 38. Moviy osmonda oq bulutlar suzib yuribdi. 39. Qir yonbag'ri pakana dublar bilan qoplangan. 40. Kichik korxonada ishlay boshladi. 41. Mehnat kunni bayramga aylantirib yuboradi. 42. Davlating-ota-onang. 43. Inson aqli bilan go'zal. 44. Dil og'ritgan do'st emas. 45. Oilada to'rta qiz vabitta o'g'il bor. 46. YOqimli shabada esib turibdi. 47. Choyxona yangi solingan qo'shni binoga ko'chib kirishi va bayramda ochilishi kerak edi. 48. Yaxshidan ot qoladi, yomondan—dod. 49. Ammanning zardali ovozi eshitib damim ichimga tushib ketdi. 50. U mehmonlarni qarshi oldi.

3-mashq. Zarur o'rinlarga tire qo'yib, qo'yilish sababini izohlang.

1. Tinchlik faravon hayot manbai. 2. O'qish ulg'ayish. 3. Men mana shu minglarning biriman. 4. Mening aytadigan gapim shu. 5. Qizilqum sahrosi bepoyon. 6. Har narsaga qiziqish biz uchun eski odat. 7. Urush quyon ovi emas. 8. Mening opam ham talaba. 9. Uch karra uch to'qqiz. 10. Bizning sinfirmiz sakkizinchi. 11. Maqsadim o'qimoq. 12. Sen bizni ozod etuvchisan. 13. SHarifa ham to'quvchi. 14. Ko'ylakning rangi sariq. 15. Ukam o'quvchi. 16. Akam uchuvchi bo'ladi. 17. Taniganim shular. 18. Eshitganlarim haqiqat edi. 19. Eshitganlarim haqiqat. 20. Aziza ilg'or tikuvchi. 21. Yaxshining gapi moy, yomonning gapi loy. 22. Ozod yuraklarga baxt nuri to'lgan. 23. Hosilning otasi suv, onasi yer. 24. Mehmonlarning aksariyati o'rta yoshli edi. 25. Hammayoq top-toza. 26. YAxshi qiz yoqadagi qunduz. 27. Otalarso'zi aqlning ko'zi. 28. O'g'limdan umidim katta. 29. Biz Vatan posponlarimiz. 30. Izlanish insonni yuksaltiradigan jarayon.

3-mavzu bo'yicha topshiriqlar. Berilgan test variantlarini yechish va to'g'ri javoblarni izohlash.

I variant

1. Daraxtning kōpi yaxshi kōkaradi.

Ushbu gapdagi eganing ifodalanishi qaysi javobda tōg'ri berilgan?

- A) son bilan B) sifat bilan C) ot bilan D) ravish bilan E) olmosh bilan
2. Olmosh bilan ifodalangan ega qaysi gapda qōllangan?
 A) Birovning xatosi - birovgga saboq. B) Har bir kishi butun bir kitobdir.
 C) Hech kim hamma narsani bilolmaydi.
 D) Hech bir kishi keragicha shakllangan holda dunyoga kelmaydi.
 E) Faqat odamlar orasidagina kishi ōz-ōzini anglashga qodir.
3. Otlashgan sifat bilan ifodalangan egani toping.
 A) Katta maydonni ishqol etgan gulzorga chiqdik.
 B) Baxmal qirlar, keng bōshliqlar, paxtazor yerlar kōm-kōk.
 C) Kōkimtir qora osmonda behisob yulduzlar chaqnab turardi.
 D) Eng qiyini ōzingni anglay bilishingdir.
 E) G'ulomjonning oppoq yuzi issiqdan qizargan edi.
4. Ibora qaysi gapda ega vazifasida qōllangan?
 A) Bilasizki, sirkam suv kōtarmaydigan shoirlardanman.
 B) Turmushdan orqada qolayotgani uchun rosa pōstagini qoqishdi.
 C) Ayniqsa, Mehrining onasi menga kōz ochirmaydi.
 D) Dilni xira qilgan g'ashlik tutunday tarqaladi-ketadi.
 E) Bu xotin-qizlarning boshini bir joyga qovushtirish ham juda qiyin ekan.
5. Guruhimizda 25 nafar ōquvchi bor. Ushbu gapda ega nima bilan ifodalangan?
 A) ot bilan B) hisob sōzi bilan C) son bilan D) sōz birikmasi bilan E) A va B
6. Xasta kōnglim chekmagan dard-u balosi qoldimu?!
 Berilgan gapning egasi qanday sōz bilan ifodalangan?
 A) takroriy sōz B) juft sōz C) qōshma sōz
 D) sodda sōz E) ega ifodalanmagan
7. Ōg'lim, san onangning gapiga achchiqlanma. Ul har narsa desa, faqat Marg'ilondan uylanganingga qarshiligidan aytadilar.
 Berilgan gapdagi olmoshlar sonini va egani aniqlang.
 A) 2 ta, san B) 2 ta, san, ul C) 3 ta, san, ul
 D) 4 ta, ōg'lim, ul E) 5 ta, ōg'lim, san, ul
8. Unda ham bu kitoblardan bor. Ushbu gapda ega qaysi sōz bilan ifodalangan?
 A) ega ifodalanmagan B) bu C) kitoblardan D) unda
 E) bu kitoblardan
9. Hafsalasi pir bōlgani kōzidan bilinib turibdi.
 Ushbu gapda ega qanday sōz bilan ifodalangan?
 A) ot bilan B) harakat nomi bilan
 C) olmosh bilan D) ibora bilan E) otlashgan sōz bilan
10. Quyida berilgan gapning egasi tōg'ri kōrsatilgan qatorni toping.
 Syenga tengdosh Pomir-u,
 Oqsoch Tyonshon, ōzbekim.
 A) Pomir, Tyonshon B) senga C) oqsoch D) tengdosh E) ōzbekim
11. Rejasiz ish - qolipsiz g'isht. Ushbu gap qanday gap bōlaklaridan tashkil topgan?
 A) aniqlovchi, ega, tōldiruvchi, kesim B) aniqlovchi, ega, kesim
 C) ega, kesim, tōldiruvchi D) ega, kesim E) kesim, aniqlovchi

12. Gapning markazi qaysi bōlak?

- A) ega B) kesim C) hol D) aniqlovchi E) A va B

13. Hozirgi o'zbek tilida qaysi kelishikdagi sōz kesim vazifasida kelmaydi?

- A) o'rin-payt, chiqish, jōnalish kelishigidagi sōzlar
B) bosh kelishikdagi sōzlar C) qaratqich, tushum kelishigidagi sōzlar
D) kelishik qōshimchalarini olgan sōzlar kesim vazifasida kela oladi
E) kelishik qōshimchalarini olgan sōzlar kesim vazifasida kela olmaydi

14. Albatta, mehmonsiz siz bizga. Ushbu gapdagi kesimni aniqlang.

- A) kesimi, ya'ni, "bōlasiz" fe'li tushib qolgan
B) bizga C) siz D) mehmonsiz E)

albatta

15. Ega qaysi shaxsni bildirganda, ot kesimda shu shaxsni kōrsatuvchi maxsus

qōshimcha bōlmaydi?

- A) I shaxsni B) II shaxsni C) III shaxsni
D) I va II shaxsni E) ot-kesimda albatta shaxs bildiruvchi qōshimcha bōladi.

16. Shu hafta yil bōyi o'qiganlarini takror qila qōya qolmoqchi edi

. Gapning kesimi qaysi qatorda tōg'ri berilgan?

- A) edi B) qolmoqchi edi C) qōya qolmoqchi edi
D) qila qōya qolmoqchi edi E) takror qila qōya qolmoqchi edi

17. Qaysi gapda kesim sifatdosh bilan ifodalangan?

- A) Kishi o'z baxtini boshqalarga keltirgan baxtiga qarab o'laydi.
B) Vijdonan bajarilgan har qanday mehnat foydalidir.
C) Inson baxt uchun yaralgan.
D) Hali hech kim kamtorana yashaganidan afsuslanmagan. E) C va D

18. Ot - kesimli gap qaysi qatorda berilgan?

A) O'qishda, mehnatda, fanda, xalqqa astoydil xizmat qilishda o'z baxtingni topasan.

- B) O'smirlikdagi tushkunlik - yoshlikka xos kasallik.
C) Me'yori sog'liqning posbonidir. D) A va B E) B va C

19. Sifat bilan ifodalangan ot - kesim qaysi javobda berilgan?

- A) Baxtsizlikda burchga sodiq qolish buyuk xislatdir.
B) Izchil mehnat hamma tōsiqlarni yengadi.
C) Shohib qilingan ishning umri qisqa.
D) Vijdon xotiradan kōra ishonchliroq. E) C va D

20. Harakat nomi bilan ifodalangan ot - kesimli gapni aniqlang.

- A) Nomus - asl gōzallik. B) Halollik har qanday martabani bezaydi.
C) Oddiylik - insoniy qadr - qimmatini anglashing.
D) Haqqōylik - hayot nafasi... E) Sōz - gul, ish - meva.

21. Murakkab fe'l - kesim qaysi javobda qōllangan?

- A) Qōrmoqdan kōproq qōrmoq kerak.
B) Kim kōp gapirsa, u kerakli narsalarni o'rgana olmaydi.
C) Saodat Odilova aspiranturada o'qiyapti.
D) Qōrquv iroda kuchsizligidan kelib chiqadi. E) B va D

22. Murakkab ot-kesim qaysi gap tarkibida qōllangan?

- A) Sog ' tanda sog 'lom aql bōlishiga intilish zarur.
 B) Sōz hamisha ishga nisbatan botirroq bōladi.
 C) Haqiqiy ta 'lim odamni odamiylikda tayyorlashi kerak.
 D) Har bir kishi asosan qōlidan keladigan va ōziga yarashadigan ishga ōrganishi zarur

E) Barcha gap tarkibida murakkab ot-kesim qōllangan.

23. Qaysi gapdagi fe 'l-kesim ega bilan sonda moslashmagan?

A) Jur 'atsizlik bizda faqat nafrat uyg ōtadi.

B) Hasad hech qachon quvonchni bilmaydi.

C) Izlaganimiz yonimizda bōlganligini biz doim kechikib tushunamiz.

D) Ba 'zilar ōzlari bilmaganlari holda baxtli yashaydilar.

E) Moviy osmonda oq bulutlar suzib yuribdi.

24. Fe 'lning sifatdosh shakli bilan ifodalangan kesimni aniqlang.

A) Mehnat va ijod keksayishi sekinlashtiradi.

B) Qir yon bag 'ri pakana dublar bilan qoplangan

C) Ruhni davolamay turib, tanani davolab bōlmaydi.

D) Hali hech kim kamtarona yashaganidan afsuslanmagan.

E) B, D

25. Murakkab fe 'l-kesim qaysi qatorda berilgan?

A) Qishlog 'imizda kichik korxonona ishlay boshladi.

B) Ishtiyiq bilan qilgan ishimiz dardimizni davolaydi.

C) Mehnat oddiy kunlarni ham bayramga aylantirib yuboradi.

D) Hamma qiyinchiliklardan faqat mehnat bilan qutulish mumkin.

E) A, C

II variant

1. Eshikning qōqqisidan ochilishi ayollarni chōchitib yubordi.

Ushbu misoldagi fe 'lning harakat nomi shakli bilan ifodalangan gap bōlagini kōrsating

A) hol C) ega E) kesim B) aniqlovchi D) tōldiruvchi

2. Aravani quruq olib qochish sizga yarashmaydi.

Ibora gapning qaysi bōlagi vazifasida qōllangan?

A) kesim C) hol E) aniqlovchi B) tōldiruvchi D) ega

3. Shularni kōrib, tabiatga hayron qolasan kishi. Ushbu gapdagi egani aniqlang

A) ega qōllanmagan C) tabiatga hayron qolasan

B) kishi

D) hayron qolasan kishi

E) hayron

4. Ne xush bōlg 'ay ikkovlon mast bōlsak vasl bog 'ida. (A.Navoiy.)

Mazkur gapning egasini aniqlang

A) mast C) ikkovlon, mast E) ikkovlon, vasl B) xush D) ikkovlon

5. Ega mantiqiy urg 'u olgan qatorni aniqlang

A) Sizlarni biz kecha kutgan edik.

B) Kecha sizlarni biz kutgan edik.

C) Biz sizlarni kecha kutgan edik.

D) Biz kecha sizlarni kutgan edik.

E) Kutgan edik sizlarni kecha biz.

6. Otlashgan sifatdosh ega vazifasida qōllangan misolni aniqlang

A) Egilgan boshni qilich kesmas.

B) Tezyurar poezdda ketdi.

C) Kōpni yomonlagan kōmuvsiz qolar

D) Mehr kōrsatganni hurmat qil.

E) Oqmas suvdan zinhor ichma.

7. *Guzar ustida yangi g‘ovur-g‘uvur kōtarildi.*
Ushbu gapda taqlid sōz qaysi gap bōlagi vazifasida?
 A) ega C) tōldiruvchi E) aniqlovchi B) kesim D) hol
8. *Quyidagi gapda egalar qaysi sōz turkumi bilan ifodalangan?*
Bor-boricha, yōq-holicha.
 A) taqlidiy sōz bilan B) olmosh bilan
 C) hokim kelishikdagi ot bilan D) sifatdosh bilan E) modal sōz bilan
9. *Tirishgan tog‘dan oshar.*
Ushbu matn janrini aniqlang. Gapda ega qanday sōz bilan ifodalangan.
 A) maqol, sifatdosh B) topishmoq, ravishdosh C) tez aytish, fe‘l
 D) maqol, sifat E) maqol, ega ifodalanmagan
10. *Tursunboyni hayotda ushlab turadigan hech narsa qolmadi...*
Tursunboy kimning qaysi asari qahramoni?; Gapda ega qanday ifodalangan?
 A) S.Ahmad."Cobiq"; fe‘l bilan B) S.Ahmad."Qoplon"; ot bilan
 C) S.Ahmad."Ufq"; olmosh bilan D) S.Ahmad."Jimjitlik"; sifatdosh bilan
 E) Ō.Hoshimov."Dunyoning ishlari"; ega qōllanmagan
11. *Ot-kesim qōllangan gapni aniqlang.*
 A) Davlating - ota - onang. B) Mard bir sōzlaydi, nomard ming sōzlaydi.
 C) Ahmoq ōzini maqtar. D) Inson aqli bilan gōzal. E) A, D
12. *Murakkab ot-kesim qaysi gapda berilgan?*
 A) Aqlni beaqlidan ōrgan. B) Birlashgan kuch engilmas.
 C) Dil og‘ritgan dōst emas.
 D) Mahbubaxon voyaga etgan oilada tōrtta qiz va bitta ōg‘il bor edi. E) C, D
13. *Quyida berilgan gapdagi kesimni aniqlang. Yoqimli shabada esib turibdi.*
 A) turibdi, sodda kesim B) esib, ravishdosh, sodda kesim
 C) esib turibdi, murakkab kesim D) sodda fe‘l-kesim E) A,B
14. *Tarvuzlar ham soy toshidek g‘uj-g‘uj.*
Mazkur gapda takroriy sōz qanday sintaktik vazifada kelgan va qaysi sōz turkumi bilan ifodalangan?
 A) kesim, taqlid sōz B) kesim, takroriy sōz
 C) kesim, ot takror qōllangan D) aniqlovchi, taqlid sōz
 E) aniqlovchi, sifat takror qōllangan.
15. *Qaysi gapda ega bilan kesim sonda moslashmagan?*
 A) Bir palakda har xil qovun etishadi.
 B) Mahbuba bir kuni Abdurahimga telefon qildi.
 C) Yosh bolalar bog‘da yayraydilar, dam oladilar.
 D) Xalq tōplandi. E) Qushlar sayradi.
16. *Ōzbek tilida ega qaysi shaxsdagi olmoshlar bilan ifodalanganda, u kesim bilan shaxs va sonda doim moslashadi?*
 A) I shaxs olmoshi bilan B) II shaxs olmoshi bilan C) III shaxs olmoshi bilan
 D) I va II shaxs olmoshlari bilan E) I, II va III shaxs olmoshlari bilan
17. *Ega bilan kesim qaysi shaxsda hamma vaqt sonda mos bōladi?*
 A) I shaxsda B) II shaxsda C) III shaxsda
 D) I va II shaxsda E) I, II va III shaxsda

18. Qarashlilik shaklidagi sōz qarashli bōlgan narsalarni bildiruvchi sōz bilan qōllansa, hamma vaqt qaysi gap bōlagi vazifasida keladi?
 A) tōldiruvchi B) ega C) kesim D) hol E) aniqlovchi
19. Sobir endi kalavaning uchini topdi. Ushbu gapda kesim qanday ifodalangan?
 A) fe'l bilan B) sifat bilan C) ibora bilan
 D) ajralmas birikma bilan E) sōz birikmasi bilan
20. Gapdagi kesimni aniqlang Choyxona yangi solingan qōshni binoga kōchib kirishi va bayramda ochilishi kerak edi.
 A) solingan B) kōchib kirishi C) ochilishi
 D) kerak edi E) kōchib kirishi, ochilishi kerak edi.
21. Kesimning tuzilishiga kōra turlari tōliq berilgan qatorni aniqlang
 A) sodda va murakkab B) sodda ot-kesim va sodda fe'l-kesim
 C) murakkab ot-kesim va murakkab fe'l-kesim
 D) fe'l-kesim, ot-kesim E) A, B, C javoblar
22. Yaxshidan ot qoladi, yomondan-dod. Mazkur gapdagi kesimni aniqlang
 A) ot qoladi B) qoladi C) dod qoladi
 D) dod E) ot, dod qoladi
23. U mehmonlarni ochiq chehra bilan qarshi oldi.
 Ushbu gapda kesim qanday sōz bilan ifodalangan?
 A) sodda fe'l bilan B) kōmakchi fe'lli sōz qōshilmasi bilan
 C) qōshma fe'l bilan D) mustaqil fe'l bilan
 E) bog'lama vazifasidagi fe'l bilan
24. Quyidagi gapning kesimi nima bilan ifodalanganligini aniqlang.
 Ammamning zardali ovozini eshitib, damim ichimga tushib ketdi.
 A) fe'l bilan B) qōshma fe'l bilan
 C) ibora bilan D) ot bilan E) ravishdosh bilan
25. Ular shoshilinch holda binoni qabul qilib qōya qolgan edi. gapidagi kesimni aniqlang.
 A) qōya qolgan edi B) qolgan edi
 C) qilib qōya qolgan edi D) edi E) qabul qilib qōya qolgan edi

III variant

1. Ortimizdagi dilni va kōzni quvontiradigan katta ōzgarishlarni kōrib turibmiz.
 Gapning kesimi nima bilan ifodalangan?
 A) mustaqil fe'l bilan B) qōshma fe'l bilan C) sodda fe'l bilan
 D) kōmakchi fe'lli sōz qōshilmasi bilan E) bog'lama fe'l bilan
2. Gapning qaysi bōlagi tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalaydi?
 A) ega B) kesim C)
 tōldiruvchi
 D) bosh bōlaklar E) ikkinchi darajali bōlaklar
3. Qaysi gapda bog'lamali kesim berilgan?
 A) Eshitganlarim haqiqat edi. B) Nodonsan-da, --debdi Luqmon
 C) Samarqand Sharqning kōrkidir.

- D) Akam uchuvchi bōladi. E) A, B, C va D
4. Javoblarning qaysi birida murakkab kesim qatnashgan?
- A) Ma'naviyat insonga havodek zarur.
 B) Vatan sajdagoh kabi muqaddasligini unutmazlik kerak.
 C) Vazifani o'z vaqtida bajarish shart.
 D) Mamlakatimizni tajovuzkorlardan himoya qilish lozim.
 E) Barcha javoblarda murakkab kesimlar qatnashgan.
5. Qanday kesimlar nomustaqil kesim shaklini yasashga xizmat qiladi?
- A) buyruq-istak mayli B) xabar mayli
 C) shart mayli D) zamon shakllari E) C va D
6. Qaysi javobda nomustaqil kesim shakli qatnashgan?
- A) Yomg'ir yog'sa, chōllar yashnaydi. B) Tuyog'iga ursang, shoxi zirqiraydi
 C) Oyim ham tezda kelsa edi. D) A va B E) A, B, C
7. Qaysi javobdagi ta'rif eganing xususiyatini ochib beradi?
- A) Gap kesimining qōshimchalaridan anglashilib turgan shaxs-son ma'nosini aniqlashtiruvchi bōlak.
 B) Tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab keluvchi, gapning markazi bōlgan bōlak
 C) Kesim ifodalagan turli-tuman belgi-xususiyatlarini ifodalab keluvchi, kesimga tobelanuvchi bōlak
 D) Gapning kesimi yoki egasiga tobelanib, ularga ergashib keladigan bōlak
 E) A va B
8. Egali gap berilgan qatorni aniqlang.
- A) Men vazifani bajarishim mumkin. B) Taq-tuq hammaga eshitildi.
 C) Vazifani bajarishim mumkin. D) A va B E) A, B, C
9. Muhammadqodir Abdullayevning jahon chempioni bōlishi butun Őzbekiston xalqini xursand qildi. Ushbu gapdagi ega qaysi javobda tōg'ri berilgan?
- A) chempioni bōlishi B) jahon chempioni bōlishi
 C) Muhammadqodir Abdullayevning jahon chempioni bōlishi
 D) Őzbekiston E) jahon
10. Qaysi javobda murakkab egali gap qatnashgan?
- A) Musobaqada birinchi o'rinni olganlar tōrga chiqishdi.
 B) Bu yerda kecha katta yig'in bōlgani hovlidan kōrinib turmaydi.
 C) Muhammadqodir Abdullayevning jahon chempioni bōlishi butun Őzbekiston xalqini xursand qildi.
 D) A va B E) A, B, C
11. Ot-kesimli gap qaysi qatorida berilgan?
- A) Sevimli shoirimiz Pōlat Mōmin yuksak qalb sohibidir.
 B) Aqlli o'zini ayblaydi. C) Yaxshi topib gapiradi.
 D) Iboralar ham sinonim bōla oladi. E) Yoqimli kuy yangradi.
12. Murakkab kesimli gap qatorini anitqlang.
- A) Bog'da sayroqi qushlar tinmay chug'uraydi.
 B) Donishmand xalqning mustahkam irodasiga ishonamiz.
 C) Ona tilimizni puxta o'zlashtirib olaylik.

D) Jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanadi.

E) Kōklam gullari gurkirab ōsadi.

13. Berilgan gaplarning qaysi birida ega va kesim orasida tire notōg'ri ishlatilgan?

A) Ōqish—boshqa, uqush—boshqa.

B) Aqlli ōzini ayblar, aqlsiz—dōstini.

C) Farzand—belning quvvati.

D) Kamtarlik—kishiga zeb-u ziynatdir.

E) Ōqish—ulg'ayish.

14. Quyidagi qaysi gapda ega bilan ot kesim orasida tire ishlatilishi lozim?

A) Qōshnilarim ham halol odamlar.

B) Hamma yoq top-toza, yovvoyi ōtlar yōq.

C) Ōg'limdan umidim kōp.

D) Yaxshi qiz yoqadagi qunduz, yaxshi ōg'il kōkdagi yulduz.

E) Berilgan gaplarda tire ishlatilmaydi.

15. Qaysi qatordagi gapda ega bilan ot-kesim orasida tire notōg'ri qōyilgan?

A) Otalar sōzi - aqlning kōzi.

B) Ginali dōst - adovatli dushman.

C) Men ham - kichik paxtakor

D) Va'daga vafo - mardning ishidir.

E) C va D

16. Qaysi gapda ega bilan kesim orasida tire ishlatilishi kerak?

A) Har bir bolaning eng muqaddas burchi ōqishdir.

B) Bu qiz Mahbubaning dugonasi Ozoda edi.

C) Ōqish juda katta baxt.

D) Suv bor yerda hayot bor.

E) Hayot gōzal.

17. Qaysi gap tarkibida tire (-) ishlatilishi kerak?

A) Men uchuvchiman.

B) Dōstlik ōlkamizning qudrati, shoni.

C) Bilim baxt belgisidir.

D) Ishning boshi boshlangunchadir.

E) Siz endi muhandis bōldingiz.

18. Tire notōg'ri qōllangan qatorni aniqlang

A) Ōzbekiston - mustaqil davlat. B) Til - millatning boyligi va bebaho mulkidir.

C) Men - ōqituvchiman. D) Sen - yetim emassan. E) Ona yerim - oltin tuprog'im.

19. Qaysi qatorda ega bilan kesim orasida tire notōg'ri qōyilgan?

A) Mening eng yaqin dōstim – sensan

B) Bilim olish - yuksalish

C) Besh karra besh - yigirma besh

D) Halol yashamoq - xalqqa xizmat qilmoq

E) Hunarlining qōli - gul

20. Tire notōg'ri qōllangan gapni toping.

A) Beodoblik-johillik urug'i.

B) Ota-onaga muhabbat-barcha yaxshi fazilatlarining asosi.

C) Inson-nomi bōla turib, ōzini bilmasa uyat.

D) 8-mart - xotin qizlar bayrami.

E) Bekorchilik-har qanday noma'qulchiliklarning onasi!

21. Qaysi qatorda ega bilan kesim orasida tire notōg'ri qōyilgan?

A) 8 dekabr - Ōzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni hisoblanadi.

B) Bilim olish – yuksalish

C) Besh karra besh - yigirma besh

D) Halol yashamoq - xalqqa xizmat qilmoq

E) Hunarlining qōli- gul.

22. Bog'lama ishlatilgan gapni toping

A) Humoyun dōstlarini aytib keldi

B) E.Vohidov - xalq sevgan shoir.

C) Deydilar:sog'liq hayot bergan ehson ekan.

D) Ōrmonjon tōnini teskari kiyib oldi

E) Gaplarimni kōnglingizga og'ir oldingizmi?

23. Bog 'lama ishtirok etgan gapni aniqlang
- A) Birovlarni qarg 'ash yoki sōkish gunoh.
 - B) Sōylab beray Zaynab va Omon
Sevgisidan yangi bir doston.
 - C) Pirim, Mahdumdan chopar bor.
 - D) Anvar yoshligida bōshanggina bola edi.
 - E) Bizdan boshlanadi daryo va ōrmon
24. Qaysi gapning kesimi tarkibida bog 'lama qōllangan?
- A) Komila har ikkala derazani ochib tashladi
 - B) Talabalarning ilmiy anjumani bōldi
 - C) Yoshlarning tashabbusi bilan devoriy gazeta chiqa boshladi
 - D) Har bir ishimizdan ertaning tashabbusi kelib turibdi
 - E) Ey, yaxshi odam, sening yōldoshing kitob bōlsin
25. Bog 'lamali kesim qōllangan gapni toping.
- A) Haq gapni tan olish kerak.
 - B) Samarqand Sharqning kōrkidir.
 - C) U kimnidir kutardi.
 - D) Shokir topgan-tutganni gapirib bōldi.
 - E) Kecha sinf majlisi bōldi.

4. Amaliy mashg'ulot mavzusi: Gapning ikkinchi darajali bo'laklari.

Reja:

1. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol bo'yicha nazorat savollari.
2. Mavzuga doir mashqlarni bajarish.
3. Ikkinchi darajali bo'laklar yuzasidan berilgan testlarni ishlash.

4-mavzu bo'yicha nazorat savollari:

19. Ikkinchi darajali bo'laklar haqida ma'lumot bering.
20. To'ldiruvchi deb nimaga aytiladi?
21. To'ldiruvchilar necha turga bo'linadi?
22. Vositali to'ldiruvchi haqida ma'lumot bering?.
23. Vositasiz to'ldiruvchiga misollar keltiring.
24. To'ldiruvchi qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanishi mumkin?
25. To'ldiruvchilar belgisiz kela oladimi?
26. Sodda to'ldiruvchilarning xususiyatlari nimada
27. Murakkab to'ldiruvchilarning misollar orqali tushuntiring.
28. Atributiv aloqa haqida nimalar bilasiz?
29. Aniqlovchi deb nimaga aytiladi?
30. Aniqlovchining ma'no turlarini sanab bering.
31. Sifatlovchi qanday ma'nolarni anglatadi?
32. Izohlovchining ma'nolarini sanang.
33. Sifatlovchi va izohlovchilar so'zlarga qaysi yo'l bilan bog'lanadi?

34. Qaratqich aniqlovchi qanday shakllanadi?
35. Qaralmish qanday usul bilan so'zga bog'lanadi?
36. Sodda aniqlovchining xususiyatlari nimada?
37. Hol deb nimaga aytiladi?
38. Holning ma'no turlarini sanang.
39. Tars holining ta'rifini ayting.
40. Sabab hollari qanday ifodalanadi?
41. Maqsad hollari qanday so'roqlarga javob bo'ladi?
42. To'siqsizlik holi haqida ma'lumot bering.
43. Shart holi qanday shaklda ifodalanadi?
44. Reletiv aloqani tushuntiring.
45. Daraja-miqdor holi qanday ifodalanadi?
46. O'rin holi qaysi so'z turkumlaridan ifodalanishi mumkin.
47. Payt holi qanday so'roqlarga javob beradi?
48. Payt holi qanday so'zlar yordamida ifodalanadi?
49. Maktab darsligida hol necha turga bo'lib o'rganiladi?
50. Oliy maktab darsliklarida-chi?
51. «Hol» mavzui bo'yicha qanday qo'shimcha adabiyotlarni bilasiz?
52. Polesemantik bo'laklar qaysi gap bo'lagi doirasida kuzatiladi?
53. Gapda holning o'rni qanday?

1-mashq. Gaplardagi vositali va vositasiz to'ldiruvchilarni hamda sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarni toping, shakliy paradigmasini aniqlang.

1. *U nimjon qo'llari bilan dasturxon ustidagi chiroyli piyolani oldi.* 2. *U sevinganidan qichqirib yubordi.* 3. *Siz bilan suhbatlashgani keldik.* 4. *Usta Binogul shishib ketgan oyoqlarini sudrab bosganicha zorlanib inqillaydi.* 5. *Yigit-qizlar mehnat zavqin yurakdan kuylar.* 6. *Nima uchun achchig'i chiqqanini o'zi ham bilmasdi.* 7. *Karvondagi dunyo kezman savdogarlarning maroqli gurunglari kishiga jon bag'ishlaydi.* 8. *Tarixiy joylarni tamosha qilish niyatida Samarqandga jo'nadik.* 9. *Vatan—ona so'zi naqadar laziz.* 10. *General Rahimov—o'zbekning farzandi.* 11. *Yaxshining ehsoniga baxilning boshi og'rir.* 12. *Oltin kuzni sevaman jondan.* 13. *Keksalarning oppoq soqollari namlangan edi.* 14. *Bu o'lkada har narsa bordir.* 15. *Egri so'z bosh yoradi.* 16. *Men uning to'nini teskari kiyib olishini kutmagan edim.* 17. *Chiniqqanga dard yuqmas.* 18. *Aqlli yoshlar fursatlarini bekorga sochmaydilar.* 19. *Misdek qizarib turgan yuzini ikki kafti orasiga oldi.* 20. *Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi.* 21. *Shunaqasini topsangiz, mayli, yo'q demayman.* 22. *Bo'linganni bo'ri er.* 23. *Faridaning onasi billur savatchada shokalad, kumish taqsimchada asal olib keldi.* 24. *Nabi bu gaplarni jo'rttaga baqirib aytdi.* 25. *Yurting osmoni pokizi bo'lsin, bolam.* 26. *Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafu yo'q.* 27. *Keldi ochilur chog'i, o'zliging namoyon qil.* 28. *Ular ham muhabbat zavqidan bahramand bo'ldi.* 29. *Mezbon katta chinni kosada suv olib keldi.* 30. *Don daryosi jimgina oqib turar edi.* 31. *Olaqarg'alar yaxlagan qanotlarini shaq-shaq urishardi.* 32. *U burnini osmonga ko'tarishga o'rgangan edi.*

33. *Oltinday sariq olxo'rilar tagiga to'kilib yotibdi.* 34. *Zumrad bahorni kim sevmaydi?* 35. *Rassom Alisher Mahbubaning sevimli farzandi bo'ladi.*

2-mashq. Berilgan gaplardagi hollarni topib, shakliy va mazmuniy paradigmasini

aniqlang.

1. Bu gapni ayta-ayta charchadim. 2. Oysulton charchasa ham ishini davom ettirdi. 3. Katta qizi ikkita piyola olib keldi. 4. Anorxon—o'z Vatanini chin yurakdan sevgan. 5. Sizlarning ana shu yo'ldagi xayrli ishlarigizda omad yor bo'lsin, xonadonlaringizga qut-baraka tilayman. 6. Bugun imkonsiz bo'lgan narsa ertaga o'z echimini topadi. 7. Siz uchun butun umr sadoqatli va yagona do'st kitob bo'lib qoladi. 8. Siddiqjon ertasiga qushday bo'lib turdi. 9. Paxtalar qiyg'os ochildi. 10. Ko'zi yaxshi ko'radi. 11. Holdan toygan bo'lsam ham o'sha tomonga yugurdim. 12. U yaxshi uxlay olmagan bo'lsa ham topshiriqni birinchi bo'lib bajardi. 13. Uydan chiqayotgan odam atrofga olazarak bo'lib qaradi. 14. Bugundan tayyorgarlikni boshlasang, bemalol ulgurasan. 15. Buxoroni tamosha qilishga keladigan sayyohlar shu mehmonxonada yashaydilar. 16. U o'qish niyatida shaharga keldi. 17. Uni yo'qlaganim uchun ham ko'rmaslikka harakat qilaman. 18. Hafaligidan o'zini chetga olishga tirishdi. 19. O'zini qaerga qo'yishini bilmay sekin chiqib ketdi. 20. Biz bu yerda kechani kecha, kunduzni kunduz demay, qora terga botib ishlaymiz. 21. Bolalar piq-piq kulishardi. 22. Tog'dan suvlar sharqirab oqa boshladi. 23. U Zaynabning begonalab borayotganini yaxshi anglar edi. 24. Xushchaqchaq odamlar tez tuzalishadi.

3-mashq. Berilgan gaplarni grammatik tahlil qiling va gap bo'laklari tartibiga e'tibor qiling.

1. Keldim men bugun ishga kechikib. 2. Men sizga kitob keltirdim. 3. Nega buncha go'zal ko'rinar olam! 4. Seni tark etmasin shirin orzular. 5. Hayotning zavqidan ko'pdir tashvishi. 6. Qaddi uning salomga keldi. 7. Yellar bir daqiqa to'xtang esishdan. 8. Umring seng o'qilmagan kitobdir. 9. O'yin, qo'shiq, so'zlardan ko'ngillar titrar asta. 10. Quyosh chiqdi yer yuziga charaqlab. 11. Qalbimdan oqmoqda bir daryo qo'shiq. 12. YAxshilar diydorini qo'msaydi doim ko'ngil. 13. Jiddiylashtirib o'tirma hazil tariqasida aytilgan gapni. 14. Ko'p narsani o'rgatdingiz siz menga. 15. Tanish bu yo'llar menga. 16. Juda ulug' va muqaddasdir tarbiyasi unvoni. 17. Oltin bilan olib bo'lmas singan ko'ngilni. 18. Shovulladi tun bo'yi shamol.

4-mavzu bo'yicha topshiriqlar. Berilgan test variantlarini yechish va to'g'ri javoblarni izohlash.

I variant

1. Qaysi gap bōlagi kesim bilan bevosita bog'lanmaydi, ya'ni bilvosita—boshqa bir bōlak orqali bog'lanishi mumkin?

A) ega B) kesim C) tōldiruvchi D) aniqlovchi E) C va D

2. Gapni, uning ayrim bōlaklarini kengaytirishga, aniqlashga xizmat qiluvchi bōlaklarni

belgilang.

A) bosh bōlaklar

B) ikkinchi darajali bōlaklar

C) tōldiruvchi va hol

D) aniqlovchi

E) A va B

3. Ayol sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq kōchaga otildi. Ushbu gapda

necha murakkab hol qatnashgan?

A) 3ta B) 2ta C) 1ta D) 4ta E) murakkab hol
yōq

4. Murakkab hollarning ifodalanishi qaysi javobda berilgan?

A) takror sōzlar bilan B) sōz birikmasi bilan C) iboralar bilan

D) kengaygan birikmalar bilan E) barcha javoblar tōg'ri

5. Javoblarning qaysi birida murakkab hol qatnashgan?

A) Tursunali bir-bir bosib minbarga chiqdi.

B) Rais vazifaning zarurligini takror-takror ta'kidladi.

C) Anzirat dunyodan kōzi ochiq ketdi.

D) Bunda bor harorat, muhabbat, shafqat.

E) A, B, S

6. Urush boshlanganda, u kōkrakdan ajralmagan gōdak edi. Ushbu gapda holning qaysi turi qōllangan?

A) murakkab payt holi

B) murakkab vaziyat holi

C) ōrin holi

D) miqdor holi

E) sabab holi

7. Qaysi qatorda murakkab holli gap qōllangan?

A) Bolalar adabiyoti sōz san'ati va tarbiya vositasidir.

B) Xalq og'zaki ijodida maqollarning ōziga xos ōrni bor.

C) Bilimdan ortiq boylik yōq.

D) Til shirinligi—kōngilga yoqimlidir.

E) Oynisa stol ustidagi choynakni kōtarib, sovuq suvni qult-qult ichdi.

8. Javoblarning qaysi birida daraja miqdor holi berilgan?

A) Hozir yulduzlar charaqlab turardi.

B) Dunyoda tinchlik bōlsin.

C) Bola epchillik bilan turdi.

D) Guruchni qopi bilan olishdi.

E) Uni taniganida bunday demasdi.

9. Shart holi berilgan javobni toping.

A) Uni taniganida bunday demasdi.

B) Hammani kuldirish uchun atay shunday kiyindi.

C) Istasa toshni tilla qiladi.

D) Arzimagan narsa uchun janjal kōtarardi.

E) A va S

10. Javoblarning qaysi birida ikkita maqsad holi qatnashgan?

A) Uni taniganida bunday demasdi.

B) Hammani kuldirish uchun atay shunday kiyindi.

C) Istasa toshni tilla qiladi.

D) Arzimagan narsa uchun janjal kōtarardi.

E) A va C

11. Qurol-vosita holi berilgan qatorni belgilang.

A) Dunyoda tinchlik bōlsin.

B) Xat qalam bilan yozilgan edi.

C) Kam de, oz ye—kōp yashaysan.

D) Men ularga pastkashlardek

yalinmayman.

E) Gōlligi sababli har yerda kaltak yeydi.

12. Gaplarning qaysi birida murakkab payt holi berilgan?

A) Shodmonbek zarbdan kōzi tinib xushdan ketdi.

B) Bu gapdan Abduqodir qotib qolib, nima qilarini bilmay qoldi.

C) Nasiba bilan Sharifa arazlaganda, Dildora ularni yarashtirib qōydi.

D) Yangi g'oyaga qarshilik kuchli bōlganda, Olimjon bunday demasdi.

E) C va

D

13. Quyidagi gaplarning qaysi birida murakkab vaziyat holi qatnashgan?

A) *Ōng qōlni kōkrakka qōyib, boshni sal egib, lablarda mayin tabasum bilan salom bering.*

B) *Biror muammo ustida bosh qotirayotganingizda bir mayin kuyni tinglash fikrni teranlashtiradi.*

C) *Muhammadsaid inshoni tugatgach, uni diqqat bilan yana bir karra oqidi.*

D) *Durdona qozon-tovoqlarni yuvib, idishlarni javonga tergach, videofilm tomosha qilish uchun televizorni yoqdi.*

E) *B, C va D*

14. *Sevaraxon choyni keltirib, dasturxon yozgach, shirinliklarni olish uchun javon oldiga bordi. Ushbu gapda necha murakka hol berilgan?*

A) *3ta* B) *2ta* C) *1ta* D) *4ta* E) *murakkab hol*

yōq

15. *Qaysi qatorda ravishdoshga xos vazifalar tōg‘ri kōrsatilgan?*

A) *fe‘lni hol vazifasida ixtisoslashtiradigan maxsus shakl*

B) *kōmakchi fe‘llarga boshqa bir fe‘lni bog‘lab, harakat tarzi shaklini yasashga xizmat qiladi*

C) *kengaygan shaklda bir fe‘lni 2-fe‘lga bog‘lab, murakkab hol bōlib keladi*

D) *kengaymagan shaklda bir fe‘lni ikkinchi fe‘lga bog‘lab, sodda hol bōlib keladi*

E) *barcha javoblarda ravishdoshga xos vazifalar tōg‘ri kōrsatilgan*

16. *Qaysi javobda vositasiz tōldiruvchi otlashgan sōz bilan ifodalangan?*

A) *Birni kessang, ōnni ek.* B) *Ōtirganlar otning dupur-dupurini baralla eshitishdi.*

C) *Bechoraning oh-u dodini tinglang, hazratim.* D) *A, B, S*

E) *Kerilganning tōyini kōr.*

17. *Javoblarning qaysi birida murakkab vositasiz tōldiruvchi qatnashgan gap berilgan?*

A) *Kelinlar aytadi alla, qōshiqchilar kuylaydi yalla.*

B) *Yordamchi buyruq bajarilganini ma‘lum qildi.*

C) *Akbar bilan Dilshodaning yonma-yon yashashlarini endi bildim.*

D) *A va B* E) *B va C*

18. *Kengaygan sifatdash birikmalari bilan ifodalangan vositasiz tōldiruvchi qatnashgan gap berilgan qatorni belgilang.*

A) *Murabbiya bolalar zavq bilan ōynayotganini kōrdi.*

B) *Ulug‘ bobomiz Beruniyning 152ta asar yozganini, 1036-yilgacha yaratgan kitoblarining rōyxatini shaxsan ōzi tuzganini bilamiz.*

C) *Harbiy ta‘lim oqituvchisi Vatanni mardlar qōriqlashini ta‘kidladi.*

D) *A va B* E) *A, B, C*

19. *Chaqmoqning yalt-yultidan bola qōrqdi. Ushbu gapda vositali tōldiruvchi qaysi sōz turkumi bilan ifodalangan?*

A) *taqlid sōz bilan* B) *ot bilan* C) *fe‘l bilan*

D) *otlashgan taqlid sōz bilan* E) *undov bilan*

20. *Aniqlanmishning millati, jinsi, kasb-kori, nasl-nasabi, unvoni, laqabi, yoshi,*

qarindoshligi kabi qōshimcha belgilarni tavsiflovchi aniqlovchilar nima deb yuritiladi?

- A) izohlovchi B) sifatlovchi C) qaratqich D) sifatlanmish E) qaralmish
21. “Ayol hamshira—hamshira ayol” birikmalarida izohlovchi-aniqlovchilar qaysi javobda tōgʻri berilgan?

- A) birinchisida hamshira, ikkinchisida ayol
B) har ikkalasida ham birinchi sōz izohlovchi-aniqlovchi
C) har ikkalasida ham ikkinchi sōz izohlovchi-aniqlovchi
D) birinchisida ham, ikkinchisida ham “hamshira” sōzlari izohlovchi-aniqlovchi
E) tōgʻri javob berilmagan

22. Atoqli ot tarkibiga singib, u bilan bir butunlik hosil qiluvchi va qōshib yoziluvchi sōz-izohlovchilar qaysi javobda berilgan?

- A) said, shox, xōja B) bek, mir C) mulla, boy
D) A va B E) A, B va C

23. Qaysi sōz birikmalarida murakkab aniqlovchilar mavjud?

- A) ogʻzi ochiq shisha, usti yopiq rasta
B) qōli gul usta, kōzi tōq kishi
C) sichqondan katta hayvon, hunarga qiziquvchi òquvchi
D) qop-qop un, qizildan tōgroq rang, chelak-chelak suv
E) barcha sōz birikmalarida murakkab aniqlovchilar mavjud.

24. Izohlovchi qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Mavlono Jomiy tashrif buyurdilar.
B) 1998-yil 13-may kuni Őzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 203-sonli Qarori qabul qilindi.
C) Ingliz muhandis loyahasini tinglovchilarga havola qildi.
D) A va C E) A, B va C

25. Ot arava va tuya aravalar bemalol kirib chiqadigan darvozasi lang ochilgan

Karvonsaroy sahni hali bōm-bōsh. Ushbu gapda necha gap bōlagi bor?

- A) 3ta B) 5ta C) 8ta D) 7ta E) 10ta

II variant

1. Ot arava va tuya aravalar bemalol kirib chiqa oladigan darvozasi lang ochilgan karvonsaroy sahni hali bōm-bōsh. Ushbu gapdagi murakkab aniqlovchi necha sōzdan va necha sōz birikmasidan iborat?

- A) 12 sōz va 7 sōz birikmasi. B) 10 sōz va 5 sōz birikmasi
C) 3 sōz va 2 sōz birikmasi D) 7 sōz va 3 sōz birikmasi
E) 7 sōz va 5 sōz birikmasi

2. Vositasiz tōldiruvchi qōllangan gap qaysi qatorda berilgan?

- A) Bir kunliu adolat—yuz kunlik toat-ibodatdan afzal.
B) Bilim, maʼrifat yaxshi axloq bilan bezanmogʻi lozim.
C) Ilm kōpga yetkazar, hunar esa kōkka.
D) Őzbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi. E) Aqldan ortiq boyluk yōq.

3. Ikkinchi darajali bōlaklar qanday gaplar tarkibida ishtirok etadi?

- 1) bir bosh bōlakli gap 2) ikki bosh bōlakli gap

- 3) yig‘iq sodda gap 4) yoyiq sodda gap
 A) 4 B) 3, 4 C) 1,2,4 D) 2,3,4 E) 2, 4

4. Tõldiruvchining grammatik belgisi notõg‘ri kõrsatilgan qatorni toping
 A) tõldiruvchi odatda boshqa sõzlarga boshqaruv yõli bilan bog‘lanadi.
 B) tõldiruvchi tushum kelishigidagi sõz bilan belgili yoki belgisiz qõllanishi mumkin
 C) tõldiruvchi õrin-payt, chiqish, jõnalish kelishiklari shaklida bõlishi mumkin.
 D) tõldiruvchi kõmakchilar bilan birga kelishi mumkin.
 E) tõldiruvchi õzi bog‘langan sõzga nisbatan tobe yoki hokim sanalishi mumkin.
5. Tushum kelishidagi sõz qanday gap bõlagi vazifasida kelishi mumkin?
 A) hokim va ikkinchi darajali bõlaklar vazifasida
 B) ikkinchi darajali bõlaklar vazifasida C) tõldiruvchi va hol vazifasida
 D) ega va tõldiruvchi vazifasida E) tõldiruvchi vazifasida
6. Chiqish kelishigidagi sõz gapda qaysi sintaktik vazifalarda kela oladi?
 A) faqat hol vazifasida B) faqat tõldiruvchi vazifasida
 C) hol va tõldiruvchi vazifasida D) hol, tõldiruvchi, kesim vazifasida
 E) hokim va ikkinchi darajali bõlaklar, undalma vazifasida
7. Fe‘lning qaysi shakllari gapda hol vazifasida keladi?
 A) sifatdosh shakli B) harakat nomi shakli
 C) faqat ravishdosh shakli D) A va C E) A, B va C
8. Gõshti sizning, ustuxoni mening bõlg‘ay. (Furqat)
 Ushbu gapda qaratqich kelishigi qaysi vazifada qõllangan?
 A) qaratqich aniqlovchi B) uyushgan qaratqich aniqlovchi
 C) tõldiruvchi D) kesim E) A va B
9. Qaratqich aniqlovchi qõllanilgan qatorni aniqlang.
 A) Zaynab uch tõrt oyning ichida õzgarib qoldi. B) Sening bilan olam munavvar.
 C) Gõshti sizning va ustuxoni mening bõlg‘ay.
 D) Barcha javoblarda qaratqich aniqlovchi qõllangan.
 E) Berilgan gaplarda qaratqich aniqlovchi qõllangan emas.
10. Egali gapni aniqlang.
 A) Jasorat maqsad sari boradigan yõlni osonlashtiradi.
 B) Bolaligimdan hayotni sevaman. C) Jindek arz qilib keldik.
 D) Qiziqmasang, ishga õrganolmaysan.
 E) Aqliy mehnatdan jismoniy mehnatni kõproq yaxshi kõraman.
11. Berilgan gaplardan qaysi birida chiqish kelishigidagi vositasiz tõldiruvchi bor?
 A) Rais xõjalikning yarim yerini aylandi B) Yõlchi kentgacha yõlni piyoda õtdi
 C) Sayyoh dunyoning yarmini kezib chiqdi
 D) Mehmon dasturxondagi taomlardan chimdib õtirdi
 E) Mezbon mehmonga tõrni taklif qildi
12. Egali (ikki bosh bõlakli) gap qaysi qatorda berilgan?
 A) Ichimizda aqli baloga yetadiganlar topiladi. B) Dehqon bõlsang, shudgor qil.
 C) Tinchlikni asrang, dõstlar D) Eh, yuragi pora - pora bõlgan Xõjanazar

aka.

E) *Salom senga, polosonlik Haydar kapitan!*

13. *Onalarning kōz yoshlari esingda tursin (Said Ahmad)*

Mazkur gapdagi qaralmish qaysi qatorda tōg 'ri kōrsatilgan?

- A) *yoshlari* B) *kōz* C) *kōz yoshlari*
D) *kōz va yoshlari* E) *onalarning, kōz, yoshlari*

14. *Vositasiz tōldiruvchi qaysi javobda berilgan?*

- A) *Baxt sog 'liqqa ōxshaydi: u bor bōlsa, payqamaysan.*
B) *Vaqt va suv toshqini hech qachon kutib turmaydi*
C) *Mehnat odamni yuksaklikka kōtaradi.*
D) *Ikkilanish kuchni yōqotish demakdir.* E) *C va D*

15. *Kōmakchi bilan qōllangan vositali tōldiruvchini aniqlang.*

- A) *Vaqt hamma jarohatlarni davolaydi.* B) *Baxtsizlik faqat kurash bilan engiladi.*
C) *Muhayyo bu sodda, beg 'ubor bolaga havas bilan qaradi.*
D) *Yoshlik kishiga faqat bir marta beriladi.*
E) *Yoshlikdagi yanglishishlarni kechirmoq kerak.*

16. *Otlashgan sōz bilan ifodalangan tōldiruvchini toping.*

- A) *Tekkanga tegib, tegmaganga tosh otadi.*
B) *Biz keksalarning donoligidan juda kam foydalanamiz.*
C) *Yoshlikda nimani eksang, ulg 'ayganda ōshani ōrasan.* D) *A va B* E) *A va C*

C

17. *Otlashgan sōz bilan ifodalangan bōlak qaysi javobda berilgan?*

- A) *Yaxshi kulgan odam - yaxshi odam.* B) *Fidokor kishilar quyoshdek zarur.*
C) *Ezgu nom gōzal chehradan afzalroq.*
D) *Tashqi qiyofani bezayvermasdan ma 'naviy olamni bezash kerak.*
E) *Qushlarning chug 'ur - chug 'urida ham tashvish ohanglari bor.*

18. *Sodda yig 'iq gap qaysi javobda berilgan?*

- A) *Havo salqin.* B) *Mard odam boshqalarga qaraganda himmatliroq bōladi.*
C) *Yashash-harakat qilmoq.*
D) *Bolalikka buyuk hurmat - ehtirom bilan qarash lozim.* E) *A va C*

19. *Ibora bilan ifodalangan tōldiruvchini aniqlang.*

- A) *Dam-badam xushini yōqotib, alahlay boshladi.*
B) *Muqaddas yotoqxonaga kirib ketishi bilan, men ham xushimga keldim.*
C) *Bu yil mōl-hosil olsak, qōlimiz baland bōlishini unutmang, azizim!*

D) *Ōtgan har daqiqa Salim akaning jahlini avjga mindirayotganini sezdi.* E) *C va D*

20. *Tōldiruvchi kōpincha qaysi bōlakka bog 'lanadi?*

- A) *egaga* B) *kesimga* C) *tōldiruvchiga* D) *aniqlovchiga* E) *holga*

21. *Quyidagi gaplarning qaysi birida tōldiruvchini belgisiz ishlatish mumkin?*

- A) *Saida yōlda Kozimbekni uchratdi.*
B) *Saida bu xotinni qayerdadir kōrganday bōladi.*
C) *Uzoq vaqt hayotda yōlini topolmay yuribdi.*
D) *Eshon chamadonni siltab elkasiga oldi.*
E) *barcha gaplarda belgisiz ishlatish mumkin emas.*

22. *Siz bilan birga ishlash hammaga ham nasib qilavermaydi.*

Ushbu gapdagi kōmakchili tōldiruvchi qaysi bōlakka tobelangan?

- A) egaga B) kesimga C) tōldiruvchiga D) holga
 E) Mazkur gapda kōmakchili tōldiruvchi qōllanmagan.
23. Tarkibida sifatlovchi- aniqlovchi qatnashgan gapni toping.
 A) Yaproqlar asta shitirladi B) Yuzlarida mayin tabassum paydo bōldi.
 C) Xushfe'l qariyalar keksalikni yaxshi otkazishadi.
 D) Kasallikning ittifoqchisi bemorning umidsizligidir. E) B va C
24. Qaysi javobda qaratqich-aniqlovchi qōllangan?
 A) Ma'naviy sovuqqonlik ota oqimishli kishilar kasalligidir.
 B) O'z uyida baxtli bōlgan kishigina baxtlidir.
 C) Boshqalarning baxtini oylab, o'z baxtimizni ham topamiz.
 D) Jamiyatimizning maqsadi hammani baxtiyor qilishdir.
 E) Barcha javobda qaratqich-aniqlovchi qōllangan.
25. Otlashgan sōz bilan ifodalangan aniqlovchi qaysi javobda berilgan?
 A) Dengiz yozda atrofdagi haroratni pasaytiradi.
 B) Doimiy mehnat san'atning ham, hayotning ham qonunidir.
 C) Ulug' odamlar hamisha taomda tiyinganlar.
 D) Aql insonning ma'naviy qurolidir. E) Yomonning jazosini bergani tez bor.

III variant

1. Maqsad holi berilgan gapni toping.
 A) Hamma orzularimiz birga ushalsin deb, chin yurakdan intildik.
 B) Yangi yil kunlari Saodat, Feruza va Shahnoza archa bayramiga borishdi.
 C) Ular tepa ustidagi yakka qayrag'och salqinida dam olgani o'tirdilar.
 D) Chang chiqsin deb, derazalarni ochib qōydik.
 E) Bekat yaqin bōlgani uchun, poezd sekinlanib borardi.
2. Miqdor holi qaysi gap tarkibida qōllangan?
 A) Buyuk ishlar tezda yuzaga chiqmaydi.
 B) Yangilikka kōproq e'tibor berilsin.
 C) Bitta dushmaning ham kōp, dōstlaring mingta bōlsa ham-oz.
 D) Odam ikki marta yashamaydi, lekin bir marta yashashni ham bilmaydiganlar bor. E) B va D
3. Tōldiruvchi qōllangan gapni toping.
 A) Bog'imizga olma, o'rik va nok kabi mevali daraxtlar o'tqazdik.
 B) Ezgulik insonning ma'naviy olamidagi quyoshdir.
 C) Chehrasi ochiq kishining qalbi ham ochiq.
 D) Yaxshi otkazilgan umr baxt - saodat hisoblanadi.
 E) Vaqt mavjud vositalarning eng qimmatlisidir.
4. Vositali tōldiruvchi qōllangan gapni aniqlang.
 A) Hamma yerda va har qachon tartib saqlang.
 B) Har kuni biron-bir burchni ado etish - ajoyib ish.
 C) Insonning mohiyati uning xohishlarida aks etadi.
 D) Haqiqat rahmdillikdan baland turadi. E) C, D
5. Kōmakchi yordamida shakllangan vositali tōldiruvchini aniqlang.
 A) Yaxshilik yomonlik bilan, haqiqat yolg'on bilan hech qachon kelishmagan.

- B) Men qōshiqni zavq bilan tingladim.
 C) Biron-bir narsani sevgan kishigina biron - bir qadr-qimmatga ega bōladi.
 D) Bilmay xato qilib qōygan odamlarga uncha g‘azab sochmaslik kerak E) A, B
6. Vositasiz tōldiruvchi qōllangan gapni aniqlang.
 A) Xotira va vijdon hech qachon bōhtonni kechirmagan va kechirmaydi.
 B) Narsalarga qiziqishing yōqolsa, xotirangdan ham ayrilasan.
 C) Fanda darslarni yodda tutish uchun ularni takrorlab turish kerak.
 D) Bilimdan qudratliroq kuch yōq. E) A, C
7. Ibora bilan ifodalangan tōldiruvchini toping.
 A) Tun bōyi yuragini hovuchlab, kōchaga qarab ōtirish osonmi?
 B) Nazokatxon hushomad qilib, kōnglini olishga intilardi.
 C) Professor ham kōnglini kōtarish uchun aytgan edi.
 D) Keksa me‘mor Gavharni kōp tilga olibdi. E) B, D
8. Otlashgan sifat bilan ifodalangan vositali tōldiruvchini toping.
 A) Ōktam qizg‘in va baland ruh bilan terimga kirishdi. B) Nodonga ulfat bōлма.
 C) Agar senga g‘oya yoqib qolsa, undan ruhlan.
 D) Mard nomardga tiz chōkmas. E) B, D
9. Aniqlovchi qōllangan gapni kōrsating.
 A) Bu qarashlarga, bu jimlikka chiday olmaganday, otilib chiqib ketdi.
 B) Chōpon mollarni ōtloq tomonga haydab ketdi.
 C) Burgut tezlik bilan pastga qarab ōqdek otildi. D) Atrof yam-yashil.
 E) Uy kichkina, lekin yorug‘ va toza edi.
10. Ot bilan ifodalangan sifatlovchi-aniqlovchili gapni toping.
 A) Oq, qizil, pushti rang gullar quyosh nuridan rang-barang tovlanadi.
 B) Bahorni yoqimli shabadasi kishiga orom beradi.
 C) Endi tuproq yōldan yurishimizga tōg‘ri keladi.
 D) Poyonsiz dalalar oq libos kiydi. E) C, D
11. Olmosh bilan ifodalangan qaratqich - aniqlovchili gapni belgilang.
 A) Hushchaqchaq odamning buguni ham, ertasi ham quvnoq ōtadi.
 B) Yaxshi kulgi ruhni sog‘lomlashtiradi. C) Odamning guli hamisha quvnoq odam.
 D) Bizning butun qadr - qimmatimiz tafakkurda jamlangan.
 E) Keksalarning insoniy zaiqliklariga nibatan muruvvatli bōling.
12. Sifatdosh bilan ifodalangan aniqlovchi qaysi qatorda berilgan?
 A) Biror marta ham kulmagan kuningiz - siz uchun yōqotilgan kun.
 B) Odamlarning haqiqiy fe‘l - atvori kulganlaridagina chinakam namoyon bōladi.
 C) Hazilning tagida hamisha jiddiy niyat yashiringan bōladi.
 D) Jonli sōz mō‘jizalar yaratadi. E) A, D
13. Qaysi gapda aniqlovchi ibora bilan ifodalangan?
 A) Qizni tashvishga solgan qiyinchiliklar nima bōlishi mumkinligi tōg‘risida yigit uzoq bosh qotirdi?
 B) Ertalab aytgan gapini kechqurun ōzi tan olmaydi.
 C) Hamma bir ovozdan taklifni ma‘qulladi.
 D) Nima ish qilganimni bir chekkadan gapirib beray? E) A, D

14. -ning qōshimchasiz ("belgisiz") bōlgan qaratqich - aniqlovchi qaysi gapda berilgan?

A) Hatto kōpchilik ovoz ham adolat ōlchovi bōlolmaydi.

B) Odamlar adolatni sevishlari uchun adolatsizlik oqibatlarini kōrsatib turmoq zarur.

C) Halol ish tutaman desang, kōpchilik manfaatini kōzla va faqat unga e'tiqod qil.

D) Ōz qobiliyatini kōz - kōz qilmaslik hamisha iste'dod ka folatidir. E) A, B, C, D

15. Izohlovchi qōllangan gapni toping.

A) Xalqimizning eng oliy ōziga xos fazilati uning haqqōylik tuyg'usi va unga tashnaligidir.

B) Bu elning faxridir shoir Alisher...

C) Yaxshi dōst - tunganmas xazina.

D) Ona tili ōqituvchisi Mavlonqulov - ōz kasbining mohir ustasi, bilimdoni.

E) B, D

16. Fe'l-kesimga bog'lanib, uning belgisini bildirgan bōlak qaysi gapda qōllangan?

A) Iroda, did va fikrlar uyg'unligi dōstlik zaminini tashkil etadi.

B) Dōstona aloqalar umrboqiy bōlmog'i kerak.

C) Dōstlikdadir obrō, kuchimiz,
Shu dōstlikni olqishlaylik biz.

D) Dōstlar kōmaklashganda, har qanday omadsizlik ham asta chekinadi.

E) Dōstlar diydoridan ortiq quvonch yōq.

17. Ōrin holi ishtirok etgan gapni belgilang.

A) Ma'lum bōldiki, Qalandarov qishloqqa jōnabdi.

B) Ōz qusuringni anglashing kamolatga yetaklaydi.

C) Yōlchi Unsunni eshik oldida tōxtatdi.

D) Sustkashlik faqat g'azablangan vaqtdagina foydali.

E) A, C

18. Ot bilan ifodalangan payt xoli qaysi gapda berilgan?

A) Yoshlik - dovyuraklik fasli.

B) Yoshlikdagi gunohimizni keksayganda yuvishga tōg'ri keladi.

C) Yoshlik bilan keksalik orasidagi muddat naqadar qisqa.

D) Yoshlikda ōqishning izidan qolmadi.

E) Sabr va vaqt kuch yoki ixtirosiga nisbatan kōproq samara keltiradi.

19. Miqdor holi qōllangan gapni aniqlang.

A) Kōp kitob sotib oldim.

B) Bu gaplarning kōpini inkor etdim.

C) Biz keksalarning donoligidan juda kam foydalanamiz.

D) Kim kōp gapirsa, be'manilikni ham kōp gapiradi.

E) C, D

20. Son bilan ifodalangan miqdor holining qaysi gapda berilganligini aniqlang.

A) Erta bilan eshik oldida besh-olti kishi turgan edi.

B) Sizni ikki-uch chaqirdim, eshitmadingiz.

C) Toshkent ming-minglab kishilarni ōz quchog'iga olgan edi.

D) Bog'da yoz bōyi doim ikki-uch kishi ishlab turadi.

E) B, D

21. Ravish bilan ifodalangan vaziyat hol (ravish holi) qaysi gapda berilgan?

A) Yaxshi yeydi oshini, yomon yeydi boshini. B) Yōlovchi issiq-issiq choy ichdi.

C) Xushchaqchaq odamlar tez tuzalishadi.

D) Buni ot sezib, yurishini sekinlatdi.

E) C, D

22. Vaziyat (ravish) holi qaysi gapda sifat bilan ifodalangan?
 A) Onda-sonda õyinqaroq bolalar, tirikchilik bilan yurgan kattalar kōrinadi.
 B) Ishlaringni tezroq bajar.
 C) Kundan-kun Zaynabning susayib, õziga begonalashib borganini yaxshi anglardi
 D) Yaxshi oshini yer, yomon - boshini. E) C, D
23. Fe'ning ravishdosh shakli bilan ifodalangan vaziyat (ravish) holi qaysi gapda berilgan?
 A) Yangi supurgi yangicha supuradi, deb tōg'ri aytarkanlar.
 B) Ma'mura kichik-kichik hikoyalarni sevib õqiydi.
 C) Uzoq yashash emas, tōg'ri yashay bilishing muhimdir.
 D) Tog'dan suvlar sharqirab oqa boshladi. E) B, D
24. Taqlid sōz bilan ifodalangan vaziyat (ravish) holi qaysi gapda berilgan?
 A) Bolalar bir-birlarini turtishar, piq-piq kulishardi.
 B) Hech narsa kōrinmadi, pixillagan ovoz yana takrorlanadi.
 C) Mushuk ham unga pishillab yaqinlashardi.
 D) Vujudi lov etib, yuragi duk-duk ura boshladi. E) A, D
25. Qaysi gapda hol ibora bilan ifodalangan?
 A) Biz bu yerda kechani kecha, kunduzni kunduz demay, qora terga botib ishlaymiz.
 B) Umrzoq aka uncha-muncha narsaga parvo qilmaydigan, yuragi keng odam edi.
 C) Ular õzlarini qayerga qōyishni bilmay yugurishadi.
 D) Shu bōldi-yu, Boqijon aka tōnini teskari kiyib oldi. E) A, C

5. Amaliy mashg'ulot mavzusi: Egali va egasiz gaplar (Bir sostavli gaplar)

Reja:

1. Egali va egasiz gaplar (Bir sostavli gaplar) bo'yicha nazorat savollari.
2. Mavzuga doir mashqlarni bajarish.
3. Bir sostavli gaplar yuzasidan berilgan testlarni ishlash.

5-mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Bir sostavli gaplar deganda nimani tushunasiz?
2. Egali gap qanday bo'ladi?
3. Egasi ifodalanmagan gaplar qanday turlarga bo'linadi?
4. Shaxsi ma'lum gap.
5. Shaxsi umumlashgan gaplar.
6. Egasiz gap nima?
7. Egasiz gapning turlari?
8. Shaxsi noma'lum gaplar?
9. Nominitiv gaplar.
10. Atov gaplar.
11. Yoyiq atov gaplar.

12. Vokativ gaplar.
13. Infinitiv gaplar.
14. So'z-gaplar.
15. So'z-gaplarning ko'rinishlari.

1-mashq. Berilgan gaplarni egasiz gaplar bo'yicha tahlil qiling.

1.Xom suvni ichib bo'lmaydi. 2.Kecha tsirkk bordik. 3.Ura. Biznikilar g'olib kelishdi. 4.O'zing suv ichadigan quduqqa tupurma. 5. Biznikida papiros chekilmaydi. 6.Tokni xomtak qilish kerak. 7. Yeng ichida ish qiladi. 8.Paxtakor o'zbekman – zabardast, mag'rur. 9.Tashakkur, Alisher. 10. Sening bundan xabaring bormi? 11.Balki, zavod qurish uchun ovoro bo'lishga to'g'ri kelmas. 12. Marg'ilonda kichiklarni ham sizlashishadi. 13.Rejani qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. 14.Topshiriqni o'z vaqtida bajaring. 15.Yomon urug'dan yaxshi hosil kutma. 16.Qish. Atrof oppoq qor. 17.Zalda chekilmasin. 18.Talaba bo'lish. Bu men uchun eng muhimi. 19.Xatodan jinoyatni ayira bilish lozim. 20.Avtobusga orqa eshikdan kiriladi.

2-mashq. Bir sostavli gaplarni turlarga ajrating.

1.Yaqin kunlarda imtihondan o'tamiz. 2.Umr bo'yi bilimni boyitib borish lozim. 3.Marhamat. Ichkariga kiring. 4.Birovningg izidan gapirma. 5. Kitoblarni kutubxonaga topshirgani ketdi. 6. Sharqda savdogarlarga hurmat bilan qaraladi. 7.Toshdan gavharni farq qilish kerak. 8. Mana Hirot. Hamma motomda. 9. Insonni bilish uchun uni sevish kerak ekan. 10.Kiyimni bo'yga qarab bichadilar. 11.Yaxshilik qilganga zinhor yomonlik qilma. 12.Mehnat bilan hamma narsaga erishsa bo'ladi. 13.YOtoqxona derazasi. Bu derazadan kimlar qaramagan. 14.Siz ham shunday o'ylaysizmi? – Yo'q. 15. Hamma narsaga asta sekinlik bilan erishiladi. 16.Qish kunlari edi. Mayda-mayda qor yog'ib turardi. 17. Bir tup tok eksang, bir tup tol ek. 18. Doimo yaxshi niyat tilab yashash darkor. 19.Qulluq, qulluq Dilbarxon. 20. Xumoxonning derazasi. Ichkaridan potefon ovozi eshitilardi.

3-mashq. Har bir gapni sintaktik tahlil qiling va bir bosh bo'lakli gapning qaysi turiga

mansubligini aniqlang.

1. U yerga ishdan keyin borilsin. 2.Bu yerda baribir o'rgana olmayman. 3.Chinakam adabiyotni ilhomsiz yaratib bo'lmaydi. 4.Mard bo'lsang maydonga chiq. 5.Ko'rmanani tashlab ketmaysizmi, xola. 6. Harkatsiz hech narsaga erishib bo'lmas ekan. 7.Sizdan uzr so'rayman. 8.Zolimdan vafu tilama. 9. Xalqqa suyansang bo'lasan, xalqdan chiqsan so'lasan. 10. Hazilni ham me'yorda ishlatish joiz. 11.Soatlarninog har bir daqiqasini qadrla. 12. So'zimning ustidan chiqaman. 13.Atamalarni tartibga solishda me'yorni unitmaslik kerak. 14.Voy-dod. Zolimning dastidan dod. 15.Gunohsiz ekanimni isbot qilish mushkul bo'lmadi. 16.Bo'ldiradigan ham xotin. 17.Soat birdan yigirma daqiqa o'tdi. 18.Bu yerda nima qilyapsiz? 19.YAxshilikni minnat uchun qilmaydilar. 20. Xonaga kirgan avval salom beradi. 21.Bu gap esingizdan chiqmasin. – Xo'p, taqsir. 22. Assalomu alaykum, otaxon. 23.Eshik ochiq bo'lsa ham, so'rab kir. 24. Subhidam. Quyosh yotog'idan bosh ko'tardi. 25. – Mayli.

5-mavzu bo'yicha topshiriqlar. Berilgan test variantlarini yechish va to'g'ri javoblarni izohlash.

I variant

1. Qaysi qatorda egasi umumlashgan gap berilgan?
A) Hurmat qilsang, hurmat qilasan. B) Avtobusda orqa eshikdan kiriladi.
C) Qish. Atrof oppoq qor bilan qoplangan D) A va B
2. Qanday hollarda egani tushirib bōlmaydi?
A) Gapda harakat bajaruvchisi ta'kidlanishi zarur bōlsa
B) Ega-kesim qurilishli iboralarda C) Hamishi egani tushirish mumkin D) A va B
3. Qanday gaplarda ega umuman bōlmaydi?
A) egasiz gaplarda B) A, C, D
C) atov va sōz-gaplarda D) shaxsi noma'lum gaplarda
4. Shaxsi noma'lum gap berilgan qatorni belgilang.
A) Dam olish kuni kitobxonlar yig'iniga borish kerak.
B) Hamon yodimdadir: gul chog'i erdi. C) –Xōp, amaki.
D) Ertaga teatrqa boramiz.
5. Millatimizning qadriyatlarini, an'analarini kōz qorachig'iday asramoq darkor.
Ushbu gap haqidagi qanday hukm tōgri?
A) egasiz gap B) shaxsi noma'lum gap C) atov gap D) A va B
6. Qaysi javobda atov gap berilgan?
A) Dam olish kuni kitobxonlar yig'iniga borish kerak.
B) Hamon yodimdadir: gul chog'i erdi. C) –Xōp, amaki. D) Ertaga teatrqa boramiz.
7. Qanday gaplar sōzlovchi kōz ōngida biror voqea-hodisanie, narsa yoki davrni jonli gavdalantirishga xizmat qiladi?
A) atov gap B) sōz-gaplar C) egali gaplar D) shaxsi noma'lum gap
8. Aniqlovchi bilan kengaygan atov gap berilgan qatorni belgilang.
A) Bahor. Kunlar iliqlashgan.
B) Sentabrning boshlari edi. Samarqandning gavjum kōchalari bayramni eslatar edi.
C) –Rahmat. Tuzuk bōlib qoldim. D) A va B
9. Qaysi javobda modal sōz-gap berilgan?
A) Sog'ligingiz yaxshimi? –Rahmat.– B) –Ertalab kelasiz-a? – Albatta.
C) –Marhamat! Ichkariga kiring. D) barcha javoblar.
10. Qaysi javobda undov sōz-gap berilgan?
A) Sog'ligingiz yaxshimi? –Rahmat. B) –Ertalab kelasiz-a? – Albatta.
C) –Marhamat! Ichkariga kiring D) –Qabulga birga kiramizmi? –Yōq. Avval siz kiring.
11. Egasi yashiringan gap qaysi javobda berilgan?
A) Tinchlik urushni yengadi. B) Kōchatni kōpincha bahorda ekadilar.
C) Issiqkōlning kōm-kōk sahnida oppoq kema paydo bōldi.
D) Quyosh charaqlab turibdi.

12. Egasi sifatdoshli birikma bilan ifodalangan gap berilgan qatorni aniqlang.
A) Qush sayrashni orom bera dillarga. B) Odob—kishinitng ziynati.

C) Ibn Sinoga kasalning joni chiqmagan bōlsa bas, uni tuzatar edi.
D) Xorijdan kelganlar Temuriylar tarixi davlat muzeyini tomosha qilishdi.

13. Shaxsi noma 'lum gaplarni belgilang.
A) Bilim manbai bōlgan kitobni asrash zarur. B) Ustoz oġitlariga amal qilmoq darkor.

C) Bugungi ishni ertaga qōymaslik kerak. D) Barcha javoblar tōg'ri

14. Atov gap qaysi qatorda berilgan?

A) Yetti oġchab bir kes.

B) Kumush qishdan, zumrad bahordan qolishmaydi kuzning ziynati.

C) Mustaqillik maydoni. Qanchadan-qancha tantanalarning guvohi bōlgan.

D) Qari bilganni pari bilmas.

15. Qaysi javobda taklif sōz-gap berilgan?

A) Sog'ligingiz yaxshimi? –Rahmat.

B) –Ertalab kelasiz-a? –

Albatta.

C) –Marhamat! Ichkariga kiring D) –Qabulga birga kiramizmi? –Yōq. Avval siz kiring.

16. Egasi ifodalanmagan gap qaysi qatorda berilgan?

A) Saida, shuni tezroq yetkaz.

B) Hozir soat oġn bir.

C) Saida shuni tezroq bilmoqchi edi. D) Soat oġn birdan qirq besh minut

oġtdi.

17. Shaxsi noma 'lum gap berilgan qatorni aniqlang.

1. Gunohsiz ekanimni isbot qilish mushkul bōlmadi

2. Oyni etak bilan yopib bōlmas

3. Xom suvni ichib bōlmaydi

A) 1

B) 2

C) 2,3

D) 1, 2 va 3

18. Egasi yashiringan gapni toping.

A) Begona yurt vatan bōla olmaydi.

B) Kim oġz yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.

C) Milliy ruhi bōlmagan xalqning ahamiyati bōlmasligi tayin.

D) Soatlarning har bir daqiqasini ham qadrla.

19. Shaxsi noma 'lum (egasiz) gapni aniqlang.

A) B, C, D

B) Hazilni ham tuzga oġxshab me'yorida ishlatish kerak.

C) Asl donishmandni eng zarur belgi uning sabr bardoshidan bilish mumkin.

D) Har holda, atamalarni tartibga solishda mantiqli me'yorni unutmash kerak.

20. Egasi (shaxsi ma'lum) gap qaysi javobda berilgan?

A) Keksalarni qadrlash kerak.

B) Yolg'on aytib foyda kōrsang, oxirida zarar topasan.

C) Oila farzandlardan boshlanadi.

D) Bu tantanaga ishtirok qila olmaganim uchun sizlardan uzr sōrayman.

21. Egasi (shaxsi) umumlashgan gapni aniqlang.
 A) Oltin bilan olib bōlmas qolgan kōngilni. B) Zolimdan vafo tilama.
 C) B va D D) Qanchalik kōp bilsang, shu qadar kuchli bōlasan.
22. Egasiz gap qaysi qatorda berilgan?
 A) Tanho shodlanish kōngilsizdir. B) Qat'iyat - muvaffaqiyat garovi.
 C) Quvonch va umidga moyillik chinakam baxtdir.
 D) Harakat va intilishsiz ōz-ōzidan hech narsaga erishib bōlmaydi.
23. Egasi ma'lum gapni toping.
 A) Bir umr baxtli odam bōlishni istasang, halol odam bōl.
 B) Haqiqatni engib bōlmaydi.
 C) Yomon ishlardan tavba - tazarruk qilish - umrni qutqarish degan sōz.
 D) -Kōrmanani tashlab ketmaysizmi, xola?!
24. Egasi (shaxsi) umumlashgan gapni aniqlang.
 A) Siyrak sochni oldirib tashlabdi.
 B) Xalqqa suyansang - bōlasan, Xalqdan chiqsang - sōlasan.
 C) B va D D) Mard bōlsang maydonga chiq.
25. Shaxsi noma'lum gapni toping?
 A) El qōrisang - ōzarsan, Qōrimasang - tōzarsan. B) Bu yerda baribir ōqigani qōyishmayapdi.
 C) Uning ruhiy holati bilan mehnat qobiliyatini bari bir ajratib bōlmaydi.
 D) Uch kundan beri uni kōrmayapman.

II variant

1. Shaxsi noma'lum (shaxssiz) gapni toping?
 A) Chinakam badiiy adabiyotni ilxomsiz yaratib bōlmaydi.
 B) Bir tup tok eksang, bir tup tol ek.
 C) Kishining tashqi kōrinishiga qarab baho berib bōlmaydi. D) A, C
2. Qaysi qatorda egasi umumlashgan gapning kesimi uchinchi shaxs majhul nisbatdagi buyruq fe'li bilan ifodalangan?
 A) Ezgu ishni hech qachon keyinga qoldirmaslik kerak.
 B) Ming xil masala bilan bosh qotirishga tōg'ri keladi.
 C) U yerga ishdan keyin borilsin! D) Bu ishni shu paytgacha qoldirib bōlmas.
3. Atov (nominativ) gapni aniqlang.
 A) Unga hujjat berishdi. B) Qiziqmasang, ishga ōrganolmaysan.
 C) Yaxshi ishlashni ōrganish uchun ishga sitqi dildan berilish kerak.
 D) Mana Xumoxonning derazasi. Ochiq fortochkadan patifon xirillab eshitilar edi.
4. Egasiz gapni toping

- A) Ra'no oyoq uchlarini sariq atlas kōylagi bilan yashirdi.
 B) Aql-odamning kōrki.
 C) Inson qalbi bilan hazillashmang siz. D) Doim yaxshi niyat tilab yashash kerak.
5. Qaysi qatorda egasi yashiringan gap berilgan?
 A) Bu yil olma bilan ōrik hosili mōl bōldi. B) Sochilgan urug□ tez unib chiqadi.
 C) Bir tup tok eksang, bir tup tol ek. D) Suvlar tiniq, yaproqlar oltin.
6. Egasiz gap (shaxsi noma'lum gap) qaysi qatorda berilgan?
 A) Mayin shamol sadalarning kōm-kōk yaproqlari bilan ōynashmoqda.
 B) Ma'naviy fazilatlar husnni oshiradi.
 C) Hamma narsaga asta-sekin erishsa bōladi.
 D) Men bu institutning dovrug'ini kōp eshitganman.
7. Egasi umumlashgan gap qaysi qatorda berilgan?
 A) Yaxshilik qilganga zinhor yomonlik qilma. D) A va C
 B) Qirq besh yildan beri she'r yozaman. C) Tabiatni onaga qiyos qilishadi.
8. Shaxsi noma'lum gap qaysi qatorda berilgan?
 A) Bu xabarni eshitganman. B) Umrni oqar suvga ōxshatishadi.
 C) Mehnat bilan hamma narsaga erishsa bōladi.
 D) Oydin kecha. Hali tong otishidan darak yōq.
9. Egasi umumlashgan gapni toping
 A) Nimani xor tutsang shunga zor bōlasan B) Halol odamni badnom qilib bōlmaydi.
 C) Bilmaganni boshqalardan ōrganadilar
 D) Sizga baxt tilayman. E) A va C.
10. Nutqda qanday gaplar yakka holda qōllanmaydi?
 A) tōliqsiz gaplar B) shaxssiz gaplar C) egasi ma'lum gaplar D) atov gaplar
11. Atov gap qaysi qatorda berilgan?
 A) -Xōp, ōrtoq shifokor! B) Bolalikka buyuk ehtirom bilan qarash lozim
 C) Mana Hirot.Husayn Boyqaro saroyi.Hamma motamda
 D) Shu yorug' yōlda sizga zōr baxtlar tilayman
12. Shaxsi noma'lum gapni belgilang
 A) Xalqimizning baxti saodati yōlida xizmat qilishga tayyorman
 B) Dōstini yomonlagandan qoch C) Kiyimni bōyiga qarab bichadilar
 D) Yaxshilikning qadriga etish kerak
13. Egasi ma'lum gaplarda egani anglatib turuvchi grammatik shakl asosan qaysi?
 A) fe'ldagi shaxs-son qōshimchasi B) I va II shaxsni kōrsatuvchi olmoshlar

- C) egalik qōshimchasi
D) kesimga berilgan sōroq
14. Egasi ifodalanmagan gaplar haqidagi hukmning qaysi biri tōg‘ri?
A) tōliq gap
B) tōliqsiz gap
C) sōz-gap
D) ba‘zan sōz-gap, ba‘zan tōliqsiz gap
15. Egasini topib bōlmaydigan gap...
A) tōliqsiz gap deyiladi
B) bir bosh bōlakli gap deyiladi
C) egasiz gap deyiladi
D) B va C
16. Gapning kesimiga asoslanib, egasini aniqlash mumkin bōlgan gapni toping
A) egasi ma‘lum gap
B) egasi umumlashgan gap
C) shaxsi noma‘lum gap
D) atov gap
17. Egasiz (bir bosh bōlakli) gapni toping
A) Insonni bilish uchun uni sevish kerak
B) Nahotki, bugun yomg‘ir yog‘sa?
C) hayotning gōzalligi ham xalqlarning rang-barangligida emasmi?
D) Saida bu suhbatni diqqat bilan kuzatdi
18. Shaxsi noma‘lum gap qōllangan qatorni aniqlang
A) Qōrqoq hamma narsadan mahrum
B) Elni ixtilof buzadi
C) Ōtgan narsa hamisha totli
D) Toshdan gavharni farq qilish
- kerak
19. Egasi ma‘lum gapni toping
A) Otaning amaliga suyanma
B) Kitoblarni kutubxonaga topshirgani
ketdi
C) Hayotni gōzalliksiz tasavvur etib bōlmaydi
D) Keksalikni kōpriikka tashbeh qiladilar
20. Shaxsi noma‘lum gapni aniqlang
A) Gōzallikka boshqa yaxshi fazilatlarini qōshishga intiling
B) Yolg‘onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bōlmaydi
C) She‘rda aql bovar qilmas sehr bor
D) Sharqda savdogarlarga alohida hurmat bilan qaraganlar
21. Shaxsi umumlashgan gapni aniqlang
A) Aruz vaznining ohangini yurak urishiga ōxshataman
B) Birovning izidan gapirma, yuziga gapir
C) Zōr quvonchga faqat katta mehnat bilan erishish mumkin
D) Farzandni gulga onani bōstonga ōxshataman
22. Shaxsi noma‘lum gapni belgilang
A) Kiyimni bōyga qarab bichadilar
B) Umr bōyi bilimni boyitib borish
lozim
C) Xalqimning baxtu saodati yōlida xizmat qilishga tayyorman
D) Dōstini yomonlagandan qoch
23. Atov gap qōllangan qatorni toping
A) Haqiqatni yashirib bōlmaydi
B) Kōp yig‘lasang kōzdan
ajraysan
C) Bu yerda bemorni musiqa bilan davolaydilar
D) Bahor. Tog‘lar, qirlar yashnab kōrinadi

24. Xatodan jinoyatni ayira bilish kerak.

Bu gap sodda gapning qaysi turiga kiradi?

A) shaxsi noma'lum gap

B) egasi ma'lum gap

C) egasi umumlashgan gap

D) ikki bosh bōlakli gap

25. Qaysi qatorda egasiz gap berilgan?

A) Quyosh yotog'idan hokim kōtardi

B) Xom suvni ichib

bōlmaydi

C) Qimirlagan qir oshar

D) Kōchada hech kim

yōq

III variant

1. Zalda chekilmasin! Ushbu gap grammatik asosiga kōra qanday gap?

A) egasi ma'lum gap

B) shaxsi noma'lum gap

C) shaxsi umumlashgan gap

D) sōz-gap

2. Egasi umumlashgan gapni toping

A) Nimani xor tutsang shunga zor bōlasan.

B) Halol odamni badnom qilib bōlmaydi.

C) Bilmaganni boshqalardan ōrganadilar. D) A va C.

3. Nutqda qanday gaplar yakka holda qōllanmaydi?

A) tōliqsiz gaplar B) shaxssiz gaplar C) egasi ma'lum gaplar D) atov

gaplar

4. Atov gap qaysi qatorda berilgan?

A) -Xōp, ōrtoq shifokor!

B) Bolalikka buyuk ehtirom bilan qarash

lozim

C) Mana Hirot. Husayn Boyqaro saroyi. Hamma motamda

D) Shu yorug' yōlda sizga zōr baxtlar tilayman

5. Shaxsi noma'lum gapni belgilang

A) Xalqimizning baxti saodati yōlida xizmat qilishga tayyorman

B) Dōstini yomonlagandan qoch

C) Kiyimni bōyiga qarab

bichadilar

D) Yaxshilikning qadriga etish kerak

6. Egasi ma'lum gaplarda egani anglatib turuvchi grammatik shakl asosan

qaysi?

A) fe'ldagi shaxs-son qōshimchasi

B) I va II shaxsni kōrsatuvchi

olmoshlar

C) egalik qōshimchasi

D) kesimga berilgan sōroq

7. Egasi ifodalanmagan gaplar haqidagi hukmning qaysi biri tōg'ri?

A) tōliq gap B) tōliqsiz gap C) sōz-gap D) ba'zan sōz-gap, ba'zan

tōliqsiz gap

8. Egasini topib bōlmaydigan gap...

A) tōliqsiz gap deyiladi

B) bir bosh bōlakli gap deyiladi

C) egasiz gap deyiladi

D) B va C

9. Gapning kesimiga asoslanib, egasini aniqlash mumkin bōlgan gapni

toping

A) egasi ma'lum gap

B) egasi umumlashgan gap

- C) shaxsi noma'lum gap D) atov gap
10. Egasiz (bir bosh bōlakli)gapni toping
 A) Insonni bilish uchun uni sevish kerak B) Nahotki, bugun yomg'ir yog'sa?
 C) hayotning gōzalligi ham xalqlarning rang-barangligida emasmi?
 D) Saida bu suhbatni diqqat bilan kuzatdi
11. Shaxsi noma'lum gap qōllangan qatorni aniqlang
 A) Qōrqqoq hamma narsadan mahrum B) Elni ixtilof buzadi
 C) Ōtgan narsa hamisha totli D) Toshdan gavharni farq qilish
 kerak
12. Egasi ma'lum gapni toping
 A) Otaning amaliga suyanma B) Kitoblarni kutubxonaga topshirgani ketdi
 C) Hayotni gōzalliksiz tasavvur etib bōlmaydi
 D) Keksalikni kōprikka tashbeh qiladilar
13. Shaxsi noma'lum gapni aniqlang
 A) Gōzallikka boshqa yaxshi fazilatlarni qōshishga intiling
 B) Yolg'onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bōlmaydi
 C) She'rd aql bovar qilmas sehr bor
 D) Sharqda savdogarlarga alohida hurmat bilan qaraganlar
14. Shaxsi umumlashgan gapni aniqlang
 A) Aruz vaznining ohangini yurak urishiga ōxshataman
 B) Birovning izidan gapirma, yuziga gapir
 C) Zōr quvonchga faqat katta mehnat bilan erishish mumkin
 D) Farzandni gulga onani bōstonga ōxshataman
15. Shaxsi noma'lum gapni belgilang
 A) Kiyimni bōyga qarab bichadilar B) Umr bōyi bilimni boyitib borish lozim
 C) Xalqimning baxtu saodati yōlida xizmat qilishga tayyorman
 D) Dōstini yomonlagandan qoch
16. Atov gap qōllangan qatorni toping
 A) Haqiqatni yashirib bōlmaydi B) Kōp yig'lasang kōzdan ajraysan
 C) Bu yerda bemorni musiqa bilan davolaydilar
 D) Bahor. Tog'lar, qirlar yashnab kōrinadi
17. Xatodan jinoyatni ayira bilish kerak.
 Bu gap sodda gapning qaysi turiga kiradi?
 A) shaxsi noma'lum gap C) egasi umumlashgan gap
 B) egasi ma'lum gap D)atov gap
18. Qaysi qatorda egasiz gap berilgan?
 A) Quyosh yotog'idan hokim kōtardi B) Xom suvni ichib bōlmaydi
 C) Qimirlagan qir oshar D) Kōchada hech kim yōq
19. Zalda chekilmasin! Ushbu gap grammatik asosiga kōra qanday gap?

A) egasi ma'lum gap B) shaxsi noma'lum gap C) so'z-gap D) atov gap

20. Yomon urug'dan yaxshi hosil kutma. Ushbu gap grammatik asosiga kōra qanday gap?

A) egasi ma'lum gap B) sōz-gap C) egasi umumlashgan gap

D) shaxsi noma'lum gap

21. Rejani yana qaytadan kōrib chiqishga tōg'ri keladi. Ushbu gap bir hokim bōlakli gaplarning qaysi turiga mansub?

A) egasiz gap B) egasi umumlashgan gap

C) shaxsi noma'lum gap D) A va C

22. Keltirilgan misol sodda gapning qaysi turiga mansub?

Marg'ilonda kichiklarni ham sizlashadi

A) egasi ma'lum gap C) egali gap

B) egasi umumlashgan gap D) shaxsi noma'lum gap

23. Qaysi qatorda egasiz gap berilgan?

A) Balki zavod qurish uchun ovora bōlishga tōg'ri kelmas

B) Rahmat, mulla Jōra, ming rahmat

C) Shoir qalbi gōyo anor, she'ri-uning sharbati

D) Tōlqin urgan ummoncha bor yurakdagi tug'yonim

24. Egasi ma'lum gap qaysi qatorda berilgan?

A) Halol mehnat kishini ulug'laydi B) Yaxshilar kōpaysin, yomon qolmasin

C) Paxtakor ōzbekman-zabardast, mag'zur D) Aytilgan sōz-otilgan ōq

25. Qaysi qatordagi gap egasiz (shaxsi noma'lum) gap emas?

A) Xom suvni ichib bōlmaydi. B) Biznikida papiros chekilmaydi.

C) Tokni xomtok qilish kerak. D) Oyni etak bilan yopib bōlmaydi.

“Hozirgi ōzbek adabiy tili” fanidan III kurslar uchun umumiy savollar

1. Sintaktik aloqa turlari.
2. Ega va uning ifodalanishi.
3. Ega va kesim mosligi.
4. Hol va uning turlari.
5. Hol va uning ma'noviy turlari.
6. Hol va uning ifodalanishi.
7. Hol va ularning turlari:
8. Fe'llarning yasalishi.
9. Fe'llarda mayl kategoriyasi.
10. Fe'l zamonlari.
11. Undalma.

12. Tõldiruvchi va uning turlari.
13. Tõldiruvchi va uning ifodalanishi.
14. Tobe aloqaning turlari.
15. Tobe aloqa va uning turlari: moslashuv, bitishuv, boshqaruv.
16. Tobe aloqa va uning turlari.
17. Tilshunoslikning sintaksis bõlimi.
18. Tilshunoslikning boshqa sathlari bilan sintaksisning aloqasi: sõz birikmasi, gap.

19. Tilning grammatik qurilishi: morfologiya, sintaksis.
20. Ters sifatlovchi-aniqlovchi.
21. Teng va tobe aloqalar.
22. Tarkibli ot kesim va uning ifodalanishi.
23. Tarkibli kesimlar.
24. Sõz yasalishi.
25. Sõz turkumlari.
26. Sõz va sõz birikmasi: sõz, qõshma sõz, juft sõz, ibora.
27. Sõz birikmasi tasnifi.
28. Sõz birikmasi va frazeologizmlar.
29. Sõz birikmasi va uning tasnifi.
30. Sõz birikmasi va sõz, qõshma sõz, juft sõz.
31. Sõz birikmasi va qõshma sõz.
32. Sõz birikmasi va gapning õzaro munosabati.
33. Sõz birikmalarining tushuncha va ifoda planiga kõra turlari.
34. Sõz birikmalari tasnifi.
35. Son va uning ma'no turlari.
36. Sodda gapning aktual bõlinishi.
37. Sifat darajalari.
38. Sifat – sõz turkumi.
39. Sintaktik munosabatning turlari.
40. Sintaktik munosabatlar va ularning ifodalanishi.
41. Sintaktik munosabat turlari.
42. Sintaktik qurilma va uning turlari. Erkin birikma, turğun birikma.
43. Sintaktik qurilma va uning turlari.
44. Sintaktik birliklar.
45. Sintaktik birliklar va ularning õziga xos xususiyatlari.
46. Sintaktik aloqaning ifodalanish yõllari.
47. Sintaktik aloqani ta'minlovchi vositalar.

48. Sintaktik aloqa turlari.
49. Sintaksisning ōrganish ob'ekti.
50. Predikativ va nopredikativ aloqalar.
51. Otlarda shakl yasalishi.
52. Mustaqil sōzlar turkumilaridan – olmosh .
53. Mustaqil sōzlar turkumi: ot, ravish, son.
54. Mustaqil sōz turkumlari.
55. Moslashuv va boshqaruv qoliplari
56. Morfologiyaning ōrganish ob'ekti.
57. Morfologiya va sintaksisning tekshirish ob'ekti:
sōz turkumlari, gap bōlaklari, sōz birikmasi.
58. Miqdor-daraja, shart va tōsiqsizlik hollari.
59. Qōshma gap va uning ōziga xos belgilari.
60. Kopulyativ va intraduktiv munosbatlar.
61. Kopulyativ va intraduktiv aloqa.
62. Kirish konstruktsiyalar.
63. Kirish birikmalar.
64. Kesimning turlari.
65. Kesim va uning turlari.
66. Yiġiq va yoyiq solla gaplar.
67. Yiġiq va yoyiq gaplar.
68. Izohlovchi va uning paradigmasi.
69. Gapning emotsionallikka kōra turlari.
70. Gapning xarakterli belgilari.
71. Gapning uyushiq bōlaklarida qōshimcha va boġlovchilarning qōllanilishi.
72. Gapning uyushiq bōlaklar.
73. Gapning tuzilishiga kōra turlari.
74. Gapning tuzilish jihatdan turlari.
75. Gapning muchalari xarakteriga kōra turlari.
76. Gapning muchalar ishtirokiga kōra turlari.
77. Gapning komunikativ maqsadiga kōra turlari.
78. Gapning bosh bōlaklari.
79. Gapning ajratilgan bōlaklari.
80. Gapda sōzlarning sintaktik aloqasi.
81. Gap qismlarini boġlovchi vositalar
82. Gap va uning turlari.
83. Gap va uning belgilari.
84. Boġlama.

85. Bitishuv aloqasi.
86. Bitishuv aloqasi qoliplari.
87. Birikma va uning turlari: atributiv, ob'ektli, relyativ, oppozitiv
88. Aniqlovchi va uning turlari.
89. Aniqlovchi va uning ifodalanishi.
90. Ajratilgan hol va izohlovchi.
91. Ajratilgan tōldiruvchi va aniqlovchi.
92. Ajratilgan bōlaklar.
93. Ajratilgan izoh bōlaklar.

“Ona tili”dan testlar

1. Sintaksisda nima o‘rganiladi?

- A) So‘z turkumlari
- B) Tinish belgilari
- C) So‘z birikmalari, gap bo‘laklari va uning turlari
- D) Tovushlar

2. Tilning asosiy ijtimoiy vazifasi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan? □

- A) Fikrni shakllantirish
- B) Fikrni ifodalash
- C) Odamlar orasida fikr almashuv vositasi bo‘lishi
- D) Fikrni shakllantirish, fikrni ifodalash, odamlar orasida fikr almashuv vositasi bo‘lishi

3. So‘zlarni o‘zaro biriktirish, gap hosil qilish, gaplarning qurilish xususiyatlarini o‘rganish bilan tilshunoslikning qaysi bo‘limi shug‘ullanadi?

- A) Fonetika
- B) Morfologiya
- C) Sintaksis
- D) Leksikologiya

4. Tilimiz o‘zining tovushlar, iboralar va qo‘shimchalardagi imkoniyatlarini qaysi bo‘limda namoyon qiladi?

- Fonetikada
- Morfologiyada
- Leksikada
- Sintaksisda

5. Qaysi qatordagi atama (termin)lar grammatikaning sintaksis qismiga tegishli?

- Taqlid so‘z, jamlovchi otlar, nisbat yasovchi qo‘shimcha
- Paronimlar, qo‘shma gap, rasmiy uslub
- Aralash qo‘shma gaplar, omonimlar, sifat
- Boglama so‘z birikmasi, kirish so‘z

6. So‘zlar o‘zaro bog‘langanda, teng boglanishi mumkin? □

- Ohang lovchilar, □ va bog lovchilar □ teng bog vazifasidagi yordamchilar

Barcha bog'lovchilar bilan
Faqat teng bog'lovchilar bilan
Teng bog'lovchilar va teng bog'lovchi vazifasidagi ko'makchi va yuklamalar bilan

7. Tobe so'zni hokim so'zga bog'lovchi quyidagi vositalardan qaysilari ayrim hollarda ifodalanmasligi mumkin emas?

Tushum kelishigi qo'shimchasi
Qaratqich kelishigi qo'shimchasi
Egalik qo'shimchasi
Jo'nalich kelishigi

8. Hokim so'z olmosh so'z bilan ifodalangan otli birikmani toping

Hammadan kuchli
Farovon hayot
Kitob o'qimoq
Nargizaning o'zi

9. Hokim so'z sifatdosh bilan ifodalangan so'z birikmasini aniqlang

Vazifani bajarib
Kelajakka umid
Birga o'qigan
Muzeyga bormoq

10. Qaysi qatorda koordinatsiya aloqasi ifodalangan?

Shunday o'lka
Halol ishlamoq
A'lochilardan beshtasi
Voqeadan xabardor

11. Ravishdosh hokim so'z bo'lib kelgan qatorni belgilang

Shivir-shivir gap
Po'latdan mustahkam
Kelajakni o'ylagan
Oz-Ozdan o'rganib

12. Tobe so'z bilan hokim so'zning ko'makchi yordamida birikishi qaysi qatorda berilgan?

Fabrikada ishlamoq
O'qish orzusi
Do'stlari bilan kengashmoq
Havodagi qushlar

13. So'z birikmasidagi subordinatsiya bo'lmagan birikuv qaysi qatorda berilgan?

Derazani ochmoq
Moviy osmon
Ilmda o'tkir
Uzukning ko'zi

14. Boshqaruv yo'li bilan hosil bo'lgan so'z birikmasini ko'rsating

Opasi bilan ko'rishmoq
Yashil o'rmon

Navbatchining vazifasi

Zimdan kuzatmoq

15. Bitishuv yo‘li bilan hosil bo‘lgan so‘z birikmasini aniqlang

Bolalar haqida g‘amxo‘rlik

Maktab hovlisi

O‘ylab gapirmoq

Gapirishga oson

16. Qaysi qatordagi tobe so‘z bilan hokim so‘zning tartibi o‘zgartirilsa, gap hosil bo‘ladi?

Maqola o‘qimoq

Ko‘m-ko‘k o‘tloq

Yura-yura charchamoq

Suvga to‘ldirmoq

17. Ot + ravish shaklidagi birikmalarda so‘zni bog‘lovchi asosiy vositalarni toping

Tartib va ohang

Kelishik va ko‘makchilar

Kelishiklar

Ko‘makchilar

18. So‘z bipikmalapida tobe so‘z sifat yoki ravish bilan ifodalansa, ular hokim so‘zga qanday yo‘l bilan bog‘lanadi?

Moslashuv

Boshqaruv

Bitishuv

Birlashuv

19. So‘z birikmasi berilgan qatorni toping.

Tashrif buyurmoq

Ko‘ngli keng

Gullar ochildi

So‘z birikmasi berilmagan

20. "Olmosh + ot" shaklidagi bog‘lanish qaysi yo‘llar bilan amalga oshishi mumkin?

Moslashuv

Bitishuv

Boshqaruv

Moslashuv, bitishuv

21. Quyidagi juftliklarning qaysilarini erkin birikma sifatida ham, ibora sifatida ham qo‘llash mumkin?

Bo‘yniga ilmoq

To‘nini teskari kiymoq

Tosh otmoq

Bo‘yniga ilmoq, to‘nini teskari kiymoq, tosh otmoq

22. So‘zning so‘z birikmalari bilan ifodalangan ma‘nodoshlari qanday nomlanadi?

Tasviriy ifodalar

Parafrazalar

Frazeologik birikmalar

Tasviriy ifodalar, parafrazalar

23. Parafrazalar qanday uslubiy vazifalarni bajarishga xizmat qiladi?

Soʻzning maʼnosini oydinlashtirish

Matnni badiiylashtirish

Takrorning oldini olish

Soʻzning maʼnosini oydinlashtirish, matnni badiiylashtirish, takrorning oldini olish

24. Qaysi qatorda parafrazalar berilmagan?

Moviy osmon, gaplarning ozi

Qanotli doʻstlar, bahor elchisi, zangori olov, ilm oʻchogʻi

Vatan posponlari, qalam ahli, oq oltin, qizilishton

Moʻyqalam sohiblari, ogʻzi qulogida, qora oltin, soʻz sanʼatkorlari.

25. Oʻz Vatani sevgan kishi shu vatanning ravnaqi uchun kurashadi.

Ushbu gapdagi soʻz birikmalari zanjirida necha soʻz birikmasi bor?

Toʻrtta

Beshta

Oltita

Uchta

26. Kechqurunlari buvimdan oy yorugʻida turli rivoyatlar tinglardim.

Ushbu gapda necha soʻz birikmasi bor?

Toʻrtta

Beshta

Oltita

Ikkita

27. Soʻroq gaplarni hosil qiluvchi vositalar qaysi qatorda koʻrsatilgan?

Soʻroq olmoshlari bilan

Soʻroq ohangi yordamida

Soʻroq yuklamalari yordamida

Barcha qatordagi vositalar asosida

28. Muomala vositasining eng kichik birligi nima?

Soʻz

Qoʻshma soʻz

Gap

Ibora

29. Faqat soʻroq ohangi yordami bilan hosil boʻlgan soʻroq gapni belgilang?

Oʻtkir Hoshimov asarlarini oʻqiganmisiz?

Siz-chi?

Yaxshi qoʻshiqni kim yoqtirmaydi?

-Soat besh boʻldi. -Soat besh boʻldi?

30. Ritorik soʻroq gapni toping

Farmon bibining uylari shumi?

Siz qayerdan, mehmon?
Shunday go‘zal vatan bormi dunyoda?
Sen mening gapimga quloq solgin

31. Hammani maqtaydigan odamga ishonma. Ushbu gapda buyruq-istak maylidagi fe‘l qanday gapning bosh bo‘lagi bo‘lib kelgan?

Darak gapning
So‘roq gapning
Buyruq gapning
His-hayajon gapning

32. Dunyoda eng ulug‘ zot bo‘lgan onani kim sevmaydi? Mazkur gap haqidagi qaysi hukm to‘g‘ri?

Sof so‘roq gap
His-hayajon gap
Ritorik so‘roq gap
Buyruq gap

33. Yashirin inkor mazmunini bildiradigan ritorik so‘roq gapni belgilang

O‘zingdan chiqqan baloga qayga borasan davoga?
Farzandni kim sevmaydi?

Siz Salimovning o‘g‘li emasmisiz?
Suv dehqonlar uchun durday noyob ekanini kim bilmaydi?

34. Yashirin tasdiq mazmunini bildiradigan ritorik so‘roq gapni toping

Kimda bor bunchalik latofat, husn?
Dehqonning yerdan boshqa nima tirikchiligi bor?
Inson qila olmaydigan ish bormi?

Oftob nurlariga g‘arq bo‘lib yotgan bu ko‘rkam, aziz Vatanimizda nimalar yo‘q?

35. Taklifni anglatgan buyruq gapni aniqlang.

Seni ish yengmasin, sen ishni yeng
Endi oltin balig‘ing kelib, xizmatimni qilsin
Ko‘ksingizda go‘zal niyatlar gullasin, birodar!
Qani, boqqa kiring, dam oling

36. Yozuvda darak, so‘roq va buyruq shaklidagi his-hayajon gaplarning qaysi biridan so‘ng ikkita tinish belgisi qo‘yiladi?

Darak gap shaklidagi his-hayajon gaplarda
So‘roq gap shaklidagi his-hayajon gaplarda
Buyruq gap shaklidagi his-hayajon gaplarda
So‘roq va buyruq shaklidagi his-hayajon gaplarda

37. Qani endi, shu vaqt muzdek suv bo‘lsa. Ushbu gap ifoda maqsadiga ko‘ra qanday gap hisoblanadi?

Darak gap
Buyruq gap
So‘roq gap
His-hayajon gap

38. Kutilmagan xabar eshitishi natijasida taajjub bildirib, aynan gapni yoki uning biror bo‘lagini takrorlash natijasida qanday gap hosil bo‘ladi?

Darak gap
So‘roq gap
Buyruq gap
His-hayajon gap

39. So‘zlovchining so‘zlashdan maqsadi ma’lum voqea-hodisani bajarish yoki bajarmaslikka da’vat etish bo‘lsa, unda gapning ifoda maqsadiga ko‘ra qaysi turi vujudga keladi?

Darak gap
Buyruq gap
So‘roq gap
Inkor yoki tasdiq gap

40. Ega qaysi so‘z turkumlariga oid so‘zlar bilan ifodalanadi?

Bosh kelishikdagi barcha so‘z turkumlari bilan
Bosh kelishikdagi mustaqil so‘z turkumlari bilan
Bosh kelishikdagi fe’ldan tashqari mustaqil so‘zlar bilan
Bosh kelishik shaklidagi ot, olmosh va ot o‘rnida qo‘llangan boshqa so‘z turkumlari

41. Olmosh bilan ifodalangan ega qaysi gapda qo‘llangan?

Birovning xatosi - birovga saboq
Har bir kishi butun bir kitobdir
Hech kim hamma narsani bilolmaydi
Hech bir kishi keragicha shakllangan holda dunyoga kelmaydi

42. Otlashgan sifat bilan ifodalangan egani toping.

Katta maydonni ishg‘ol etgan gulzorga chiqdik
Baxmal qirlar, keng bo‘shliqlar, paxtazor yerlar ko‘m-ko‘k
Ko‘kimtir qora osmonda behisob yulduzlar chaqnab turardi
Eng qiyini o‘zingni anglay bilishingdir

43. Ibora qaysi gapda ega vazifasida qo‘llangan?

Bilasizki, sirkam suv ko‘tarmaydigan shoirlardanman
Turmushdan orqada qolayotgani uchun rosa po‘stagini qoqishdi
Ayniqsa, Mehrining onasi menga ko‘z ochirmaydi
Bu xotin-qizlarning boshini bir joyga qovushtirish ham juda qiyin ekan

44. Gapning markazi qaysi bo‘lak?

Ega
Kesim
Hol
Aniqlovchi

45. Hozirgi o‘zbek tilida qaysi kelishikdagi so‘z kesim vazifasida kelmaydi?

O‘rin-payt, chiqish, jo‘nalish kelishigidagi so‘zlar
Bosh kelishikdagi so‘zlar
Qaratqich, tushum kelishigidagi so‘zlar
Kelishik qo‘shimchalarini olgan so‘zlar kesim vazifasida kela oladi

46. Albatta, mehmonsiz siz bizga. Ushbu gapdagi kesimni aniqlang.

Kesimi, ya’ni, "bo‘lasiz" fe’li tushib qolgan

Bizga

Siz

Mehmonsiz

47. Shu hafta yil bo‘yi o‘qiganlarini takror qila qo‘ya qolmoqchi edi
Gapning kesimi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

Qolmoqchi edi

Qo‘ya qolmoqchi edi

Qila qo‘ya qolmoqchi edi

Takror qila qo‘ya qolmoqchi edi

48. Qaysi gapda kesim sifatdash bilan ifodalangan?

Kishi o‘z baxtini boshqalarga keltirgan baxtiga qarab o‘lchaydi

Vijdonan bajarilgan har qanday mehnat foydalidir

Inson baxt uchun yaralgan

Hali hech kim kamtorana yashaganidan afsuslanmadi

49. Ot - kesimli gap qaysi qatorda berilmagan?

O‘qishda, mehnatda, fanda, xalqqa astoydil xizmat qilishda o‘z baxtingni topasan

O‘smirlikdagi tushkunlik - yoshlikka xos kasallik

Me‘yor sog‘liqning posbonidir

O‘qishda, mehnatda, fanda, xalqqa astoydil xizmat qilish o‘z baxtingdir

50. Sifat bilan ifodalangan ot - kesim qaysi javobda berilgan?

Baxtsizlikda burchga sodiq qolish buyuk xislatdir

Shoshib qilingan ishning umri qisqa

Vijdon xotiradan ko‘ra ishonchliroq

Shoshib qilingan ishning umri qisqa, vijdon xotiradan ko‘ra ishonchliroq

51. Harakat nomi bilan ifodalangan ot - kesimli gapni aniqlang.

Nomus - asl go‘zallik

Halollik har qanday martabani bezaydi

Oddiylik - insoniy qadr - qimmatini anglashing

Haqgo‘ylik - hayot nafasi

52. Murakkab fe‘l - kesim qaysi javobda qo‘llangan?

Qo‘rqoqdan ko‘proq qo‘rqish kerak

Kim ko‘p gapirsa, u kerakli narsalarni o‘rgana olmaydi

Qo‘rquv iroda kuchsizligidan kelib chiqadi

Kim ko‘p gapirsa, u kerakli narsalarni o‘rgana olmaydi, qo‘rquv iroda kuchsizligidan kelib chiqadi

53. Murakkab ot-kesim qaysi gap tarkibida qo‘llangan?

Sog‘ tanda sog‘lom aql bo‘lishiga intilish zarur

So‘z hamisha ishga nisbatan botirroq bo‘ladi

Haqiqiy ta‘lim odamni odamiylikda tayyorlashi kerak

Barcha gap tarkibida murakkab ot-kesim qo‘llangan

54. Qaysi gapdagi fe‘l-kesim ega bilan sonda moslashmagan?

Jur‘atsizlik bizda faqat nafrat uygo‘tadi

Hasad hech qachon quvonchni bilmaydi

Izlaganimiz yonimizda bo‘lganligini biz doim kechikib tushunamiz

Moviy osmonda oq bulutlar suzib yuribdi

55. Fe'lining sifatdosh shakli bilan ifodalangan kesimni aniqlang.

Qir yon bag'ri pakana dublar bilan qoplangan

Ruhni davolamay turib, tanani davolab bo'lmaydi

Hali hech kim kamtarona yashaganidan afsuslanmadi

Uyga hech kim kelmadi

56. Murakkab fe'l-kesim qaysi qatorda berilgan?

Qishlog'imizda kichik korxonada ishlay boshladi

Mehnat oddiy kunlarni ham bayramga aylantirib yuboradi

Hamma qiyinchiliklardan faqat mehnat bilan qutulmadi

Ruhni davolamay turib, tanani davolamaydi

57. Ot-kesim qo'llangan gapni aniqlang.

Davlatning - ota - onang

Mard bir so'zlaydi, nomard ming so'zlaydi

Inson aqli bilan go'zallashadi

Mehnat oddiy kunlarni ham bayramga aylantirib yuboradi

58. Murakkab ot-kesim qaysi gapda berilgan?

Aqlni beaqldan o'rgan

Aqlni beaqldan o'rgan

Mehnat oddiy kunlarni ham bayramga aylantirib yuboradi

Dil og'ritgan do'st emas

59. Qarashlilik shaklidagi so'z qarashli bo'lgan narsalarni bildiruvchi so'z bilan qo'llansa, hamma vaqt qaysi gap bo'lagi vazifasida keladi?

To'ldiruvchi

Ega

Kesim

Aniqlovchi

60. Sobir endi kalavanning uchini topdi. Ushbu gapda kesim qanday ifodalangan?

Fe'l bilan

Sifat bilan

Ibora bilan

Ajralmas birikma bilan

61. Qaysi gapning kesimi tarkibida bog'lama qo'llangan?

Komila har ikkala derazani ochib tashladi

Talabalarning ilmiy anjumani bo'ldi

Yoshlarning tashabbusi bilan devoriy gazeta chiqq boshladi

Ey, yaxshi odam, sening yo'ldoshing kitob bo'lsin

62. Bog'lamali kesim qo'llangan gapni toping.

Haq gapni tan olish kerak

Samarqand Sharqning ko'rkidir

U kimnidir kutardi

Shokir topgan-tutganni gapirib bo'ldi

63. Qaysi gap bo'lagi fe'l kesim bilan bevosita bog'lanmaydi, ya'ni bilvosita— boshqa bir bo'lak orqali □ bog'lanishi mumkin? □

Ega
Kesim
To'ldiruvchi
Aniqlovchi

64. Gapni, uning ayrim bo'laklarini kengaytirishga, aniqlashga xizmat qiluvchi bo'laklarni belgilang.

Bosh bo'laklar
Ikkinchi darajali bo'laklar
To'ldiruvchi va hol
Aniqlovchi

65. Ayol sochlari parishon, oyoqlari yalang, yoqasi ochiq ko'chaga otildi. Ushbu gapda necha murakkab hol qatnashgan?

Uch
Ikki
Bir
To'rt

66. Murakkab hollarning ifodalanishi qaysi javobda noto'g'ri berilgan?

Takror so'zlar bilan, so'z birikmasi bilan
Iboralar bilan
Kengaygan birikmalar bilan
Sodda so'zlar bilan

67. Javoblarning qaysi birida murakkab hol qatnashmagan?

Tursunali bir-bir bosib minbarga chiqdi
Rais vazifaning zarurligini takror-takror ta'kidladi
Anzirat dunyodan ko'zi ochiq ketdi
Bilimdan ortiq boylik yo'q

68. Urush boshlanganda, u ko'krakdan ajralmagan go'dak edi. Ushbu gapda holning qaysi turi qo'llangan?

Murakkab payt holi
Murakkab vaziyat holi
O'rin holi
Miqdor holi

69. Qaysi qatorda murakkab holli gap qo'llangan?

Oynisa stol ustidagi choynakni ko'tarib, sovuq suvni qult-qult ichdi
Bolalar adabiyoti so'z san'ati va tarbiya vositasidir
Xalq og'zaki ijodida maqollarning o'ziga xos o'rni bor
Bilimdan ortiq boylik yo'q

70. Javoblarning qaysi birida daraja miqdor holi berilgan?

Hozir yulduzlar charaqlab turardi
Dunyoda tinchlik bo'lsin
Bola epchillik bilan turdi
Guruchni qopi bilan olishdi

71. Shart holi berilgan javobni toping.

Uni taniganida bunday demadi
Hammani kuldirish uchun atay shunday kiyindi

Istasa toshni tilla qiladi
Bola epchillik bilan turdi

72. Javoblarning qaysi birida ikkita maqsad holi qatnashgan?

Uni taniganida bunday demasdi
Hammani kuldirish uchun atay shunday kiyindi
Istasa toshni tilla qiladi

Arzimagan narsa uchun janjal ko'tarardi

73. Gaplarning qaysi birida murakkab payt holi berilgan?

Bu gapdan Abduqodir qotib qolib, nima qilarini bilmay qoldi
Nasiba bilan Sharifa arazlaganda, Dildora ularni yarashtirib qo'ydi
Istasa toshni tilla qiladi

Bola epchillik bilan turdi

74. Sevaraxon choyni keltirib, dasturxon yozgach, shirinliklarni olish uchun javon oldiga bordi. Ushbu gapda necha murakka hol berilgan?

Uch
Ikki
Bir
To'rt

75. Qaysi qatorda ravishdoshga xos vazifalar to'g'ri ko'rsatilmagan? □

Fe'lni hol vazifasida ixtisoslashtiradigan maxsus shakl

Ko'makchi fe'llarga boshqa bir fe'lni bog'lab, harakat tarzi shaklini yasashga xizmat qiladi

Kengaygan shaklda bir fe'lni 2-fe'lga bog'lab, murakkab hol bo'lib keladi
Jo'nalish holida keladi

76. Qaysi javobda vositasiz to'ldiruvchi otlashgan so'z bilan ifodalangan emas?

Birni kessang, o'nni ek
O'tirganlar otning dupur-dupurini eshitishdi
Bechoraning oh-u dodini tinglang, hazratim
Maktabga bordim

77. Javoblarning qaysi birida murakkab vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan gap berilgan?

Kelinlar aytadi alla, qo'shiqchilar kuylaydi yalla
Yordamchi buyruq bajardi
Akbar bilan Dilshodaning yonma-yon yashashlarini endi bildim
O'tirganlar otning dupur-dupurini eshitishdi

78. Chaqmoqning yalt-yultidan bola qo'rqdi. Ushbu gapda vositali to'ldiruvchi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?

Taqlid so'z bilan
Ot bilan
Fe'l bilan
Otlashgan taqlid so'z bilan

79. Aniqlanmishning millati, jinsi, kasb-kori, nasl-nasabi, unvoni, laqabi, yoshi, qarindoshligi kabi qo'shimcha belgilarni tavsiflovchi aniqlovchilar nima deb yuritiladi?

Izohlovchi
Sifatlovchi
Qaratqich
Sifatlanmish

80. Ayol hamshira—hamshira ayol” birikmalarida izohlovchi aniqlovchilar qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

Birinчисida hamshira, ikkinчисida ayol
Har ikkalasida ham birinchi so‘z izohlovchi-aniqlovchi
Har ikkalasida ham ikkinchi so‘z izohlovchi-aniqlovchi
Birinчисida ham, ikkinчисida ham “hamshira” so‘zlari izohlovchi aniqlovchi

81. Quyidagi gaplarning qaysi birida to‘ldiruvchini belgisiz ishlatish mumkin emas?

Saida yo‘lda Kozimbekni uchratdi
Saida bu xotinni qayerdadir ko‘rganday bo‘ladi
Uzoq vaqt hayotda yo‘lini topolmay yuribdi
Men uni ko‘rdim

82. Siz bilan birga ishlash hammaga ham nasib qilavermaydi. Ushbu gapdagi ko‘makchili to‘ldiruvchi qaysi bo‘lakka tobelangan?

Egaga
Kesimga
To‘ldiruvchiga
Holga

83. Tarkibida sifatlovchi- aniqlovchi qatnashgan gapni toping.

Yaproqlar asta shitirladi
Yuzlarida mayin tabassum paydo bo‘ldi
Qariyalar keksalikni yaxshi o‘tkazishadi
Saida bu xotinni qayerdadir ko‘rganday bo‘ladi

84. Egasi yashiringan gap berilgan javobni belgilang.

Topshiriqni o‘z vaqtida bajaring
U so‘zini ustidan chiqdi
Vazifani bajarish kerak
Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan

85. Qaysi javobda egasi ma‘lum gap berilgan?

Masalani yechdingmi? –so‘radi Tursunoy
Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan
Biz yaqin kunlarda yakuniy testlardan o‘tamiz
Saida bu xotinni qayerdadir ko‘rganday bo‘ladi

86. Qaysi qatorda egasi umumlashgan gap berilgan?

Hurmat qilsang, hurmat qilasan
Avtobusda orqa eshikdan kirdilar
Qish. Atrof oppoq qor bilan qoplangan
–Xo‘p, amaki

87. Qanday hollarda egani tushirib bo‘lmaydi?

Gapda harakat bajaruvchisi ta’kidlanishi zarur bo‘lsa
Ega-kesim qurilishli iboralarda

Hamishi egani tushirish mumkin
Gapda harakat bajaruvchisi ta'kidlanishi zarur bo'lsa., ega-kesim qurilishli iboralarda

88. Shaxsi noma'lum gap berilgan qatorni belgilang.

Dam olish kuni kitobxonlar yig'iniga borish kerak

Hamon yodimdadir: gul chog'i erdi

–Xo'p, amaki

Ota-ona hamisha hurmat qilinadi

89. Millatimizning qadriyatlarini, an'analarini ko'z qorachig'iday asramoq darkor. Ushbu gap haqidagi qanday hukm to'g'ri?

Egasiz gap

Shaxsi noma'lum gap

Atov gap

Egasiz gap, Shaxsi noma'lum gap

90. Qaysi javobda atov gap berilgan?

Dam olish kuni kitobxonlar yig'iniga borish kerak

Hamon yodimdadir: gul chog'i erdi

–Xo'p, amaki

Ertaga teatrqa boramiz

91. Qanday gaplar so'zlovchi ko'z o'ngida biror voqea-hodisanie, narsa yoki davrni jonli gavdalandirishga xizmat qiladi?

Atov gap

So'z-gaplar

Egali gaplar

Shaxsi noma'lum gap

92. Aniqlovchi bilan kengaygan atov gap berilgan qatorni belgilang.

Bahor. Kunlar iliqlashgan

Sentabrning boshlari edi. Samarqandning ko'chalari bayramni eslatar edi

–Rahmat. Tuzuk bo'lib qoldim

Tinchlik urushni yengadi

93. Qaysi javobda modal-so'z gap berilgan?

Sog'ligingiz yaxshimi? –Rahmat

Ertalab kelasiz-a? –Albatta

Marhamat! Ichkariga kiring

Men keldim

94. Qaysi javobda undov so'z-gap berilgan?

Sog'ligingiz yaxshimi? –Rahmat

Ertalab kelasiz-a? –Albatta

Marhamat! Ichkariga kiring

Marhamat! Ichkariga kiring

95. Egasi yashiringan gap qaysi javobda berilgan?

Tinchlik urushni yengadi

Ko'chatni ko'pincha bahorda ekadilar

Issiqko'lning ko'm-ko'k sahnida oppoq kema paydo bo'ldi

Quyosh charaqlab turibdi

96. Qaysi gapda kesim uyushib kelgan?

Biz fikrlar va xulosa chiqar edik

Samarqand, Buxoro, Xiva qadimiy shaharlardir

Chashmalar, buloqlar, maftunman sizga

Ochiq derazadan tip-tiniq osmonning bir chekkasi ko‘rinib turardi

97. “Shirkat xo‘jaligi bu yil pilladan, bug‘doydan va paxtadan mo‘l daromad □ oldi” □ gapida qaysi bo‘lak kopulativ aloqaga kirishgan?

Egalar

Hollar

To‘ldiruvchilar

Aniqllovchilar

98. To‘g‘ri javobni toping.

Faqat gapning bosh bo‘laklari uyushadi

Faqat hollar uyushadi

Faqat to‘ldiruvchilar uyushadi

Barcha gap bo‘laklari uyushishi mumkin

99. Uyushiq o‘rin holli gapni aniqlang.

Buxoro, Samarqand va Xivaning tarixiy obidalari ko‘p

Buxoroda, Samarqandda va Xivada tarixiy obidalar ko‘p

Buxoro, Samarqand va Xivaning tarixiy obidalari sayyohlarni lol qoldirgan

Buxoro, Samarqand va Xivani tarixiy obdalar bezab turadi

100. Uyushiq bo‘laklarga xos bo‘lgan xususiyatlar qaysi □ javobda noto‘g‘ri izohlangan?

Doim bir xil gap bo‘lagi vazifasida keladi

Doim bir xil so‘roqqa javob bo‘ladi

Uyushiq bo‘laklarning hammasi bitta bo‘lakka tobelanish yo‘li bilan

Uyushiq bo‘laklar bir xil tushunchalar

101. Quyidagi gaplarning qaysi birida kopulativ aloqa mavjud emas?

Boy va ajoyib tilimizni buzulishdan saqlaylik

Savsatabozlik va vaysaqilikdan hazar qil

Tilning go‘zalligi uning aniqligi va mazmundorligidadir

U kunlarni tiklar xayolim, Yodga kelar barcha, barchasi

102. Vaziyat (ravish) holi uyushib kelgan gapni aniqlang.

Madaniyatli kishini tarbiyalashda... san‘at va fanning ahamiyati katta

Kitob eng olis va zimiston umr yo‘llarida insonga nur bag‘ishlab turuvchi
sehrli chiroqdir

Men ishtiyoq va hayrat bilan juda ko‘p o‘qidim

Munosabatlarning yomonlashuviga va anglashilmovchiliklarga olib keladi

103. Umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘laklardan keyin kelganda, umumlashtiruvchi so‘zdan oldin qanday tinish belgi qo‘yiladi?

Vergul qo‘yiladi

Ikki nuqta qo‘yiladi

Nuqtali vergul qo‘yiladi

Tire qo‘yiladi

104. Gapning uyushiq bo‘laklari o‘zaro qanday bog‘lovchilar bilan

bog‘lanadi?

Faqat sanash ohangi hamda "va" bog‘lovchisi bilan
"va", "ammo", "lekin", "biroq", "chunki", "shuning uchun"
Teng bog‘lovchilar yoki sanash ohangi orqali
Teng va tobe bog‘lovchilar

105. Ajratilgan bo‘laklar uyushiq bo‘laklardan qaysi xususiyatlarga ko‘ra farqlanadi?

Bir xil grammatik shaklda bo‘lishi bilan
Bir xil so‘roqqa javob bo‘lishi bilan
Bir predmetning ikki xil nomi bo‘lishi bilan
Boshqa xususiyatlari bilan

106. Kanal bo‘yidagi choyxonada, avtobus bekatida, A‘zamjon uchrab qoldi Ushbu misolda gapning qaysi bo‘lagi ajratilgan?

To‘ldiruvchi
Aniqlovchi
Hol
Ega

107. Ajratilgan izoh to‘ldiruvchi qatnashgan qatorni aniqlang

U yerda, qishloqning markazida, ajoyib choyxona bor edi
Tunov kuni, bayram arafasida, ajoyib kechaning guvohi bo‘ldim
Axir uning, singlimning ham tengdoshlari orasida o‘ziga yarasha obro‘si bor
Kitob ichidagi dastxatga, menga tanish husnixatga, uzoq tikildim

108. Ters sifatlovchi-aniqlovchi (ajratilgan aniqlovchi) qaysi javobda berilgan?

O‘rta Osiyoda Navro‘z, yangi yil bayrami, katta tantana bilan nishonlanadi
Shoir sevgan qiz-shu, hamshira
Biz - yoshlar, xalqqa xizmat qilamiz
Qobil bobo, yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan, og‘il eshigi yonida turib
dag‘-dag‘ titraydi

109. Ba‘zan, qiynalib qolganda, menga murojaat qilardi. Ushbu gapda qanday bo‘lak ajratilgan?

Ushbu gapda ajratilgan bo‘lak mavjud emas
Hol ajratilgan
To‘ldiruvchi ajratilgan
Aniqlovchi ajratilgan

110. Ajratilgan izoh bo‘lakli gapni belgilang.

Tejamkorlikni donolikning qizi, qanoatning singlisi deb hisoblash mumkin
Yozda, ta‘til kunlarida, bir necha badiiy asarlarni o‘qidim
Biz - turli tilga xos adabiyot vakillari, shu til tufayli bir-birimizni yaxshi
bilamiz

Devqomat va baquvvat yigit maydonga chiqdi

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| 1-MAVZU: Sintaksis kursiga kirish..... | 3 |
| 2-MAVZU: Soʻz birikmasi va ularning tasnifi. Gap va uning ona tili taʼlimida oʻrni..... | 10 |
| 3-MAVZU: Gapning logik-grammatik belgilari va tasnifi..... | 16 |
| 4- MAVZU. Gap boʻlaklari..... | 25 |
| 5-MAVZU. Kesim va uning ifodalanishi..... | 30 |
| 6-MAVZU: Toʻldiruvchi va aniqlovchi. ularning ifodalanishi hamda grammatik xususiyatlari..... | 36 |
| 7-MAVZU: Hol va uning maʼno turlari..... | 41 |
| 8-MAVZU: Gapning uyushiq boʻlaklari va ajratilgan boʻlaklar..... | 45 |
| 9-MAVZU: Kirish konstruktsiyalar. Undalma..... | 50 |

Ona tili (sintaksis) Amaliy mashgʻulotlar uchun dars ishlanmalari

| | |
|--|-----|
| 1-amaliy mashgʻulot: Soʻz birikmasi tahlili..... | 57 |
| 2-amaliy mashgʻulot: Gapning turlari. Gapning lisoniy sintaktik qoliplari..... | 66 |
| 3-amaliy mashgʻulot: Ega va kesim, ularning oʻziga xos jihatlari..... | 75 |
| 4-amaliy mashgʻulot: Gapning ikkinchi darajali boʻlaklari..... | 85 |
| 5-amaliy mashgʻulot: Egali va egasiz gaplar (Bir sostavli gaplar)..... | 96 |
| “Ona tili”dan testlar..... | 108 |

XUDOYQULOVA MARHABO AHADOVNA

ONA TILI

O'quv qo'llanma

| | |
|-----------------------|-------------|
| <i>Muharrir:</i> | G.Akramova |
| <i>Tex. muharrir:</i> | N .To`rayev |
| <i>Musahhih:</i> | S.Akramova |
| <i>Sahifalovchi :</i> | SH.Amonova |

"FAN VA TA`LIM" guvohnoma raqami:
307701245. 25.01.2022

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi. 01.02.2023

Bichimi 60x84.kengligi 16 shponli. "Times" garn.

Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog`ozi.

Bosma tabog`i 7.75. Adadi 10.

«Standart Poligraf» x/k bosmaxonasida chop etildi
Buxoro shahri, Navoiy shohko`chasi 6-uy